

O'ZBEKISTON KASABA UMUSHMALARI  
FEDERATSİYASI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TALIMI VAZIRLIGI  
NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

# YOZGI BOLALAR SOG'LOMLASHTIRISH OROMGOHLARI UCNUN TADBIRLAR SSENARIYLARI



TOSHKENT 2015

**O‘ZBEKISTON KASABA UYUSHMALARI FEDERATSIYASI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
XALQ TA‘LIMI VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI  
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**YOZGI BOLALAR SOG‘LOMLASHTIRISH  
OROMGOHLARI UCNUN TADBIRLAR  
SSENARIYLARI**

**«MUROD-MAX-GOFRA»  
TOSHKENT 2015**

**UO'K:783.1(085)**

**KBK:85.314**

**K25**

Mazkur to'plam Nizomiy nomidagi TDPU professor-o'qituvchilarining yozgi bolalarni sog'lomlashtirish oromgohlari uchun tayyorlangan ssenariylari asosida yaratildi.

Mazkur to'plamga kiritilgan yozgi bolalarni sog'lomlashtirish oromgohlarida o'tkaziladigan tadbirlar ssenariylari oromgoh tarbiyachilari va yetakchilari uchun metodik tavsiya sifatida taqdim etiladi.

**Mas'ul muharrir:**

T.Narbaeva - pedagogika fanlari nomzodi

**To'plovchilar:**

O.Jamoldinova – pedagogika fanlari nomzodi, dotsent  
B.Abdullayeva – pedagogika fanlari doktori, professor  
M.Toshpo'latova – katta o'qituvchi

**Taqrizchilar:**

M.Zaynutdinova – Toshkent viloyati pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi

A.Xalikov – Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi

*To'plam Nizomiy nomidagi TDPU kengash yig'ilishining 2014 yil, 22 maydagi 13-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.*

Mazkur to'plamga kiritilgan yozgi bolalarni sog'lomlashtirish oromgohlarida o'tkaziladigan tadbirlar ssenariylari oromgoh tarbiyachilari va yetakchilari uchun metodik tavsiya sifatida taqdim etiladi.

O.Jamoldinova; B.Abdullayeva; M.Toshpo'latova

Yozgi bolalar sog'lomlashtirish oromgohlari uchun tadbirlar ssenariylari:  
metodok to'plam / O.Jamoldinova. – Toshkent : Murod-Max-Gofra, 2015. 172 b.

**KBK:85.314**

**ISBN978-9943-378-40-7**

© «MUROD-MAX-GOFRA» bosmaxonasi, 2015

© O.Jamoldinova, 2015

## SO'ZBOSHI

Ertangi kunning egalari bo'lgan yoshlarni vatanparvarlik, milliy g'urur va iftixor ruhida barkamol insonlar qilib tarbiyalash mamlakatimizda olib borilayotgan yoshlarga oid davlat siyosatining ustavor yo'nalishi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyatiga integratsiyasi, ta'lim sohasi oldida nafaqat yangi imkoniyatlarini ochdi, balki yoshlarni tarbiyalash va ularga ta'lim berishda yuqori sifatga erishishni ta'minlashga qaratilgan masalalarni ham qo'ydi. Bundan kelib chiqqan holda yuqori bilim va salohiyatga ega bo'lgan malakali kadrlarni tayyorlashda ta'lim sohasida erishilgan boy tajriba, ilg'or ilmiy-texnik yutuqlar, zamonaviy ta'limiy, axborot va kommunikatsion texnologiyalarga tayanish lozim.

O'zbekistonda ta'lim tizimining asosiy mohiyati yoshlarda mustaqil fikrlash qobiliyatini o'stirish, o'qituvchi bilan o'quvchi munosabatlarini tubdan o'zgartirish, ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish, o'quv jarayonini insonparvarlashtirishdan iborat bo'lib, bu bevosita yoshlarimizning tafakkuriga, ongiga, ruhiyatiga ta'sir etish bilan amalga oshiriladi va o'z navbatida, nafaqat o'quv jarayoni balki yozgi ta'tilni ham sermazmun hamda maroqli o'tkazishga jiddiy yondashishni talab etadi.

Bolalar yozgi dam olish oromgohlarida salomatliklarini tiklash, so'lim go'shalarda, tog' yonbag'rlarida dam olish bilan birga turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar orqali o'quv yili davomida fanlardan olgan bilimlarini mustahkamladilar, nazariy bilimlarning hayotiy voqea-hodisalar bilan bog'liqligini amalda sinab ko'rish imkoniga ega bo'ladilar, tabiat hodisalarini kuzatadilar.

Yozgi bolalar sog'lomlashtirish oromgohlarida bolalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning iqtidor va qobiliyatlarini ro'yobga chiqarishda ma'naviy-ma'rifiy, ko'ngilochar tadbirlarning o'rni alohida ahamiyatga ega.

Bolalar oromgohlarida o'tkazilayotgan ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini takomillashtirish, madaniy tadbirlarni yuqori saviyada o'tkazilishiga ko'maklashish maqsadida pedagoglar tomonidan muhim sanalarga, bayramlarga bag'ishiangan, shuningdek, aniq fan yo'nalishlari bo'yicha tadbirlar ssenariysi ishlab chiqildi.

Mazkur ssenariylar quyidagi vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi:

- bolalarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida O'zbekiston Respublikasining vatanparvar fuqarolari etib tarbiyalash va ularda ijobiy sifatlarini shakllantirish, vatan va millat oldidagi fuqarolik, farzandlik burch va vazifalarni bajarishga tayyorlashga;

- bolalarni milliy qadriyatlar va buyuk o'tmish bilan g'ururlanish ruhida tarbiyalash hamda buyuk mutafakkirlarning ma'naviy merosini chuqur o'rganishga;

- o'sib kelayotgan yosh avlodning jamiyatda bo'layotgan o'zgarishlarga, voqea-hodisalarga, islohatlarga ongli munosabatini tarbiyalashga;

- o'quvchilarni jamiyat taraqqiyotiga tahdid soladigan har qanday ekstremistik oqimlarga nisbatan murosasiz, ularga qarshi jangovar kurashchi etib tarbiyalashga;

- aniq fanlarga bo'lgan qiziqishlarini oshirishga, o'quvchilarda, kasb-hunarni egallashga mas'uliyatli munosabatni tarbiyalash, ularda fuqaro sifatida o'z burchlarini halol bajarish tuyg'ularini uyg'otish va takomillashtirishga;

- oilaparvarlik mas'uliyatini, ota-ona, qo'ni-qo'shni, mahalla-kuy, el-yurt oldidagi burchi hamda baynalminal tuyg'usini tarbiyalashga;

- bolalarni erkin, mustaqil shaxs sifatida o'z huquqlarini taniydigan, o'z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan inson sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

## I. Ijtimoiy yo`nalishdagi tadbirlar ssenariysi

### VATAN SAJDAGOH KABI MUQADDASDIR.

M.I.Toshpo'latova

Tadbir o'tkaziladigan joy bayramona bezatilgan: devorlarda mustaqillik yillarida erishilgan yutuqlar aks ettirilgan fotoko'rgazmalar, bolalar tomonidan tayyorlangan devoriy gazetalar, istiqlol yillarida qad ko'targan inshootlar aks etgan stendlar va boshqalar. Mayin kuy ostida tadbir ishtirokchilari, yozgi bolalarni sog'lomlashtirish oromgohi rahbariyati va tarbiyachi-murabbiylar bayram tadbiriga kirib kelishadi. Tadbirni oromgoh rahbari ochib, barchani mustaqillik bayrami bilan muborakbod etadi. So'ng davlatimiz madhiyasi yangraydi. Qarsaklar ostida tadbir boshlovchilari sahnaga chiqadilar :

Yigit: Bu yil mustaqillikka erishganimizga 23 yil to'lishiga sanoqli kunlar qoldi. 23 yosh ayni yoshlik pallasi. Navqiron kuchga to'lgan payt. Agar uni inson umriga qiyoslasak, kamolot yo'lidagi muhim bosqich, muhim zinapoyadir. Negaki mustaqillikka erishganimizga roppa-rosa 23 yil to'ldi.

Qiz: Mustaqillik bois xalqimiz faravonligi oshdi. Fuqarolarimizning dunyoqarashi, fikrlash doirasi kengaydi. O'z taqdiriga mas'ullik bilan qarash shakllandi. Har bir fuqaro ongu-shuurida "O'zbekiston-kelajagi buyuk davlat" degan yangi g'oya yorqin aks eta boshladi.

Yigit: Vatanim, ulg'aydim senda baxtiyor,  
Tinglab dostonlaring, ertaklaringni,  
Har tongda shabnamday, gar mumkin bo'lsa,  
Qiyoslab o'pardim etaklaringni.

Qiz: Bobolarim xoki yotar tuprog'ingda,  
Ummondirsan, bir maysaman qirg'og'ingda,  
Chinordirsan jonim titrar yaprog'ingda,  
Ildizingda tutashdir qalb, qo'nim, vatan.  
(Havaskor o'quvchi ijrosida "Vatanim" - qo'shig'i yangraydi)  
xalq musiqasi

Yigit : Eh, qanday yaxshisan, jonajon Vatan!  
Nafis osmonlaring muncha moviy rang.  
Bir yon sho'x vodiylar, bir yon qir tog'lar,  
Seryulduz osmonlar, sergul o'tloqlar.  
Sen oliy sevgiga loyiqsan, Vatan,  
Ho'rsinmasmi, seni bir kezgan sayyoh,  
Nimang yo'q? Har narsa senda muhayyo.  
Unuta olarmi seni bir ko'rgan?

Qiz : Qaniydi bir lahza qoshingda turib,  
Senga atab ko'ngil rozin yorsam.  
Vatanim, bag'ringga boshimni qo'yib,  
Eng avval, sevinchdan bir yig'lab olsam.  
Sening go'zal, obod vodiylaringga,  
Yulduzlar termulib entikar tunda.  
Hayolimda quyosh, tonglarni kutib  
Bir semi sog'inib chiqadi unda.

Yigit: Vatanim tanhosan, tanholar ichra,  
Bog'laring jannatga eturman qiyos.  
Qabul et, bu mening mehrimdan parcha,  
Qalbm ummonidan bir tomchi xolos.

Mustaqillik biz yoshlarga keng imkoniyatlar eshlgini ochdi. Biz bu imkoniyatlardan to'g'ri, oqilona foydalanib, vatanimiz ravnaqi uchun uning obodligi yo'lida o'z kuch-mehnatimizni safarbar etishimiz kerak.

Havaskor yoshlar ijrosida Ozodbek Nazarbekov ijrosidagi "Vatan" qo'shig'i ijro etiladi.

Qiz: O, ona vatanim, jonajon yurtim,  
Madhing bitmoq uchun qalamim oldim.  
Bulbulga aylanib yurakdan jo'shib,  
Nomingni kichik bir qoshiqqa soldim

(So'ng "Tarix ko'zgusi" mavzusidagi hujjatli filmni tomosha qilishga taklif etiladi.)

Yigit : Quyoshdiansan, mehr to'la nigohlaring,  
Baxt nuridan yashnar go'zal quchog'laring.  
Yayrab o'sar gulu maysa-giyohlaring.  
Shu'lalarga chulg'angan bo'stonim – Vatan!  
Borim Vatan, shonim Vatan, jonim Vatan!

Qiz: Mardlaring bor, madhi sig'mas kitob larga,  
Jo'rovozsan tinchlik degan xitoblarga.  
Oydek yuzing chayay gulu guloblarga,  
Sajdagohim, muqaddas iymomim – Vatanim!  
Borim – Vatan, shonim – Vatan, jonim Vatan!

Yosh avlodni O'zbekistonimiz tarixi, uning boy madaniy me'rosi, respublikamiz ramzlariga sadoqat ruhida tarhiyalash, ularda shunday Vatanda yashashdan faxrlanish tuyg'usini shakillantirish bizning sharafli burchimizdir. Buning uchun har bir tadbirda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishga yordam beruvchi omillardan mohirona foydalanish, shaxs sifatida shakllanayotgan yoshiarni shaxsning o'zligini anglashga, xalq baxt-saodati uchun kurashuvchi qilib tarhiyalash, ularni halol mehnatga o'rgatish dardor.

«Vatanni sevmoq iymondandir» mavzusidagi ertalikning maqsadi ham, ahamiyati ham Vatan tuyg'usining muqaddasligini anglatishga yo'naltirilgan. Ertalikni o'tkazish uchun sog'lomlashtirish oromgohi sahnasi chiroyli qilib bezatiladi. O'zbekistonning davlat bayrog'i, gerbi, sahna to'riga qo'yiladi. Sahnadan O'zbekistonimizning go'zal tabiati aks ettirilgan rasmlar, yetishtirilgan noz-ne'matlar o'rin oladi.

Ertalik murabbiyning kirish so'zi bilan ochiladi:

- Ona vatanimiz - hur O'zbekiston! Istiqloq tufayli ochadi jamol

Insonlar dili g'urur va iymon, mehr oqibatda topmoqda kamol. Sahnaga o'zga sayyoraliklarning fazoviy kemasi chiroqlarini o'chirib, yondirib keladi va to'xtaydi.

Undan ovoz eshutiladi:

-Men - Mars! Men – Mars! Memi eshitayapsizmi? Kemaning quvvat olish qismi ishlamay qoldi. Men bir notamish sayyoraga qo'nishga majburman.

Kemadan ikki kishi tushib keladi. Ular sahnadagi narsalarni, davradagi odamlarni ko'rib, hayron bo'ladilar.

1-mehmon: Bu qaysi sayyora?

Olamning qaysi nuqtasi?

Nomi nedur?

Unda kimlar yashaydi?

O'quvchi: Bu sayyora, Ona yerdir.

Yer va inson do'stlashgan.

Jannat kabi go'zal bu yurt,

Nomin aytadi sen eshit.

Bolalar jonli harflar bilan «O'ZBEKISTON» so'zini hosil qilishga kirishadilar:

O' - O'zligini topdi o'zbek sunbulaning kunida,

Z - Zamon silsilasi qaytaraolmas maqsaddan.

B - Baxt-saodat kelar albat, ahil bo'lsak, bizlarga

E - Yetuklikka intilamiz insoniylik burchimiz

K - Kamolot, ulug'lik tomon intilar xalqim.

I - Insonlar orzusi ezgulik, axir.

S - Sabr-toqat, iymon bo'lsa-da yo'ldosh,

T - Tinch o'tar inson umri, baxt unga doim yo'ldosh.

O - Orzu niyatlarimiz: tinch bo'lsin butun jahon,

N - Nomi jahonda jaranglar ona yurt - O'zbekiston !!!

2-mehmon: Ofarin, ofarin! Yurtingiz va xalqingiz doimo bo'lsin omon.

Mehmon: Bu ne shodiyona, qanday tantana,

Nega bunda barcha odam jamuljam?

O'quvchi: Yurtimizda bayramlar ko'p, to'ylar ko'p,

Bag'ri kenglik, mehmondo'stlik xalqimizga xos

Mustaqil O'zbekiston madhini kuylash,

Dilimizga nur, qalbimizga zo'r quvonch.

Mehmon:

Vatanningiz ancha issiq,

Yuzingizda ajib nur.

Menimcha, har kuningiz,

Juda o'tadi masrur

O'quvchi:

Serquyoshdir vatanim,

Qalbimiz quyoshdan-da iliqdir,

Shuning uchun har kunimiz

Boshlanadi qo'shiqdan.

O'zbekiston davlat madhiyasi ijro etiladi.

Mehmon:

Yurtingiz O'zbekiston, juda go'zal bu makon.

Davlatigingiz ramzlari, Ne bildirar qadrdon?

Xalqim, orzu niyati Dilga quvonch soladi.

O'quvchi:

Bayrog'imiz dunyo uzra, Yurtga dovrug' soladi.

Bayroqdagi to'rt xil rang, hamohangdir birlikda.

Bir-birini to'ldirib, Maqsad sari tenglikda.

Havo rang – tinchlik demak,

Oq rangdir-poklik ramzi

Yashil- yashnagay ei

Qizil rang-hayot ramzi,

Yulduzlari doimo sirli,

Ma'nolarni so'zlaydi.

O'n ikki - bu o'n ikki oy,

Tarixdan so'zlaydi

Yangi chiqqan to'lin oy,

Har ko'zni o'zga chorlar

Dunyoga ochamiz qo'l

Dilga nur, poklik solar.

Mehmon:

Bayrog'ingiz dunyo bo'ylab,

Hilpirasin, dovrug' solsin.

Yurt maqsadi, oruzi,

O'sib kamolga yetsin.

O'quvchi:

Tug'romizda orzu,

Aks etgandir, biling siz.

Xumo qushi yetaklar,

Maqsad sari biling siz.

Paxta bug'doy chambari

To'kinlik, to'kin ramzi.

Quyosh, yulduz, suv tog'lar

Yashnagan yurt timsoli

Mehmon: So'zlaringiz dilimizni,  
Ko'nglimizni chog' qildi  
Yurtingizga mehringiz,  
Bizni hayron lol qildi.

O'quvchi: Yurtni sevmiq bizlarga  
To'marisdan merosdir.  
Temur bobom o'gitlari  
Durlar ichra olmosdir

Nomi dunyoda mashhur,  
Bobolarim bor mening,  
Ulug'bek, Sino, Bobur  
Navoiy - jonim mening.

Shoirларim so'zlaydi,  
Vatan madhini a'lo  
Ko'ngillarning madhida  
Mustaqillik bebaho

Shu yerda bolalar shoirlarning ona-Vatanni, ulug'ovchi she'rlari, qo'shiqlaridan va Vatan haqida maqol, hadislardan namunalar o'qiydilar.

Mehmon: Samo uzra kemamiz,  
Yo'l kezib qanot qoqdi.  
Bu yurt, odamlar ichra suzib,  
Chin dildan bizga yoqdi.

O'quvchi: Sizlar hali biz bilan,  
Ko'p suhbat qurmadingiz,  
Yurtim bo'stonlarida,  
Sayr qilib yurmadingiz.

Shundan so'ng bolalar sahnada davra aylanib, qo'llaridagi O'zbekistonning noz-matlarini, gullarini namoyish qilishadi. Ularni tavsif etishadi.

O'quvchi: Poklik, oqlikni paxta,  
Xalqim dilidan olgan.  
Shuning-chun paxta Qadri,  
Oltindan ortiq bo'lgan.

Hamma o'quvchilar: Qancha aytsak shuncha oz.  
O'zbekiston madhini,  
Ko'nglimiz to'q zo'r ishonch,  
«Vatan -barchamizniki!»

Shu yerda fazoviy kemaning chiroqlari yonib, shu'la socha boshiydi.

Mehmon: Ey, aziz insonlar, baxtlisiz doim, shunday yurt, shunday el ichrasiz doim, sizning sururingizdan, ko'nglimiz to'ldi. Ona - yurtga mehringizdan, serquyosh yurtingizdan, quvvat olib ketamiz, uchishga tayyor bo'ldi.

Mehmonlar: Xayrlashamiz! Qolar omad siz bilan,

Yashnasin el! Qolar iymon siz bilan

O'quvchilar: Biz o'zbeklar mehmonlarni ulug' ko'ramiz,  
Yerga tashrifingizni qutlug' bilamiz,  
«Oq yo'l» deymiz ko'ksimizda qo'limiz.  
Mehmonlarga doim ochiq uyimiz.

Murabbiyning xotima so'zlari bilan ertalik yakunlanadi:

Aql, boyluk bergan bilan kamaymas,

Vatan madhin aytgan bilan tugamas.

«Sog'lom avlod» o'zligini xor qilmas,

El-yurtin ulug'lagan aslo kam bo'lmas!

Rahmat, aziz bolajonlar! Elu yurtimiz baxtiga doimo sog'-salomat bo'linglar.

Oromgohlarda bu kabi ertaliklarni o'tkazib borish o'quvchilarda ona - Vatanga mehr-muhabbat, undan faxrlanish tuyg'usini orttiradi.

## BUYUK VA MUQADDASAN, MUSTAQIL VATAN

M.Jumayev

Sahnaga kirish yo'laklari bezatilgan, karnay – surnay, doira sho'x sadolari mehmonlarni bayramga chorlab turibdi. Ma'naviyat maydoni bayramona bezatilgan. O'zbekiston Respublikasi bayrog'i maydon to'rida hilpirab turibdi. Sahnaga markaziga o'rnatilgan so'zana, O'zbekiston gerbi e'tiborni tortadi. Oromgoh hududida “O'zbekiston vatanim manim” rasm ko'rik tanlovi, “Mehrim senga – mening Vatanim” ishlanmalar ko'rik tanlovlari tashkillashtirilgan. Maydon atrofiga mehmonlar, kichkintoylar va ota – onalar uchun joylar hozirlangan. Sahnaga boshlovchilar musiqa sadolari ostida chiqib kelishadi.

1-Boshlovchi:

Assalom, O'zbekim, ozod Turonim,

Mustaqil diyorum O'zbekistonim.

Kelajagi buyuk ulug' diyorsan,

O'zingga xon-sanu, o'zingga beksan.

Istiqloling muborak, senga, Vatanim

O'z erking muborak, buyuk Turonim

Assalomu alaykum hurmatli mehmonlar, aziz bolajonlar! Bugun Mustaqilligimizning 23 yillik bayramini nishonlash uchun yig'ilganmiz. Bu bayramni tinch – totuv yashayotgan xalqimiz zo'r xursandchilik bilan kutib olayapti. Sizlarni ----- jamoasi va tarbiyalanuvchilari gullab yashnayotgan O'zbekistonning mustaqillik bayrami bilan muborakbod etamiz.

2-Boshlovchi: Tabrik uchun so'z \_\_\_\_\_ ga

Raq: “O'zbekiston”

1-Boshlovchi:

Bugun bayram tantana,  
Jaranglar sho'x sadolar.  
Istiqlol yulduzlari,  
Biz ijodkor bolalar.

2-Boshlovchi:

Yasha Vatan, hur Vatan,  
Dunyoga mashhur, Vatan.  
Istiqlolga erishding,  
Davru – davron sur Vatan.

1-Boshlovchi:

Daryolar, dengizlar, tog' larga makon,  
Bog'lari, chamani oltinlarga kon,  
Bir go'zal diyor bor: cho'llari bo'ston,  
Sharqimning mash'ali, sen, O'zbekiston!

2-Boshlovchi: Bayram qatnashchilarini hushnud qilish uchun navbat qo'shiqqa.  
Qo'shiq: "Vatanim"

Chaman, chaman gullarga,  
Sayroqi bulbullarga,  
Toshqin daryo, soylarga,  
Joydir go'zal Vatanim.

Ko'kni quchgan uylarga,  
Baxt keltirgan to'ylarga,  
Quvnoq va sho'x kuylarga,  
Boydur go'zal Vatanim.

Porlar g'olib bayrog'ing,  
Kundek yorug' chirog'ing,  
Boylikka kon har yog'ing,  
Boy bo'l go'zal Vatanim.

1-Boshlovchi:

Mustaqil O'zbekiston,  
Baxtiyorlar o'lkasi.  
Raqqosalar raqsi bu,  
"Andijonning polkasi"

Raqsi: "Andijon polkasi"

She'r:

Mustaqillik degani,  
Bilib qo'y ne degani,  
Eng avval mustaqillik,  
Erkin-ozod degani.

Xalqlarimiz ahil bo'lsa,  
Mustahkamdir yurtimiz.  
Bolajonlar ahil bo'lsa,  
Bajarilar burchimiz bizning, burchimiz.

2-Boshlovchi:

Bugun o'zbek xalqining asrlar osha orzusi bo'lib kelgan Mustaqillik kuni arafasida yig'ildik. Mana, salkam 23 yildirki, xalqimiz hur, ozod, erkin diyorda yashash zavqini surmoqda. Ushbu ulug' ayyom bilan tabriklash uchun go'zal tariximiz sahifalaridan ardoqli va buyuk siymolar ham tashrif buyurishgan.

Amir Temur:

Bolalarim, men har mamlakatda adolat eshigini ochdim, har mamlakatning yaxshi kishilariga ezguliklar qildim. Nafsi yomon, axloqsiz odamlarni mamlakat sarhadlaridan quvib chiqardim. "O'g'illarim millatning ulug' martabasini, oliy saodatini saqlamoq uchun adolat va ozodlik muqaddas dastingiz bo'lsin"

Alisher Navoiy:

Shohu toju hilqatini kim  
Men tamosho qilg'ali  
O'zbekim boshida qalpoq

Ya'mi, men doppili o'zbekimga xuddi toj kiyib zarrin libosga o'ralgan shohga qaragandek quvonib tikilaman.

Alpomish va Barchinoy

Barchinoy:

O'zbek elining o'g'lomi,  
Alpomish avlodlari,  
Ta'zim aylan sizlarga,  
Bahodirlar sultoni.

Alpomish:

O'zbek qizi Barchinoy,  
Go'zalligi hilol-oy.  
Birga qo'shiq kuylaylik,  
Yurtim ohanglarga boy.

1-Boshlovchi: Marhamat mehmonlar, bu yerga o'tiringlar.

Raq: "Lashkar"

2-Boshlovchi: Bolajonlar (bolalar sahnaga yugurib chiqadilar)

1-Boshlovchi: Bu bayram ajoyibotlarga boy sehrlidir

Bolalar: Uning sehri nimada?

1-Boshlovchi: Bu bayramda ijodini namoyon etgan har bir bolajon o'z orzusiga yetar ekan. Bolajonlar, sizning ham orzuingiz bormi?

Bolalar: Albatta

1-Qiz:

Men-chi men katta bo'lsam,  
Mohir chevar bo'laman.  
O'zbekimning doppisini  
Qoyil qilib tikaman.

2- Bola:

Sport bilan do'stlashib  
Kuch – quvvatga to'laman

Kelajakda men jahon  
Chempioni bo'laman

3- Qiz:

Raqs mening jon-u dilim,  
O'ynab katta bo'laman  
Mukarrama, Tamaraxon  
Avlodlari bo'laman

4- Bola:

Men esa jasur, ziyrak,  
Yengilmas chegarachi.

Raqs: "Lazgi"

1-Boshlovchi: Oromgoh bolalari har xil sport turlari bilan shug'ullanib kelmoqdalar. Ular yurtimizning bo'lajak jahon chempionlari. Bugun bizni bayram bilan tabriklash uchun o'z chiqishlarini namoyish etadilar, marhamat kutib oling.

Raqs: "Shodiyona"

Sahna: Birdan paq etgan tovush eshitilib, maydon burchagidagi bo'y barobar xumdan jin chiqib keladi.

2-Boshlovchi: Voy, nima bo'ldi. Bu kim bo'ldi bolalar, taniysizlarmi?!

Bolalar: Bu jin? – Assalomu alaykum jin amaki.

Jin: Meni ko'p yillardan beri shu xumga solib qo'yishgan edi. Bayramingizda millatingizni, ozodligini kuylab she'r, qo'shiq aytib turganingizda qayerdandir menga sehri kuch keldi-yu, shu xumdan qutulib chiqdim. Xursandchilik qilishingiz menga shunday ta'sir qildi-ki, men ham ozod, mustaqil yashagim keldi. Endi men odamlarga ko'za, lagan, o'yimchoqlar yasab, ularni xursand qilmoqchiman.

1-Boshlovchi: Barakalla jin! Seni ozod bo'lganing bilan tabriklaymiz. Sen uchun bolalarimiz qo'shiq va raqslarini ijro etishadi.

Raqs: "Gruzincha"

She'r:

Bola:

Bugun bizlar barkamol avlod  
Shu Vatanning suyanch ardog'i  
Azim chinor bo'lsa gar Vatan  
Bizlar uning ko'rki ya'rog'i

Bola:

Biz hech kimdan kam bo'lmaymiz,  
Kam bo'lmaymiz, illo, hech qachon.  
Biz bir tanmiz sobit qadammiz,  
Ortimizda Vatan jonajon.

Bola:

Biz barkamol, o'ktam avlodmiz,  
Kelajagi buyuk davlatmiz

2-Boshlovchi: Bugun yurtimizning 22 – yillik bayrami turli millat vakillari sizlarni tabriklash uchun tashrif buyurishgan. Endigi navbatni ularga bersak.

Sahna:

Fonagramma: chaqaloq yig'isi eshitiladi. Hasan va Zuhra chaqaloqlarni sahnaga olib chiqadilar.

1-Boshlovchi: 1991 yil, 1 sentabr kuni mahallamizda egiz chaqaloqlar dunyoga keldi. Oylar, yillar o'tib chaqaloqlarimiz 2 yoshga to'lishdi va "Oqibat" mahallamizdagi 552-bog'chaga yo'l olishdi. Ularni MTMning ilk yosh guruhiga qabul qilishdi. (Bolalar bog'chada o'ynashayotgani tushirilgan rasm banneri ko'rsatiladi) Bog'chada ta'lim – tarbiya olib, aqlni charxlab, zehni rivojlantirib sog'lom avlod maktab tomon yo'l olishdi.

2-Boshlovchi: maktabda ilm – fanni puhta egallab kollej va oliy o'quv yurtlariga yo'l olishadi. (Bolalar maktabda o'qiyotgani tushirilgan rasm banneri ko'rsatiladi)

1-Boshlovchi: Mustaqilligimiz sharofati bilan bizning Hasan chet elda ya'ni Londonda o'qish huquqiga ega bo'ldi. Zuhra esa yosh avlodga ta'lim va tarbiya berish uchun Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika Universiteti talabasi bo'ldi.

(Bolalar chet elda, oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotganlari tushirilgan rasm banneri ko'rsatiladi)

2-Boshlovchi: Oradan 4 yil o'tdi.

1-bola: Mastura ona, suyunchi bering, Hasan akamdan, Londondan xat keldi.

Mastura ona xatni qo'liga olib o'qiydi. (Maktub matni boshlovchi tomonidan o'qiladi)

Assalomu alaykum, onajon! Sog'liqlaringiz yaxshimi, sog' salomatmisiz? Singlim Zuhraxon yaxshimi? Mahalla - ko'y, qo'ni – qo'shnilar, qarindosh - urug'lar - hammalari sog' – salomatmilar? Onajon, men huquqshunoslik diplomini oldim, erta – indin O'zbekistonga qaytyapman. Men sizga, ona yurtimga va yurtboshimizga ta'zim qilaman. Menga shunday shart – sharoit yaratib berganligingizdan cheksiz minnatdorman. Kelajakda ona yurtimga, yurtboshimizga sidqidildan xizmat qilishga tayyorman. Prezidentimiz biz yoshlarni qo'llab – quvvatlab kelayotgani bu bizning eng katta yutug'mizdir. Shuning uchun men o'sib kelayotgan uka – singillarimga aytar so'zimi o'qing, bilim oling, biz yoshlarga yaratib berilgan imkoniyatlardan unumli foydalaning, deb qolaman. Men sizlarni va ona yurtimni judayam sog'indim. Barcha yaqinlarimizga salom ayting. Uchrashguncha xayr. Salom bilan o'g'lingiz Hasan!

Zuhraxon: Onajon, onajon! Assalomu alaykum meni tabriklang onajon. Men Zulfiya nomidagi davlat mukofoti sovrindori bo'ldim. Bundan juda xursandman. Men o'z ona yurtimdan, yurtboshimiz I.A. Karimov mana shunday Zulfiya mukofotini ta'sis etganlaridan juda minnatdorman va hamisha xizmatlariga tayyorman.

Mastura ona: O'lo'nga beaded shukur, bugun men uchun qo'shloq bayram. Hozirgina Londondan, akangdan xat oldim. Akang huquqshunoslik diplomini olib, erta – indin O'zbekistonga, uyga qaytayotgan ekan. Men yoshlarga shunday imkon yaratib bergan yurtboshimiz doim sog' – omon, boshimizda soyabon bo'lib yursin deyman.

2-Boshlovchi: Raqs: "Eski shahar"

Jin: Rahmat, sizlarga. Meni oxirgi bir sehrim qoldi, uni sizlarga sovg'a qilmoqchiman. Hammangizni sehrli bayram dasturxoniga taklif qilaman.

1-Boshlovchi: Mustaqilligimizning 23 – yilligiga bag'ishiangan bayram kechamiz o'z nihoyasiga yetdi. Sizlarga tinchlik – totuvlik, sog'lik – salomatlik, baxt va omad tilaymiz. Osmomimiz doimo musaffo bo'lsin.

## SOG'LOM AVLOD ORZULARI

M.I.Toshpo'latova

Tantana oromgoh zalida o'tkaziladi. Sahna milliy an'analariga xos bezatilgan. Bolalar musiqa sadolari ostida sahnaga chiqadilar.

1-boshlovchi: Assalomu alaykum, aziz va mehribon ustozlar-u, hurmatli otanalar!

2-boshlovchi: Assalomu alaykum, sho'x-shodon bolajonlar.

1-boshlovchi: Xush kelibsiz, mehmonlar  
Assalom sizga,  
Tabarruk insonlar,  
Ming ta'zim sizga  
Qo'llarim ko'ksimda,  
Dildan ehtirom,  
Mo'tabar murabbiy,  
Sizga ming salom

2-boshlovchi: Assalom, mustaqil O'zbekistonim!  
Assalom, qudratli, nurli bo'stonim.  
Erk va ozodlik muborak bo'lsin!  
Bizdek farzandlaring doim bor bo'lsin.

1-boshlovchi: O'tgan yillarimizni birma-bir eslab ko'raylik-chi. Shu yillarda nimalarni biz ko'rgandik. Aytishadi-ku «Yoshlikda o'rgangan bilim toshga o'yilgan naqsh» kabidir.

2-boshlovchi: Avvalambor, Vatanni sevishga o'rgandik. Vatan bu insonning kindik qoni to'kilgan joyidir. Vatan avlod-ajdodlarimiz, ota-bobolarimiz yashab o'tgan, biz tavallud topib ulg'aygan, hayot kechirayotgan diyorimizdir.

Barcha nelarga javob izlaymiz,  
Olam sirlarini yechamiz albat,  
Ilmu-ma'rifatla bo'lmoq istaymiz  
Bizni Vatan kutar, buyuk kelajak

«Vatan» haqida qo'shiq ijro etiladi

O'quvchi: Yurtim, senga she'r bhtdim bu kun,  
Qiyosingni topmadim aslo.  
Shoirlar bor o'z yurtin butun,  
Olam aro atagan tanho.  
Ular she'ri uchdi ko'p yiroq,  
Qanotida kumush diyori.  
Bir o'lka bor dunyoda biroq,  
Bitilmagan dostondir bori,  
Faqat ojiz qalamim manim,  
O'zbekiston Vatanim manim

Tamg'a, bayroq ko'targan bolalar sahnaga chiqadi.

Bayrog'imda yulduzlar bor, oylar bor,  
Yashil rangda yashnab turgan joylar bor,  
Oqligida oppoq tilak, o'ylar bor,  
Xilpiragan sayin ko'zim quvnaydi,  
Yurtimizni dadil olg'a boshiyadi.  
Tamg'amiz bor juda ko'rkam,  
Yashnab turar xuddi ko'klam,  
Bir yon paxta, bir yon bug'doy,  
Vatan bizga aziz makon.  
Ko'rganingiz ikki daryo,  
Ana Sir va Amudaryo,  
O'rtadagi xumo go'zal,  
Baxt timsoli erur azal,  
Oy-u, yulduz parvonadir.

Hamma: O'zbekiston yagonadir.

1-o'quvchi: Oilada eng mo'tabar zot,  
Farzandiga u baxt va najot,  
Tursin endi turmushga hayot,  
O'zbekimning go'zal ayoli.  
2-o'quvchi: Gul yuziga yarashar holi,  
Doim boshda turar ro'moli,  
Farzandida baxti, iqboli,  
O'zbekimning go'zal ayoli.

- 3-o'quvchi: Sarishtadir har qilgan ishi,  
Yo'q farzanddan o'zga tashvishi,  
Bu dunyoda eng ulug' kishi-  
O'zbekimning go'zal ayoli
- 4-o'quvchi: Qizi bor uyning fayzi bo'lak, deydilar  
Uyimizda o'g'il yo'q deb o'ksinmang,  
Tog' bo'lmasa, qir ham tirgak deydilar,  
Elning baxti botirlarga yoz bo'lsin,  
Shahnozalar, Faridalar bor bo'lsin!

«O'zbek qizlari» raqsi ijro etiladi.

Tanbur nolasi eshitaladi. Sahnaga buyuk ajdodlarimiz Amir Temur, Alisher Navoiy, Mirzo Bobur, Ulug'bek, Al-Buxoriy, Al-Xorazmiy, Cho'lpon siymosidagi bolalar paydo bo'lishadi.

O'quvchi: Ajdodlarimiz – faxrimiz. Bizning Vatan botirlar vatam, Shiroq, Jaloliddin Manguberdi kabi botirlar vatanidir.

- Amir Temur: Men kim, mulki Turonman,  
Amiru Turkistonman,  
O'tsa hamki asrlar,  
Qadrimga yetdi avlod,  
Tanitib jahon ichra,  
Pok ruhimni etdi shod
- O'quvchi: Siz Amirsiz, Siz Temursiz, jahongir sulton  
Imondirsiz, vijdondirsiz, siz aziz inson,  
Qalblararo ko'tarmoqda ruhingiz isyon,  
Sizday mard zot tug'ilsa deb, umidvor jahon,  
Temur bobo, nomingizni yod etajakmiz,  
Olamaro ruhingizni shod etajakmiz.
- 1-o'quvchi: Al-Buxoriy, At-Termiziy hazrat bizga,  
Ulug'beku, Al-Farg'oniy savlat bizga,  
Temur bobo, Manguberdi davlat bizga,  
Ona xalqim, dono xalqim, bizga inon!
- 2-o'quvchi: Yurtning do'stiga ochiq bag'ri bag'rimizdir,  
Alpomishning yovga qahri qahrimizdir,  
Navoiyning turkiy tili faxrimizdir.  
Ona xalqim, dono xalqim, bizga inon!  
Ajdodlarimiz ta'zim bajo aylab, sahnadan chiqib ketishadi.

Sho'x kuy taraladi.

- 1-boshlovchi: Ibn Sino bobo ushalar davo.  
 - Hom suv ichma, sog'liqdan kechma.  
 - Yeb bo'lgach ovqat, yugurma faqat.  
 - Ko'p dardga asos, shamollash halos.  
 - Badantarbiya, kuch etar hadya.  
 - Kim harakatda sog'lom albatta

Sahnaga sport musiqalari ostida qatnashadigan bolalar chiqadilar.

- Biz karate bo'yicha jahon chempioni bo'lib, O'zbekiston bayrog'ini yanada yuqori ko'tarmoqchimiz.

Mashqlar bajarib ko'rsatadilar.

2-boshlovchi: Biz bir qator fanlarni o'rganib savodxon bo'ldik.

1-o'quvchi: Matematika har yerda kerak,  
 Uni bilish uchun o'qish ham kerak.  
 Ko'paytira olmasang ikkini uchga,  
 O'rganganlaring chiqadi puchga.

2-o'quvchi: O'zbek tilim jonu dilim  
 Chunki bu til – ona tilim  
 Ega, kesim, ot, sifat, fe'l,  
 Gap tahlilini o'rgandim men

3-o'quvchi: Musiqa tadbiri biz uchun  
 Eng quvonchli tadbir edi  
 Chunki bizni san'atga  
 Ustozim olib kirdi

Bir qancha bolalar«Ulug' zot, Ustoz» degan mazmunda she'rlar o'qishadi. Yana bir qanchalari «Jannat onalar oyog'i ostidadir» mazmunida o'z onalarini she'riy tarannum etishadi. Sho'x kuylar yangraydi. Ustozlar bilan bolalar raqsga tushishadi.

## MA'NAVIYAT - QALBIM QUYOSHI

X.J.Sattorova

I.A.Karimovning «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asari asosida o'tkazilgan tadbir ssenariysi

Tadbirning maqsadi:

a) Ta'limiy: Yurtboshimizning asarlari to'g'risida keng qamrovli ma'lumot berish va asosiy g'oyasi bilan tanishtirish. Asardagi ayrim qismlarga alohida to'xtalib, mukammal tushuncha hosil qilish. Ular qalbiga milliy istiqlol g'oyasini singdirish.

b) Tarbiyaviy: O'quvchilarda eng yaxshi insoniy fazilatlar: insonparvarlik, mehnatsevarlik, mehribonlik, kamtarlik hislarini shakllantirish. Odob-axloq jihatidan yetuk, barkamol insonlar bo'lib kamol

topishlari uchun ularga keng ko'lamda milliy tarbiya berish.

v) Rivjolanfiruvchi:

Fikrlash doirasini kengaytirish. O'z qarashlarini erkin va mustaqil bayon etishga, nuomala madaniyatiga erishish.

e) Kasbga yo'llovchi: Puxta bilim olib, kasb-hunar egallashga undash. Mehnatga muhabbat uyg'otish.

Tadbir rejasi: I.I.A.Karimovning «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asari haqida ma'lumot berish.

2.Kitob to'rt bobdan iborat ekanligi va uning har bir bobi alohida nomlanishi haqida to'xtalib, asar mazmuni bilan tanishtirish.

3.Yurtboshimiz fikrlaridan misollar keltirish.

4.Ulug' ajdodlarimiz, mutafakkirlarimizning, ustozlarimizning Vatanni ulug'lovchi ibratli pandlari, nasihat hikmatlari, shuningdek, she'r va qo'shiqlaridan misollar keltirish.

5.Bolalar ijodidan namunalar havola etish.

6. Do'stlik haqida kichik sahna ko'rinishi namoyish qilish.

7. Tadbir yakuni.

Tadbir o'tkaziladigan joy bayramona bezatiladi. Prezidentimiz portreti va uning asarlari tasvirlangan plakat va yurtimizning go'zal shaharlari, ilm maskanlari tasvirlangan rasmlar, tarbiya va odob-axloq, Vatanni sevish, ilm olishga da'vat etuvchi turli shiorlar osiladi. Tadbirda o'qituvchi boshlab beradi. O'quvchilardan ikki nafari boshlovchilik qiladi.

1-boshlovchi: – Assalomu alaykum, hurmatli o'quvchilar, zahmatkashu dilkash, sharaflil kasb egalari bo'lmish muhtaram ustozlar!

2-boshlovchi: – Assalomu alaykum, davramizga o'zgacha shukuh bag'ishlab turgan aziz mehmonlar!

1-boshlovchi: – Mana, bugun biz Yurtboshimiz I.A.Karimovning «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asarini o'qib-o'rganib, o'rganganlarimiz yuzasidan «Ma'naviyat – qalbm quyoshi» mavzusida tadbir tayyorladik.

2-boshlovchi: – Bu asar insoniyat tafakkuri qirralarini o'zida mujassam etgan, mo'tabar va muqaddas ona tilimiz, odamiylik, yaxshilik, ilmu odob borasida teran fikrlar gavharini yiqqan, o'zida aks ettirgan, ota-bobolarimiz e'zozlagan qadriyatlaru milliy urf-odatlar, an'ana-yu udumlarini qayta tiklagan, ma'naviyat buloqlari ko'zini ochgan yog'dudir.

1-boshlovchi: – Asar IV bob, Muqaddima va Xotimadan iborat

bo'lib: 1-bob «Ma'naviyat – insonning ulg'ayish va kuch-qudrat manbayidir»,

2-bob esa «Mustaqillik — ma'naviy tiklanish va yuksalish»,

3-bob «Ma'naviyatga tahdid – o'zligimiz va kelajagimizga tahdid»

va so'nggi 4-bob esa «Vatanimiz taraqqiyotining mustahkam poydevori»

kabi mavzularda so'z yuritiladi.

2-boshlovchi: – Keling, gapni cho‘zmasdan ma’naviyat va g‘oya, milliy g‘oya tushunchalariga Yurtboshimiz bergan ta’riflarini eshitaylik.

Bolalar birin-ketin so‘zlaydilar.

– Ma’naviyat – insonni ruhan poklash, qalban ulg‘ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon e’tiqodini butun qiladigan, vijdomini uyg‘otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining me’zonidir. G‘oya – inson tafakkuri mahsuli bo‘lsa, milliy g‘oya – millat tafakkurining mahsulidir. – Milliy g‘oya – inson va jamiyat hayotiga ma’no-mazmun baxsh etadigan, uni ezgu maqsad sari yetaklaydigan fikrlar majmuyidir.

1-boshlovchi: – Ma’naviyatni anglash uchun avvalo insonni tushunish, anglash kerak. O‘zlikni anglash milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o‘rtasidagi ruhiy ma’naviy bog‘liqlik til orqali namoyon bo‘ladi. Ana shuni hisobga olib, 1989 - yil 21-oktabrda o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berildi. Ma’naviyatning shakllanishida ma’naviy meros, madaniy boyliklar, ko‘hna tarixiy yodgorliklar, oila, maktab, mahallalarning o‘rni beqiyosdir.

– Bu yorug‘ dunyoda bayot bor ekan, oila bor. Oila bor ekan, farzand atalmish bebaho ne‘mat bor. Farzand bor ekan, odamzot hamisha ezgu-orzu va intilishlar bilan yashaydi.

2-boshlovchi: – Odatda otani padari buzrukvor, onani esa volidayi mehribon deymiz. Eng muqaddas Vatan so‘zini ona so‘zi bilan qo‘shib aytamiz.

1-boshlovchi: – Ona bir qo‘li bilan beshikni tebratsa, bir qo‘li bilan dunyoni tebratadi.

2-boshlovchi: – Baxtimiz gulshani, qalbimiz quyoshi onajonlarimizdir. Ular omon bo‘lishsin.

1-boshlovchi:

Uxlamaydi tunlari,  
Oy nurlari taralgan.  
O‘zbekning ayoliari,  
Farzand uchun yaralgan.

2-boshlovchi:

Qirq yil qirg‘in bo‘lsa ham,  
O‘z ahdida turolgan.  
O‘zbekning ayollari,  
Farzand uchun yaralgan.

“Fikrga qarshi fikr, g‘oyaga qarshi g‘oya, jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish” har qachongidan ko‘ra muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Agar biz ahil bo‘lsak, el-yurt manfaati yo‘lida bir tanu bir jon bo‘lib yashasak, o‘zimizdan sotqin chiqmasa, o‘zbek xalqini hech kim yengolmaydi. Ma’naviyatni

yuksaltirishni inson qalbiga yo'l topishdan boshlash kerak. Inson qalbiga yo'l avvalo ta'lim tarbiyadan boshlanadi. Bu ishni amalga oshirishda mas'uliyatli va mashaqqatli kasb egalari ustoz va murabbiylarga suyanamiz, deydilar Yurtboshimiz.

1-boshlovchi: — Biz o'tmish tarixiga nazar tashlar ekanmiz, qalbimizda faxr hissini tuyamiz. Bu tuyg'u Vatanga va bobolardan qolgan ulug' merosga bo'lgan faxr tuyg'usidir. O'zbek Turon yurtini jahonga tanitgan bobomiz Amir Temur, she'riyat mulkinging sultoni bobomiz Alisher Navoiy,

hadis ilmining sultoni Imom al-Buxoriy, odob va axloq bitiklari asoschisi, ma'rifatparvar Abdulla Avloniy, shoh va shoir bobomiz Zahiriddin Muhammad Bobur va yulduzlar sirini o'rgangan, butun dunyo u yaratgan kashfiyotlarga tan bergan ulug' munajjim Mirzo Ulug'bek kabi buyuk siymolar oldida, Nodirayi Davron, Jahon otin Uvaysiy, Zulfiyaxonim kabi shoiralarni faxr bilan tilga olamiz, ularning ruhi-poklari oldida bosh egamiz.

2-boshlovchi:

– Yurtim, ado bo'lmas armonlaring bor,  
Toshlarni yig'latgan dostonlaring bor.  
O'tmishingni o'ylab, og'riydi jonim,  
Ko'ksing to'la shahid o'g'lonlaring bor.

(O'quvchilarga navbat beriladi).

— Eng buyuk jasorat nima? degan savolga hech ikkilanmasdan eng buyuk jasorat bu ma'naviy jasorat, deb javob bersak, biz hech qachon yanglishmagan bo'lamiz.

– Ma'naviyatni biz Vatanni sevish, onani sevish, do'stlikni ulug'lash orqali ongu shuurimizga singdiramiz.

– Farishtalar fayzi yog'ar yuzlaringizdan,  
Arimasin quvonch endi, o'zbek momo.  
Yursang oftob ergashadi izlaringizdan,  
Oftob bo'lib nur soch endi, o'zbek momo.

— Ey, sen hikmat diyori, ey, sirli bag'ir,  
Ne dahoga yo'l ko'rsatding o'zing, axir.  
Temurga ham alla aytgan o'zing axir,  
Qaytar qalbga ishonch endi, o'zbek momo.

1-boshlovchi: – Yakunlangan o'quv yilimiz "Ta'lim muassasalarida ijodiy muhitni rivojlantirish o'quv yili" deb e'lon qilingan edi. Shu munosabat bilan maktabimiz faxri bo'lgan eng faol, a'lochi o'quvchilarimiz adabiyotda, san'atda, hunarmandchilikda o'zlarining teran salohiyatlarini to'liq namoyon etdilar, yangi iste'dodlar kashf etildi.

2-boshlovchi: – Endi esa yosh qalamkashlar ijodidan namunalar tinglang.  
Ushbu tinch yer, osmon uchun,  
Erkin, quvnoq zamon uchun,  
Shunday shirin davron uchun,  
Rahmat sizga, Islom bobo,  
Hurmat sizga, Islom bobo.  
Kundan-kunga turmush go‘zal,  
Ezgu niyat dilda azal.  
Deymiz doim: «Xalqim, yuksal!»  
Rahmat sizga, Islom bobo,  
Hurmat sizga, Islom bobo.

I-boshlovchi: Shu bilan bugungi tadbirimiz o‘z nihoyasiga yetdi. Yana mana shunday ajoyib tadbiru bayramlarda uchrashguncha. Xayr, omon bo‘ling!  
Tadbir bolalar ijrosijosidagi Vatan haqidagi qo‘shiq bilan yakunlanadi.

## O‘ZBEKISTON – MENING VATANIM (tadbirning ssenariysi)

Maqsadi: O‘zbekiston diyori, bog‘u-bo‘stonlari, boy madaniyati va me‘morchiligi, milliy qadriyatlari orqali yoshlarning ma‘naviy dunyoqarashini shakllantirish.

Vazifasi:

- 1) Tadbirga tayyorgarlik ko‘rish;
- 2) O‘quvchilarning nazariy bilimlarini qiziqarli savollar, testlar hamda o‘yinlar bajarish orqali aniqlash.
- 3) Bolalar bilimlarini rasm chizish orqall aniqlash.
- 4) Tadbirda faol qatnashgan va g‘olib chiqqan o‘quvchilarni rag‘batlantirish va taqdirlash.

Tayyorgarlik bosqichi:

O‘tkazish vaqti: \_\_\_\_\_.

O‘tkazish joyi: \_\_\_\_\_

Ishtirokchilar: Tarbiyachi, metodist, ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha mas‘ul va o‘quvchi-yoshlar.

Jihozlash:

1. Mavzuga oid ko‘rgazmali materiallar tashkil etish; (buyumlar, foto-albomlar, slaydlar va boshqalar).
2. Texnik vositalar: mikrofon, kompyuter jihozlari, fotoapparat, videotaqdimot (prezentatsiya).
3. Ko‘rgazma qurollari: O‘zbekiston diyori manzaralari, boy madaniyati va me‘morchiligi, milliy qadriyatlari haqida kitoblar, albom va bukletlar, plakatlar.

4. Rasm chizish uchun oq qog'oz, qalam, o'chirg'ich, sirkul, shaffof qog'oz (kalka) va boshqalar.

Asosiy bosqich:

Sahna ekranida mumtoz musiqa ijrosida tadbir mavzusi va taqdimoti namoyish etiladi.

1-boshlovchi Ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha mas'ul sahnaga chiqib tadbirni Vatanimizni madh etuvchi she'r yoki kirish so'zi bilan ochadi.

2-boshlovchi, Tarbiyachi: - Assalomu alaykum, hurmatli o'quvchilar, aziz ustozlar va qadrlil ota-onalar. Mana, bugungi o'tkaziladigan o'quv-tarbiyaviy tadbirining mavzusi «O'zbekiston – mening Vatanim». O'zbek xalqi tarixi, milliy an'analarimiz, me'morchiligimiz asrlar davomida shakllanib, jahon madaniyatiga o'z hissasini qo'shib kelmoqda. Tadbir maqsadi - yoshlarimizning jonajon diyorimiz, milliy an'analarimiz, qadriyatlarimiz haqidagi bilimlarini sinab ko'rish va ijodkorlarni, g'oliblarni taqdirlash.

Tarbiyachi tadbir qatnashchilari 6 nafar o'quvchilardan iborat 3 ta guruh bilan tanishtiradi.

2-boshlovchi, Tarbiyachi: - Men ularni sahnaga taklif etaman, marhamat. (gulduros qarsaklar ostida kirib kelishadi).

1-guruh sardori \_\_\_\_\_.

a'zolari \_\_\_\_\_

2-guruh sardori \_\_\_\_\_.

a'zolari \_\_\_\_\_

3-guruh sardori \_\_\_\_\_.

a'zolari \_\_\_\_\_

Tadbir shartlari: 1.mavzu asosida nazariy bilimlarini testlar bajarish orqali aniqlash.

2. mavzu asosida amaliy bilimlarini tasviriy rasm chizish orqali aniqlash.

3. mustaqil ijod (she'r, monolog, hikoya, qo'shiq, raqs va b.)

«O'zbekiston – mening Vatanim» mavzusidagi o'quv-tarbiyaviy tadbirimizga tashrif buyurgan aziz mehmonlarimiz bilan tanishtiramiz: \_\_\_\_\_

Ko'rik-tadbirni baholab boruvchi hakamlar hay'ati bilan tanishtiraman. Hakamlar hay'atining raisi \_\_\_\_\_

Hakamlar hay'ati a'zolari: ma'naviy va ma'rifiy ishlari bo'yicha muovini:

\_\_\_\_\_ , \_\_\_\_\_

2-boshlovchi, Tarbiyachi: Dastlab guruh a'zolarining taqdimot chiqishlarini e'lon qiladi. Bunda, har bir guruhlar bir-birlarini bayram bilan tabriklashadi (tabrik

soʻzi, maqol, rivoyat, hikmatli soʻzlar va boshqalar boʻlishi mumkin). Bu jarayon bir guruh uchun 3 daqiqa. (Natijasi shartlar tugagandan soʻng eʻlon qilinadi).

Hakamlar hayʼati taqdimot chiqishlarni baholagunga qadar navbatni musiqali tanaffusga beradi.

2-boshlovchi, Tarbiyachi: 1-shart: Test savollariga javob berish. Ushbu shartda har bir guruhning ishtirokchilari qatnashib, 4 tadan test topshirigʻi savollariga (yozma yoki ogʻzaki) javob berishadi, har bir test topshirigʻiga 5 tadan javoblar berilgan, shulardan toʻgʻri javobni belgilashadi. (bu jarayonga ham 3 daqiqa vaqt beriladi).

Hakamlar hayʼati shartni baholagunga qadar navbatni musiqali tanaffusga beriladi. Soʻngra baholar eʻlon qilinadi.

2-boshlovchi, Tarbiyachi: 2-shart amaliy mashgʻulotda har bir guruhdan 6 nafar ishtirokchi 60 daqiqa davomida oʻzlariga belgilangan amaliy mashgʻulotlarni bajarishadi, yaʼni biror tasviriy asar chizish. (Natijasi shartlar tugagandan soʻng eʻlon qilinadi).

Hakamlar hayʼati shartni baholagunga qadar navbat musiqali tanaffusga beriladi.

2-boshlovchi, Tarbiyachi: 3-shart: mustaqil ijod (sheʼr, monolog, hikoya, qoʻshiq, raqs va b.). Har bir guruh qatnashchilari tayyorlagan badiiy chiqishlarini sheʼr, monolog, hikoya, qoʻshiq va raqs turlari boʻyicha namoyish etadilar. (Natijasi shartlar tugagandan soʻng eʻlon qilinadi). Hakamlar hayʼati shartni baholagunga qadar navbatni musiqali tanaffusga beriladi.

2-boshlovchi, Tarbiyachi: Hurmatli oʻquvchilar, aziz ustozlar va qadrlı mehmonlar. Mana bugungi «Oʻzbekiston – mening Vatanim» mavzusida oʻquv-tarbiyaviy koʻrik-tadbirimizning uchala guruh qatnashchilaridan iborat iqtidorli va ijodkor oʻquvchilarimizning bilimlari va qobiliyatlari sinab koʻrildi. Belgilangan shartlar boʻyicha umumiy baholarni eʻlon qilish uchun soʻz hakamlar hayʼatining raisi \_\_\_\_\_ ga.

Hayʼat raisi: Mana, hammamiz oʻquvchilarning barcha shartlar boʻyicha chiqishlarini tomosha qildik. Har bir guruh qatnashchilarining sahnada oʻzlarini tutishi, mazmunli sheʼr oʻqishi, ashula ijro etishi, sahnali koʻrinish, hamda mavzu boʻyicha nazariy va amaliy bilimlari, koʻnikmalari inobatga olgan holda baholandi. Hayʼat aʼzolari qarori bilan bir ovozdan

(Umumiy baholar tantanali musiqa ostida eʻlon qilinadi).

1- oʻrin \_\_\_\_\_ guruh jamoasi

2- oʻrin \_\_\_\_\_ guruh jamoasi

3- oʻrin \_\_\_\_\_ guruh jamoasi

Gʻolib guruh va faol qatnashgan bolalar gulduros qarsaklar ostida taqdirlanadilar.

2-boshlovchi, Tarbiyachi: Yakunlovchi soʻz maʼnaviy va maʼrifiy ishlari boʻyicha rahbar muovini: \_\_\_\_\_ ga .

– Bugungi kunda Respublikamizda yoshlarimizning bilimi, salohiyati, kuchi-qudrati, milliy madaniyati va maʼnaviyatini har tamonlama shakllantirish uchun keng imkoniyatlar yaratib bermoqda. Koʻrik-tadbirda qatnashgan barcha yoshlarga kelajakda ulkan zafarlar va oliy oʻquv yurtlariga kirishda muvaffaqiyatlar tilaymiz.

Barcha ishtirokchilarga rahmat.

## HADISLAR-AXLOQIY TARBIYA MANBAYI

(tadbir ssenariysi)

Tashkiliy qism: Tadbir quyidagi sharoitda oʻtkaziladi: tadbir oʻtkaziladigan xona yoki zal shiorlar, oʻqish va ilmga chorlovchi plakatlar, oʻquvchilar tomonidan tayyorlangan devoriy gazetalari bilan bezatiladi. Kichik kitob koʻrgazmasi tashkil etiladi. Tadbirga 5-9 sinf oʻquvchilaridan iborat yozgi oromgoh dam oluvchilari, tarbiyachilar qatnashadi.

Asosiy qism:

Boshlovchi: Assalomu alaykum hurmatli mehmonlar! Xush kelibsizlar. Barchaga maʼlumki, mazkur olti muhaddisning deyarli hammasi Markaziy Osiyolik boʻlib, ular: al-Buxoriy, al-Hajjoj, Iso at-Termiziy, Sulaymon Sijistoniy, Imom Ahmad an-Nasoiy, Imom Ibn Mojja kabi siymolardir. Shu munosabat bilan bugun “Hadislar-axloqiy dasturlar manbayi” nomli tadbirni tayyorladik. Marhamat.

Tadbir ishtirokchisi:

“Ilm koʻr qalbni ochuvchi, qorongʻu zulmatda nur bagʻishlovchi va zaif badanlarga kuch-quvvatdir.

Tadbir ishtirokchisi: Bolalar qalbida yuksak maʼnaviyatni shakllantirishda ajdodlarimiz merosining ahamiyati beqiyosdir.

Hadis asrlarni-asrlarga, zamonlarni-zamonlarga, rishtalarni-rishtalarga ulovchi vosita.

“Kitobsiz xonadon jaholat uyasiga oʻxshaydi”, degan ekan bir donishmand. Lekin toʻgʻri kelgan kitobni oʻqish ham yaramaydi. Chunki buning bir qator sabablari bor. Avvalo, insonning umri barcha kitoblarni oʻqishga yetmaydi. Bundan tashqari, duch kelgan asarni oʻqib ketaverish kishining saviyasiga, uning dunyoqarashining shakllanishiga salbiy taʼsir koʻrsatishi ham mumkin.

Ilm bilan banda abrorlar darajasiga koʻtariladi, oliy martabalarga erishadi.

Aynan shu oʻrinda kitob borasida, shuningdek hadislar haqida ularning fikrlari tinglanadi.

Shundan keyin bolalar ishtirokida buyuk hadisshunoslar borasida sahna ko'rinishi namoyish etiladi.

Boshlovchi:

Inson tabiatan, fe'l-atvori va ruhiyatiga mos narsalarga qiziqadi. Kimdir tarixiy kitoblarga qiziqsa, kimdir falsafiy romanlarni o'qiydi, kimdir sarguzasht asarlarni yoqtirsa, yana kimdir hajviy asarlar ixlosmandi. Yana bir boshqa odam esa she'riyat shaydosi bo'ladi. Shuningdek, kitoblarning davriyligi ular uchun muhimdir.

Shu o'rinda hadislarning inson axloqiy hayotidagi o'rni haqidagi qisqa video roliklar namoyish etiladi.

Boshlovchi:

O'quvchilarning kitob o'qishga bo'lgan havaslari oiladan boshlanadi. Xonadonlarda ota-bobolarimiz al-Buxoriy, al-Hajjoj, Iso at-Termiziy, Sulaymon Sijistoniyy, Imom Ahmad an-Naso'iy, Imom Ibn Mojja kabi siymolarning ma'naviy meroslarini o'rganish biz uchun ham farz ham qarzdur.

Boshlovchi: Ilm ustida tafakkur qilish kunduzi ro'za tutganga, uni muzokara etish kechami ibodat bilan bedor o'tkazganga tengdir.

Boshlovchi: Allohga toat ibodat, tavidmi anglash, Allohni ulug'lash va taqvo qilish ilm bilan bo'ladi."

Shu o'rinda kechaga taklif etilgan mehmonlarga ham so'z beriladi. Ular ma'naviy merosimiz bo'lgan hadislarimizning bugungi yoshlar axloqi, odobiga ta'siri ahamiyati haqida gapiradilar. Shuningdek bolalar Imom al Buxoriyning ishonchli hadislaridan keltiradilar.

Bolalar sahnaga chiqib, qo'shiq kuylaydilar. So'ngra boshlovchi mehmonlarga, talabalarga va tadbirning barcha ishtirokchilariga doimo o'tmish ajdodlarimiz merosiga hurmatda bo'lishlarida yaxshi tilaklar bildirib, tadbirni yopiq deb e'lon qiladi.

Kechaga taklif etilganlar va xodimlar tomonidan slaydlar vositasida bugungi kunda hadislarimizning yoshlar ma'naviyatini shakllantirishdagi o'rni haqida ma'lumot beriladi. Ularga esdalik sovg'alari: kitoblar, o'quv qurollari taqdim etiladi.

## H. BUYUK MUTAFAKKIRLAR

### SOHIBQIRON BOBOMIZ AMIR TEMUR

X.J.Sattorova

Sahna turfa gullar bilan bezatilgan. To'rdam Amir Temur siymosi tasvirlangan portret, uning to'g'rilikka, adolatga hamda ilm-u ma'rifatga chorlovchi tuzuklaridan namunalar osilgan.

Musiqasadolari ostida buyuk sarkardaning faxr-u g'urur bilan o'z millatining sha'nini ulug'lagan quyidagi so'zlari yangraydi:

– «Biz, kim – mulki turon, amiri turkistonmiz.

Biz, kim – millatlarning eng qadimi va eng ulug'i – turkning bosh bo'g'inimiz».

Sahnaga boshlovchi chiqadi va tadbir munosabati bilan yig'ilgan mehmonlarga ta'zim bajo keltirib, salomlashadi.

Boshlovchi: – Har bir xalqning nomini, shuhratini ellarga tanitib, ming yillarga olib o'tadigan mashhur insonlari bo'ladi. Bizning Sohibqiron bobomiz Amir Temur hanu ana shunday mo'tabar zotlardandir.

Sahnaga bolalar chiqadilar. Ular Sohibqiron haqida so'zlaydilar.

1-o'quvchi:

– Assalom, bobojon, buyuk sarkarda,  
Qoshingdan o'tamiz har subhidam chog'.  
Sen esa hamisha tiksan egarda,  
Hamisha mag'rursan, hamisha uyg'oq.

2-o'quvchi: – Amir Temur – buyuk shaxs. Mashhur sarkarda va yirik davlat arbobi sifatida dunyoda tan olingan. Kuragi yerga tegmagan.

1370-1405-yillarda Movarounnahr, Afg'oniston, Eron va Ozarbayjonda hukmronlik qilgan sulola asoschisi, elu yurtini sevgan va uni mashhuri jahon qilgan ulug' zot.

3-o'quvchi: – Amir Temur 1336-yil 9-aprelda Qashqadaryo viloyati,

Shahrisabz shahri yaqinidagi Xoja Ilg'or qishlog'ida dunyoga kelgan. Uning otasi amir Muhammad Tarag'ay barlos ulusiga mansub beklardan bo'lib, bahodir jangchi, ilm ahiliga homiy va ishtiyoqmand kishi sifatida tanilgan. Onasi Takina Mohbegim mashhur qonunshunos olimu fuzalolar avlodidan, tengi yo'q oqila ayol bo'lgan.

4-o'quvchi: – Otasi Tarag'ay bahodir o'g'li Temurbekni ilmi, ma'rifatli va go'zal xulqli, har jihatdan yetuk, bahodir yigit bo'lib ulg'ayishini istagan hoida madrasaga o'qishga qo'yadi. Uning 9 yoshida savodi chiqadi.

Madrasa toliblari ichida aql-zakovat bobida eng bilimdoni va salohiyatlisi bo'lib, diniy va dunyoviy bilimlarni qunt bilan o'rgangan. Qur'oni karimni yod bilgan. Bolalar ijrosida qo'shiq va raqs ijro etiladi.

5-o'quvchi: – Buyuk sarkarda bobomiz yoshligidan qilichbozlikni, nayzabozlikni, ov qilishni, chavandozlikning barcha sir-asrorlarini mukammal o'rganadi. Ustozlar ko'rsatmasi va tinimsiz mashqlar tufayli mohir jangchi sifatida shuhrat qozonadi.

6-o'quvchi: – Sohibqiron O'rta Osiyo - Movaraunnahrni (1370-1405 yillar) mo'g'ul bosqinchilaridan ozod qilib, murakkab tarixiy sharoitda yirik va qudratli davlat tuzgan. Shuning uchun ham bu zotni jahonga dong'i ketgan ulug' sarkadalar qatoriga qo'yishgan.

7-o'quvchi: – U saltanatni boshqarishda 4 narsaga qat'iy amal qilgan. 1-amir so'zi, 2-kengash, 3-qat'iy qaror, 4-ehtiyotkorlik bilan g'animni yengib, mamlakatni bo'ysundirish.

8-o'quvchi: — Mamlakatning obodonchilik ishlariga katta e'tibor qaratgan. Bu borada bir qancha amru farmonlar bergan. Qo'riq va bo'z yerlarni o'zlashtirish, ko'priklar solib, rabotlar qurish borasida ham maxsus ko'rsatmalar bergan. Qurbi yetmagan yer egasiga ekin-tikin ishiarida asbob-uskunalar, urug'lik bilan yordam berish va shu orqali aholi moddiy ahvolini yaxshilashga alohida ahamiyat qaratgan. Shuni mamnuniyat bilan aytish joizki, saltanat sohibining ilmu ma'rifatga katta e'tibor qaratishi tufayli bu zaminda sevimli nabirasi Muhammad Tarag'ay — Ulug'bekdek dunyoga mashhur noyob iste'dod egalari yetishib chiqqan.

9-o'quvchi: – Amir Temur og'ir mashaqqatlarning bariga bardosh berib, sabot, matonat bilan pirlari va ustozlari nasihati tufayli fe'l-atvori turlicha bo'lgan amirlarning boshlarini birlashtirib, buyuk va qudratli Temuriylar davlatini barpo etdi. Davlat boshqaruvida diplomatik aloqalar, elchilarni qabul qilish ishlarini samarali yo'lga qo'ydi. Shu o'rinda kichik sahna ko'rimishi namoyish etiladi. Sohibqiron huzuriga qo'li ko'ksida ta'zim ila devonbegi kiradi.

Devonbegi: – Olampanoh! Ispaniya elchisi kelmish, huzuringizga kirish uchun izn so'raydur. Amir Temur: - Kirsin! Elchi kiradi va ta'zim ila hurmatini bajo keltiradi.

Amir Temur: - Klavixo, bizning eski birodarimiz. Aytchi, o'g'lim, qirolning ahvoli nechuk? Unga jami ezguliklar yor bo'lsin, deyman.

Klavixo: – Qirolim ham sizga mudom sog'liq tilaydi. Karvon bilan yetib kelgay uning tuhfası. Zafar muborak, a'lohazrat.

Temur: – Qulluq, qulluq.

Klavixo: – A'lohazrat, bul muraqqa daftarda Ispan yurtining shaharlari qasrlari, go'zal manzaralari tasvirlangan.

Temur: – G‘oyat noyob sovg‘adur bu, senga tashakkur! Shoyon hurmat ko‘rsating Klavixoga, shohona sarpolar kiygizing.

Devonbegi: – Zafarni qutlash uchun andijoniylar, bir minora yasamishlar momiq paxtadan.

Temur: – Faxr eturman men xalqimning san‘ati bilan, uning ko‘ngli xuddi o‘sha paxtadek oq. Siylovlarni ayamangiz ulardan aslo!

Devonbegi: – O‘rusiya vakillari navbat kutmoqda!

O‘rusiya elchisi: Zafar muborak, hazrati Temur! to‘yonamiz qabul qiling. Olib keldik olmos ko‘zli oltin qarchig‘ay va silovsin mo‘ynasidan tikilgan po‘stin.

Temur:– Tashakkurim aytadurman qarchig‘ay uchun, do‘st bo‘lg‘ay u g‘olib turon burguti bilan. O‘ruslarning yelkasiga zarbof to‘n tashlang. Kimki menga kelib qo‘shilsa, ulug‘lanadi, Kimki men bilan kurashmoqchi bo‘lsa, yiqiladi. (Bolalar ijrosida qo‘shiq ijro etiladi).

10-o‘quvchi: – Buyuk Jahongir 35 yil O‘rta Osiyo hukumdori (1370-1405) bo‘lib, ko‘p o‘lkalarni zabt etdi. Samarqand, Shahrisabz kabi shaharlarda dunyoga dong‘i ketgan ajoyib binolar, madrasa-yu machitlar qurdirganki, ular hozir ham barchami xayratga soladi.

11-o‘quvchi: – Samarqand atrofida mashur «Bog‘i Chinor», «Bog‘i Shimol», «Bog‘i Behisht», «Bog‘i Jahonnamo», «Bog‘i Baland», «Bog‘i Dilkusho», «Bog‘i Zog‘on» kabi go‘zal bog‘larni barpo ettirdi.

12-o‘quvchi: – Shahrisabz shahridagi Oqsaroy, Hazrati shayx Jahongir maqbarasi Arkoni davlat bilan bog‘liqdir.

13-o‘quvchi: – Qudratli saltanat sobihi dunyoda birinchi bo‘lib, hayotlik davridayoq o‘zining harbiy san‘ati va davlatni boshqarish uslubiga bag‘ishlangan maxsus asar yaratadi.U «Temur tuzuklari» nomi ostida shuhrat topadi. «Temur tuzuklari» - Amir Temurning harbiy va siyosiy faoliyati to‘g‘risida ma‘lumot beruvchi noyob asar hisoblanadi.

14-o‘quvchi: - U 2 qismdan iborat bo‘lib, 1- qismi davlatni barpo etish va mustahkamlash, qo‘shinlarni tashkil etish borasidagi tuzuklardan iboratdir.

15-o‘quvchi: - 2-qismi esa 13 kengash, Jahongirning harbiy yurishlari to‘g‘risida qimmatli ma‘lumot va tafsilotlarni o‘z ichiga oladi. Tuzuklarni o‘qirkannimiz Sohibqironga xos bo‘lgan insoniy fazilatlariga, mardlik, jasurlik timsollariga havasimiz keladi.

Bolalar«Temur tuzuklari»dan namunalari aytadilar.

— Kimki senga do'stlik qilsa, do'stligi qadrini unutma, unga muruvvat, ehson, izzat-u ikrom ko'rsat.

– Chin do'st uldirki, do'stidan hech qachon ranjimaydi. Agar ranjisa ham, uzrini qabul qiladi

– Bir kunlik adolat – yuz kunlik toat ibodatdan afzal.

– Og'zingga qon to'lsa ham, dushman oldida tupurma.

– Oltmishga kirgan otadan osh so'rama.

– Qilich o'tkir bo'lsa-da o'z sopini kesmagay.

– Ot mingan otasini unutadi.

– Qudratimizga shak-shubhangiz bo'lsa, biz qurdirgan binolarga boqing.

16-o'quvchi: – Vatanimiz Mustaqillikka erishgandan buyon qanchadan-qancha ota-bobolarimiz, buyuk ajdodlarimiz nomi tiklandi. Shular qatorida Amir Temur bobomiz ham adolatparvar va qudratli saltanat egasi sifatida e'zozlandi.

17-o'quvchi: — Prezidentimiz I.A.Karimov 1996-yilni «Amir Temur yili» deb e'lon qildilar. Mamlakatimizdagi noyob tarixiy yodgorliklar ta'mirlandi. 1996-yil 18-oktabr kuni Sohibqironning 660 yillik tavallud to'yi munosabati bilan Amir Temur nomi bilan atalgan xiyobonda buyuk sarkarda, davlat arbobi va u asos solgan temuriylar sulolasiga bag'ishlangan go'zal koshona – Temuriylar tarixi davlat muzeyi ochildi. Toshkent, Samarqand va Shahrisabz shaharlarida ulug' bobomizning haykallari qad rostladi.

18-o'quvchi: - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov Shahrisabz va ro'yi zamin sayqali, buyuklik maskani - Samarqand shahriga «Amir Temur» ordenini topshirdilar. Endilikda Amir Temur nomi bilan bog'liq bo'lgan maktab, jamoa xo'jaligi, ko'cha va xiyobonlar hamda tarixiy muzeylar ham bu ulug' insonga yurtdoshlarimizning yuksak ehtiromi ramzidir.

19-o'quvchi: – Buyuk sarkarda Amir Temur 1405-yil 18-fevralda O'tror shahrida vafot etadi. Sohibqiron bobomizni dunyo taniydi, u kabi ulug' odamlar bir umr oramizda yashaydilar. Bolalar Yurtboshimizning buyuk sarkarda to'g'risidagi ta'riflarini bayon etadilar.

– Amir Temur shaxsini idrok etish– tarixni idrok etish demakdir.

– Amir Temurni anglash – o'zligimizni anglash demakdir.

– Amir Temurni ulug'lash – tarix qa'riga chuqur ildiz otgan tomirlarimizga, madaniyatimizga, qudratimizga asoslanib, buyuk kelajagimizga ishonchimizni mustahkamlash demakdir.

– Buyuk shaxslarni tarix yaratadi, – deydilar. Bunga qo'shimcha qilib, Sohibqiron bobomizning suronli hayotini xayol ko'zgisidan o'tkazib, buyuk shaxslarni millat qayg'usi, xalq dardi yaratadi, deyish mumkin.

Yurtimning mard, jasur, botir o'g'loni,

Sarbaland ko'tardi turkiy tug'roni.

Jahonga jahondek mag'rur bo'lg'oni,

Amir Temur bobom — podshohi olam.  
O'giting ma'nosi xo'p beadaddir,  
Tuzuklari hamisha bizga madaddir.  
Ota-bobolarga ruhi madaddir,  
Amir Temur bobom, sarkarda bobom.  
Dasturilamaldir siz bitgan hikmat,  
Siz - sajda qilgulik ulug'vor xilqat.  
Siz-la o'sib borar g'ururim qat-qat,  
Sizga bo'lgan hurmat cheksiz, beadad.

She'r o'ngida boshlovchi yakunlovchi so'z aytib, tadbir oxirlaganini ma'lum qiladi.

— Aziz mehmonlar! Mana, buyuk sarkarda Amir Temur bobomiz tavallud topgan kunga atalgan tadbirimiz ham o'z nihoyasiga yetdi. Biz tadbirda Jahongir bobomiz bosib o'tgan hayot yo'lini, ma'rifat, madaniyat, obodonchilik borasida qilgan savobli ishlarini, mardlik va jasoratlarini o'zimizning chiqishlarimiz, she'rlarimiz, raqsu qo'shiqlarimiz, sahna ko'rinishi va bobomiz tuzuklari orqali namoyon etishga harakat qildik. Shu orqali bu ulug' zotga hurmatimiz cheksizligini ifoda etdik. E'tiboringiz uchun rahmat.

Tadbir oxirida tashrif buyurgan mehmonlar, maktab rahbarlariga va ota-onalarga so'z beriladi.

## EL DESA NAVOIYNI

A.Nisanbayeva

Alisher Navoiy tavalludiga bag'ishlangan adabiy-badiiy tadbir ssenariysi  
Sahnaga parda tutilgan. Zal devorlariga Navoiy ijodiga doir suratlar,  
ko'rgazmalar ilingan. Sahnada oldiga milliy libosda ikki boshlovchi chiqib keladilar.

I-boshlovchi.

Boshlar bo'ldik kechani qo'lga olib sozimiz,  
Baland tog'lardan oshsin bu jarang ovozimiz.  
Xalqimizga Bahshida sozimiz, bayozimiz,  
Aziz mehmonlarga ta'zim-u tavozezim.

2-boshlovchi.

Janob, muhtaram, ilm avjida oliy maqom ustoz,  
Suhan maydonida sherim – Alisher, assalom, ustoz!  
Yozilgan turli nazmu nasr ila devon-u dostoning  
Tabarruk saqlanur xalq ichra bu shirin kalom, ustoz!  
Sahnaga bolalar chiqib kelib saflanadilar va quyidagi she'rlarni va matnini  
ifodali o'qiydilar.

1-o'quvchi.

Hirotda ichra tug'ildi bu ulug' zot,  
Qozondi dunyoda ilm ila dunyoda zo'r ot.  
Laqab bo'ldi Navoiy, ismi Alisher,

Funun maydonida erlar aro er.  
Baland ovozasi tutdi jahonni,  
Musahhar ayladi ne nukta donni.  
Agar ta'rif uchunlab ochsa so'zga,  
Deyolmas hech kimsa tahsindan o'zga!

2-o'quvchi.

Alisher mushtariy yulduzi kabi  
O'zbek osmonida balqigan chog'i.  
Yana bir muhtarama o'g'il ko'rganday  
Kattaroq ochildi olain quchog'i.  
Tirik Farhodlarni tanimak bo'lib  
Oliy yurtimizgna qilsangiz safar,  
Bu yerda har bitta tarashlangan tosh,  
Yuksak umidlardan beradi darak!

3-o'quvchi.

G'azal mulkingning sultoni Navoiy nafaqat she'riyat, balki ko'ngillarning ham sultoni edi. U umr bo'yi el uchun, xalq uchun yashadi. Shu bois ham buyuk ajdodimiz shunday deydi:

“Odami ersang, demagil odami,  
Onikim yo'q xalq g'amidin g'ami”.

4-o'quvchi.

Buyuk Alisherning qalbi buyuk edi. Uning qalb hayajonlarida butun elning, millatning, balki jahon xalqlarining, insoniyatning aks-sadosi bor edi. El desa Navoiyni, biz ham uni ustod deymiz, pir deymiz va albatta buyuk merosini o'rganib ibrat olamiz.

5-o'quvchi.

Bobomiz ruhini qalbdan etib shod,  
Asriy nidolarni etmoqdamiz yod.  
She'ring-la dilimiz xonasi obod.  
Ey nazm sultoni, qadrli ustod!

Boshlovchilar chiqishadi, bolalar o'z o'rinlariga qaytadilar.

1-boshlovchi.

Ha, Alisher Navoiy o'zbek xalqining shon-sharafi, milliy iftixori, o'zbek adabiyotining quyoshi. U o'zbek adabiyoti, madaniyati va san'ati tarixida yangi davr ochgan, o'zbek tilining benihoya boyligini, jo'shqinligini, qudratini, jozibasini ko'rsata olgan buyuk siymo.

2-boshlovchi.

Biz xalqimizning yana bir ulug' farzandi tug'ilgan sanasini katta tantanalar bilan mishonlar ekanmiz, shuni tan olish joizki, badiiy ijod mahorat borasida, umuminsoniy gumanistik g'oyalar tarannumida shoir ruhiy olamining miqyosida, she'riy so'zning mo'jizaviy ta'sir qudratida va yana ko'p xislat va fazilatlarda she'riyatimiz hali Navoiy sari yuksalishni faqat orzu qilish mumkin.

O'quvchi chiqib Abdulla Oripov qalamiga mansub "Alisherning onasi" she'rini ifodali o'qiydi.

1-boshlovchi.

Tarix jahonga shunday buyuk zotni hadya etgan muhtarama ayolning, hatto ismini ham bilmaydi. Biz buyuk shoirning onasi o'z farzandini qanday erkalagani-yu, qanday go'zal tarbiya berganini Navoiyning kamolotini ko'rib, tasavvur qila olamiz, ammo u muhtarama zot o'z go'dagiga mehr bilan, ezgu tilaklar ila "Alla" aytganiga ishonamiz.

Sahnadagi parda ochiladi, to'shaklar solingan, bir tomonda beshik va uning qoshida ona siymosidagi o'quvchi. Sokin ovozda beshikni tebratib "Alla"ni ijro etadi.

2-boshlovchi.

Alisher Navoiyini anglash va his qilish o'zbek xalqining tarixini, madaniyatini, qalb ehtiyojlarini, o'zligini anglash va his etish demakdir.

1-boshlovchi.

Alisher Navoiy ijodiy merosini baland tog' deb tasavvur qilsak, bu tog' bizning o'rtamizda emas, hamisha qarshimizda biz intiladigan, cho'qqilariga havas bilan qaraydigan, u sari yuksalishni orzu qiladigan tog'dir.

2-boshlovchi.

Alisher Navoiy so'z daholari orasida eng nodirlaridan biri bo'lish bilan birga ustoz Abdurahmon Jomiyning ta'biricha, "nizomi millat va din" darajasiga yetgan shaxsdir.

Bolalar chiqib shoirning ruboiylaridan o'qiydilar.

1-o'quvchi.

"Jon"imdagi "jim" iki dolingga fido,  
Andin so'ng "Alif" toza niholinga fido,  
"Nun"i dog'i anbari hilolingga fido,  
Qolg'on iki nuqta iki xolingga fido.

2-o'quvchi.

El qochsa birovdan, el yamoni bil oni,  
Ahvolidap idbor, nishoni bil oni.  
Fe'l ichra ulus baloyi jom bil oni,  
Olam elining yamon, yamoni bil oni.

3-o'quvchi.

Zohid, sanga hur-u, manga jonona kerak,  
Jannat sanga bo'lsinu, manga mayxona kerak.  
Mayxona aro soqiyu paymona kerak,  
Paymona necha bo'lsa, to'la yona kerak.

4-o'quvchi.

Andin berikim yonimda yorim yo'qdir,  
Hijron juz nolai zorim yo'qdir.  
Dasht uzra quyun kibi qarorim yo'qdir,  
Sargashtaligimda ixtiyorim yo'qdir.

5-o'quvchi.

Jondin seni ko'p sevarman, ey umri aziz,  
Sondin seni ko'p sevarman, ey umri aziz.  
Har neniki sevmak ondan ortiq bo'lmas,  
Ondin seni ko'p sevarman, ey umri aziz.

6-o'quvchi.

Yo Rab, ul shahdu shakar yo labnudur,  
Yo magar shahdu shakar yolabnudur?!  
Jonima payvasta novak otqali  
G'amza o'qin qoshig'a yolabnudur?!

Yana boshqa ruboiylarni ham o'qish tavsiya etiladi.

1-boshlovchi.

Qo'shiq har bir inson qalbiga, shuuriga ohanglar ila singib boradi. Inson ma'naviy ozuqani aynan mana shu ma'dandan – qo'shiqdan oladi. Har qanday sharoitda, har qanday zamonda asl qo'shiq dillarni rom etgan, og'ushiga olgan. Qo'shiq insonni ezgulikka chorlaydi.

2-boshlovchi.

Bobomiz Alisher Navoiy ana shunday qo'shiqlarga jon bahsh etuvchi dilrabo g'azallari bilan ham ma'lum-u mashhur. Hozir e'tiboringizga Navoiy g'azali bilan aytiluvchi "Fido" qo'shig'ini havola etamiz.

O'quvchi ijrosidagi "Fido" ijro etiladi. Ijrochi milliy libosda.

1-boshlovchi.

G'azal mulkingning sultoni Alisher Navoyi 2600 g'azalni o'zida jamlagan "Xazoyin-ul maoniyy" hamda fors tilida yozilgan 600 g'azalni jamlagan "Devoni Foniyy" sohibi, zullsonayn shoirdir.

2-boshlovchi.

Buyuk shoir Fuzuliy ta'kidlaganidek, "G'azal bildirur shoirning qudratini, G'azal orttirur nodimning shuhratini". Darhaqiqat, o'zbek g'azalyoti tarixiy tajribalarining eng yuksak natijalari Alisher Navoiy g'azallarida mujassamlashgan. Shoir yetuklikni, insoniy kamolotni madh etib yozgan dilroz g'azallaridan tinglang.

Sahna pardalari ochiladi, sahnada nim qorong'ulik, o'rtada xontaxta, xontaxta ustiga baxmal yozilib, shamdonda sham yoqib qo'yilgan, uning atrofida olti nafar o'quvchi: ro'parada bir o'g'li-qiz, ikki yonda bir o'g'il qiz o'tiribdi. Ular milliy liboslar kiyishgan. Ulardan hiri "Falonchixon, bugungi g'azal oqshomimizni hazrat Navoiyning go'zal baytlari bilan bezasak. Qani, birinchi mutolaa sizdan bo'lsin", deydi. Ismi aytilgan o'quvchi qo'lini ko'ksiga qo'yib, shirali ovozda g'azal o'qiydi.

1-o'quvchi.

Ko'nglum o'rtansun agar g'ayiring'a parvo aylasa,  
Har ko'ngul ham kim sening shavqingda paydo aylasa.

Har kishi vaslin tamanno aylasam navmid o'lay,  
Har ko'ngul ham kim sening shavqingda paydo aylasa.

O'zgalar husnun tamosho aylasam, chiqsun ko'zum,  
O'zga bir ko'z hamkim, zikring oshkoro aylasa.

G'ayr zikrin oshkora qilsa lol o'lsun tilim,  
Qaysi bir til ham kim, zikring oshkoro aylasa.

2-o'quvchi.

Rashkdan jonima har nargis ko'zi shu'ladir,  
Bog' aro nogoh xirom ul sarvi ra'no aylasa.

Yo'q og'izdin nuqta aytur mahvashimdek bo'lmag'ay,  
Gar quyosh ham zarrasidin bir Masiho aylasa.

Ofiyat jonima yetti, ey xush ul, mug'kim men  
Bir qadah hirla xarobot ichra rasvo aylasa.

Keltiring dav'i jununing'a parixon, yo'q tabib,  
Kim ul ansabdir, pari har kimni shaydo aylasa.

3-o'quvchi.

Subhdek bir damda gardun qo'yimg'ay osorini,  
Nogoh ahili sidq ko'ngli mehrin ishfo aylasa.

Dahr shahig'a, Navoiy, sayd bo'lma nechakim,  
Kun uzori uzra tu zulfin mutarro aylasa.

Bu eng ajib satrlardandur. Endi hazrat Navoiyning yana bir durdonasini tomosha qiling:

O'n sakiz ming olam oshubi agar boshindadur,  
Ne ajab, chun sarvinozim o'n sakiz yoshindadur.

Desa bo'lg'aykim, yana o'n sakiz yil husni bor,  
O'n sakiz yoshinda muncha fitnakim boshindadur.

4-o'quvchi.

O'n sakiz yil dema, yuz sakson yil lsa, uldurur,  
Husn shohi, ul balolarkim ko'zi qoshindadur.

Xayrat etmon husni naqshidaki, har xayratki bor,  
Barchasin yazid taolo sun' naqqoshindadur.

Tan anga siymu ichinda tosh muzmar ko'nglin  
Aqlg'a yuz xayrat ul oyning ich toshindadur.

May ketur, ey inug'ki, yuz xayrat aro qolmish Masih,  
Bu ajablarkim, bu eski dayr xuffoshindadur.

To Navoiy to'kdi ul oy furqatidin bahri ashk,  
Har qachon boqsang, quyosh aksi aning yoshindudur.

5-o'quvchi.

Barkallo.

Qoshi yosinmu deyin, ko'zi qarosinmu deyin,  
Ko'nglima har birining dard-u balosinmu deyin?

Ko'zi qahrinmu deyin, kipriki zahrinmi deyin,  
Bu kudurat aro ruxsori safosinmu deyin?

Ishqi dardinmu deyin, hajr nabardinmu deyin,  
Bu qattiq dardlar aro vasli davosinmu deyin?

Zulfi dominmu deyin, la'li kalominmu deyin,  
Birining qaydi, yana birining adosinmu deyin?

6-o'quvchi.

Turfa holinmu deyin, qadin niholinmu deyin,  
Moiy ko'nglak uzra gulrang qabosinmu deyin?

Charxi ranjinmu deyin, dahr shikanjinmu deyin,  
Jonima har birining javr-u jafosinmu deyin?

Ey Navoiy, dema qosh-u ko'zining vasfini et,

Qoshi yoşinmu deyin, ko'zi qarosinmu deyin?

Ha, buyuk mutafakkir shoirning ijod ummoni cheksiz. U yerdan topgan gavhar-u javohirlarimizning har biri bir-biridan qolishmay nur tarata beradi.

Parda tushadi.

1-boshiovchi.

Alisher Navoiy buyuk qalbli shoir. Shuning uchun ham uning yuragi behad og'ir musibat va alamlarni ko'tarishga qodir bo'lgan. Shoir Shukrullo yozganidek,

Layli Shirinlarni barhayot etding,

Umrining azobi bo'lsa ham zamon.

O'zing qafas ichra yashading lekin,

Noming million qallda yashaydi hamon.

2-boshiovchi.

Tarixdan ma'lumki, Navoiydek yuksak aql-idrok egalari davr jaholati bilan tinimsiz to'qnashib kelgan. Shoir yashagan ziddiyatli davr haqida hikoya qiluvchi lavhani e'tiboringizga havola etamiz.

Parda ochiladi. Haram. Sochlari parishon holda Guli, qoshida enagasi, nozik qo'llari bilan Navoiyning devonini bag'riga bosib, g'amda o'tiribdi.

Guli.

Hamon yodimdadir, gul chog'i erdi,

Ko'rishkan maskanim gul bog'i erdi

Ochilgan rang-barang gullar chamanda,

Quyoshda barq urib aylarda xanda.

Sochilgan injudek barglarda shamnam,

O'pib gul bargini yel o'ynagan dam,

Ochib gul daftarin bulbul o'qurdi,

Muhabbat haqida doston to'qurdi.

Esimda baxtiyor, osuda kunlar,

Muborakbod etib baxtimni gullar,

Tabassum aylagan damlar esimda,

Sevinchdan ko'zdagi namlar esimda.

Esimda qutqorib, hijron – o'limdin

Gapirgan gaplari ushlab qo'limdin.

“Qilib to'y, so'ng birga bo'lurmiz doim

Seni ko'p ko'rmasin menga Xudoyim”...

Faqat, hayhot, meni ko'p ko'rdi senga,

Ajal o'z zahrini ichirdi menga.

Enaga.

Bolam, tinchingni ol, bezovta bo'lma,

Hali bir g'unchasan, kelgay bahoring,

Ochilgaysen, hali kulgay nahoring.

Guli.

Ajab bir g'unchamen, kelmas bahori,  
Ochilmas hech qachon, kulmas nahori.  
Haqiqiy g'unchamen, bag'rimda qondur,  
Faqat farqim shuki, g'uncha ochilgay,  
Quyoshdan nur emaz va xanda qilgay.  
Men ochilmay turib so'ldim umrbod,  
Meni unga Xudo ko'p ko'rdi... Hayhot...  
Ko'zimdin sochilur oxirgi yoshim,  
Qachon kelgay ekan porloq quyoshim?!  
Navoiy kirib keladi.

Navoiy.

Ko'zim chiqsun seni ko'rguncha mundoq,  
Kesulsin til seni so'rguncha mundoq!

Guli.

Alisher, nomusim, orim o'zimda,  
Alisher, yolg'on yo'q zarra so'zimda.

Navoiy.

Ishonchim zo'r Gulim, sen sof erursan,  
Bahor osmonidek shaffof erursan.  
Tubanlik changidan xoli falaksen,  
Gulyuzim, parizoda, hursen, malaksen.

Guli shu chog' holsizlana boshlaydi, enaga holam senga mima bo'ldi deya yig'laydi, Navoiy uning oldiga kelib mung bilan deydi.

Navoiy.

Zamon oqilga dor, nodon uchun yor,  
Yomonga dast berur, yaxshiga deb xor.  
Uning dastidan ne-ne umrlar xazon,  
Saodat nurlari kelgaymu, qachon?!  
Parda tushadi.  
Boshlovchilar chiqib she'r o'qiydilar.

1-boshlovchi.

Jahon qalbiga zavq qo'shmish navosi  
Jahon osmonini chulg'adi butkul.  
Navoiy ko'kida uning dahosi  
Navoiy kuyiga jo'rdir kuyimiz.

2-boshlovchi.

Jahon umriga teng Navoiy umri,  
She'riyat ahlining bayroqdori u.  
Nazm olamida mdosi, amri,  
Qo'shig'-u kuy bo'lib yangraydi mangu!

Milliy libosdagi o‘quuvchilar chiqib jo‘r ovozda “Aylagach” qo‘shig‘ini ijro etadilar.

1-boshlovchi.

Alisher Navoiy ijodini o‘rganish yoshiarning ko‘nglida she‘riyatdan zavqlanish hissini uyg‘otish barobarida ularni ona tabiat sirlariga yaqinlashtiradi, tarixiy rivoyat va hikoyatlar bilan tanishtiradi, ona Vatanga muhabbat, uning o‘tmishiga hurmat, xalq oldida mas‘ullik tuyg‘ularini tarbiyalaydi, yaxshi insoniy fazilatlariga o‘rgatadi.

2-boshlovchi.

Ulug‘ Navoiy kelajak avlodning har jihatdan barkamol bo‘lishini orzu qilgan.

Ne-ne tarixlarni boshdan o‘tkazib,

Talay jafolarni tortgan eski Sharq –

Ne-ne daholarni tarbiyat qilib,

Oftobday jahonni nurga qilar g‘arq.

1-boshlovchi.

Buyuk ajdodimiz Navoiyning bizga nafaqat ijodi, balki hayot tarzi va davri, xalq oldidagi ijtimoiy mavqei, amalga oshirgan yaratuvchanlik, bunyodkorlik ishiari ham har tomonlama o‘rnak bo‘larlidir.

Parda tushirilgan, bolalar chiqib keladilar va Erkin Vohidov qalamiga mansub “O‘zbek Navoiyni o‘qimay qo‘ysa...” she‘rini ifodali o‘qiydilar.

2-boshlovchi.

Darhaqiqat, buyuk Navoiy o‘z ijodi, xalqi bilan mangu barhayot. Alisher Navoiy merosi – biz avlodlar uchun boy xazina. Biz har zamon undan bir-ikki tomchigina olib qo‘yamiz. Oradan asrlar o‘tar, jamiyatlar o‘zgarar, ijtimoiy hayot tarzi, taraqqiyot bor ekan – Alisher Navoiy ma‘naviy merosi sira eskirmaydi, o‘qigan sari yangi-yangi ma‘nolar kasb etib boraveradi.

1-boshlovchi.

Juda to‘g‘ri. Prezidentimiz ham “Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch” asarida ta‘kidlaganlaridek, “Agar bu ulug‘ zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, u mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir”, degan ta‘riflari ayni haqiqatdir.

2-boshlovchi. Biz bugun maktabimizning bir guruh o‘quvchilari Navoiy boy ijodiy merosining hir zarrasidagina bahra olishga harakat qildik. Ishonamizki, bu bahramandlik yurtimizda hali uzoq davom etadi.

1-boshlovchi.

Mehnatda qahramon, janglarda botir,

Sevmakda vafoli, do‘stlikda mahkam –

Alisher orzusi bo‘lgan avlodmiz,

Asrimiz ko‘rkimiz, asrimiz –ko‘rkam!

2-boshlovchi.

Navoiy orzusini ijro etolgan

Mustaqillik atalgan bu bizning asr!

Kechani o'tkazishdan 1 hafta oldin Beruniyga bag'ishiangan gazeta tanlovlari e'lon qilinadi. Gazetada " ... (yil, oy, kun) da o'tadigan matematika kechasiga tayyorlarning" deb yozib qo'yilishi shart. Gazeta sahifasida turli murakkab masalalar, matematik sofizmlar, olimning hayotiga oid quyidagi savollar yozilgan bo'ladi:

1. Beruniy nenanchi yilda va qaysi, shaharda tug'ilgan? U shaharni kartadan toping-chi.
2. Beruniy kim hukmronlik qilgan davrda yashagan va ijod qilgan?
3. Beruniy yashagan va borgan shaharlarning kartasini tuzing.
4. Beruniyning ustozlari kimlar bo'lgan?
5. Ma'mun shoh saroyida tashkil etilgan „Domishmandlar uyi" da Beruniy bilan qaysi olimlar ishlagan va ijod qilgan?
6. „Osori-ul Boqiya" ("Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar") asarini Beruniy necha yoshida yozgan?
7. Beruniy qiziqqan va ijod qilgan fan sohalarini sanab chiqing-chi.
8. Beruniy o'z zamonasining qaysi tillarini yaxshi bilgan?
9. U yoshlik chog'larida qaysi astronomik asbobni yasab, undan foydalangan?
10. Beruniyning qaysi asarlarini bilasiz? Shu asarlar qaysi yillarda yozilgan?
11. Beruniy sanskrit tilida yozilgan qaysi kitoblarni arab tiliga tarjima qildi?
12. Beruniyning „Hindiston" nomli asari qaysi yili yozilgan?
13. Beruniy aylana ichiga muntazam 9 burchakni qaysi usulda yasadi?
14. Beruniy ijodining fan olamiga ta'siri qanday bo'lgan?
15. Beruniy yashagan davrda olamning tuzilishi haqida qanday nazariya mavjud edi?
16. „Astronomiya" (Astronomiya san'atidan boshlang'ich ma'lumotlar beruvchi kitob) ning geometriya bo'limida nimalar ko'rsatilgan?
17. Beruniy yer shari sirtini va hajmini qaysi usul bilan topdi? Bu natija bilan hozirgi aniq natija orasidagi farq qancha?
18. Beruniy qaysi yili va qayerda vafot etgan?

Sahnaning ikki tomonida ikki guruhda saf tortib turibdi, ularning oldida guruh sardorlari.

Sahna oldiga uchta qiz chiqib keladi. Qizlardan biri kecha qatnashchilarini she'r bilan tabriklaydi:

Bizning quvnoq kemaga,  
Xush kelibsiz, marhabo.  
Matematika bilan,  
Hamroh bo'ling doimo.  
Matematika kerak,  
Har bir o'g'il va qizga,  
Aqlini va fikrini,  
Soladi yaxshi izga.

Kecha matematika  
Ismi bilan nomlangan,  
Qiziq masala, misol  
Sizlar uchun jamlangan.  
Bu fan bizning do'stimiz,  
Inoq bo'lib o'sdik, biz.  
Mo'jizaga kondir bu,  
Bizga shuhrat-shondir bu.

(So'ngra qolgan ikki qiz matematika haqida she'r o'qiydi.)

I o'quvchi. Matematika fanlar sultoni,  
Fizika, ximiya unga egizak.  
Al-Xorazmiy, Beruniylar hissasi.  
Fanlarning ko'ksiga qo'yilgan bezak.

II o'quvchi. Matematika g'oyat buyuk fan  
Unda mo'jiza butun bir olam.  
Biz uning sirlarin gar egallasak,  
Hayotda bo'lamiz yetuk bir odam

(Qizlar guruh safiga qo'shiladilar. Sahnaning ikki tomonidan kechani boshqaruvchi ikki o'quvchi chiqib keladi.)

I boshlovchi.

Bugungi kechamiz matematika kechasi ekan deb bu yerga yig'ilgan do'stlar cho'chimasin! Biz bugun uy vazifasini tekshirmaymiz, yozma ish ham olmaymiz, „ikki“ ham qo'ymaymiz. Aksincha, kechamizning maqsadi matematika faniga nisbatan havas tuyg'ularini orttirishdan iboratdir.

II boshlovchi.

Bugungi kechamiz, o'zbek xalqining ulug' farzandi, buyuk matematik astronom, fizik, geodezist, va geograf, mutafakkir bobomiz, Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad Beruniy ijodiga bag'ishlangandir.

(Radiodan ovoz keladi, hammaning diqqati unga tortiladi.)

Radio ovozi.

Ey odamlar, eshitinglar! Beruniy mening bobom! Bu ulug' allomani zamon ulug'laydi! Ha, zamon ulug'lamoqda! Bu bizning zamonamiz!

I boshlovchi. Beruniy mening ham bobom.

II boshlovchi. Mening ham

Ikkala guruhda

Bizning ham bobomiz

(Zaldan bir bola boshqaruvchilar oldiga yugurib keladi.)

Bola: Baxtiyor aka, Baxtiyor aka.

boshqaruvchi : Ha, nima deysan?

Bola Qarang! Beruniy bobom, bobom... bobom kelyaptilar!

I boshlovchi. Nima deyapsan, bobomiz allaqachon olamdan o'tganlar-ku?

II boshlovchi. Do'stim, bola to'g'ri gapiryapti. Bobomiz tirik, hamisha tirik, ana, ana ishonmasang o'zing ham qara.

(Karnay sadolari ostida Beruniy va uning zamondoshlari qiyofasidagi bolalar zal o'rtasidan o'tib, sahnaga chiqadi.)

Beruniy.

Assalomu alaykum, baxtiyor farzandlarim. Sizlarga uzoq o'tmishdan, ilm-u fan yo'lida o'zlarini qurbon qilgan va tinib-tinchimagan, quvg'inlikda, asoratda hayot kechirgan olim bobolaringizdan salom keltirdim. Sizlarning hozir yashayotgan davringizni ko'rib quvonaman. Bu davr tinchlik, farovonlik, erkinlik va ilm davridir. Ming afsuski, men va mening zamondoshlarim yashagan davr Xorazm va umuman Movorannahrda ijtimoiy to'qnashuvlar, qonli urushlar hamda vahshiyona bosqinchiliklar davri edi. Shunday bo'lsa ham, o'sha davrda Xorazm eng yirik savdo markazi, iqtisodiy va ilmiy jihatdan juda yuksalgan edi. Afsus va ming afsuslar bo'lsinki, Qutayba ibn Muslim Xorazmga bostirib keldi, savodxon bo'lgan eng yaxshi kishilarimizni o'ldirdi yoki turli-tuman usullar bilan qiynadi va azob berdi, barcha ilmiy kitoblarni yo'q qildi. Natijada, savodli va yozuv bilgan kishilar shu darajada kamayib ketdilarki, Xorazm ahli savodsiz bo'lib qoldi. Savodli kishilarning kamayishi xalq uchun ofatdir, bolalarim, Xorazm xalqi azamat xalq edi. Fan ahillari yana g'ayrat, qunt va chidam bilan butun fan va madaniyat ishlarini qaytadan tikladilar.

Bola:

Bobo, Qutayba deganingiz kim? Nima uchun savodli kishilarni yo'q qildi?

Beruniy:

Qutayba ibn Muslim 712-yilda Xorazm va Movorannahrda bostirib kelgan arab islom qo'mondoni edi. Xalqni bo'ysindirish maqsadida barcha savodxon kishilarni, mavjud kitoblarni yo'q qilishga qasd qilgan edi.

Xorazm xalqi azamat xalq. Qutayba ibn Muslim Xorazmdan qaytib ketish bilan Xorazmliklar uning tomonidan qo'yilgan shohga qarshi qo'zg'olon ko'tardilar va uni o'ldirib, o'rniga yangi shoh tayin etdilar.

Bola: - Bobo, fan ahillari o'z fan-madaniyatlarini qayta tikladilar dedingiz. Xorazm madaniyatini qayta tiklashga hissa qo'shgan olimlar haqida gapirib berolmaysizmi?

Beruniy: - Aziz bolalarim, ustoz Muhammad Xorazmiy, Abu Nasr Muhammad Farobiyni fanimizning rivojida, tarix, matematika, astronomiya va jo'g'rafiya sohalarida qilgan xizmatlari bemhoya ulug'dir. Ular Xorazmning yangi ilm-fan maktabiga asos solgan kishilardir. Sizlar ustoz Muhammad Xorazmiyni bilasizlar, albatta.

Zaldan ovoz:

Beruniy bobo, o'z ustozlaringiz haqida bizlarga so'zlab bering.

Beruniy: Balli, o'g'lim. Ustozlarim haqida eslasam, ularni tilga olsam, ko'nglim yorishib ketadi. Yoshlik chog'imdayoq bilimga bo'lgan ishtiyogim kuchli edi. Afrigiylar sulolasidan bo'lmish (oxirgi Xorazm shohi) Abu Abdullo Muhammadning amakivachchasi Abu Nasr ibn Iroq mening birinchi ustozim bo'lgan. U astronomiya, geometriya va matematika fanlariga oid birqancha asarlarni faqat men uchun yozgan edi. Mana hozir ham ustozim, men bilan birgalik (ustozini ko'rsatadi). Mening hayotimning eng mashaqqatli yillarida ham yolg'iz qoldirmadilar va ilm berishdan

to'xtamadilar. Menday bir yetim bolaning boshini silagan, ilm bilan sug'organ ustozimga hamisha ta'zim qilaman. (Beruniy ustoziga ta'zim qiladi, so'ngra uni quchadi)

Bolalarim Abu Sahil Masihiy ham mening ustozim bo'ladilar, tibbiyot bilimini o'rgatgan, xattotlik san'atiga oid qo'llanmani yozib, menga taqdim etgan aziz kishim. Yana bir ustozim bor, u hamisha men bilan birga bo'lgan va umrim ohirigacha men bilan birga bo'ladi, u ham bo'lsa kitobdir!

Zaldan ovoz.

Bobo, siz Xorazmda tug'ilib, u yerda ta'lim olgan ekansiz, nima uchun boshqa shaharlarda ijod qilgansiz ?

Beruniy: - Faqat hukmdorning saroyidagina, garchi katta qiyinchilik evaziga bo'lsa ham hayot, kechirish uchun zarur vositalarni topish mumkin edi. Qolganlarini eslash men uchun og'ir. Mana o'rtoqlaring aytib bera qolsinlar.

(Sahnadagi ikki guruhni ko'rsatadi. Beruniy va uning zamondoshlari ikkiga bo'linib, ikki guruhga qo'shiladilar. Mushoirani boshqaruvchi sahna oldiga chiqadi.)

Boshlovchi.

Mana, bugun ulug' olim, mutafakkir Abu Rayxon Beruniyga bag'ishlab o'tkaziladigan kechamizda guruhlar o'zaro musobaqada bellashish uchun to'planib turibdilar.

Musobaqa ishtirokchilari navbatma-navbat savol beradilar, har bir savolga javobni o'ylash muddati 30 sekund. Har uch savoldan so'ng hakamlar hay'ati xulosasi eshitiladi. Tabriklash uchun so'z guruh sardorlariga.

1-Guruh sardori

Assalom! Assalom! Ey aziz do'stlar,

Qarchig'ay yigitlar, barno, sho'x qizlar.

Zehningiz kuchini ishga solgani

Bizning bilimni ham sinab olgani,

Siz obdon birlashib bir oilaga

Tashrif buyuribsiz „Mushoiraga“.

Kelinglar, azizlar, bahsga biz tayyor.

Sizga ham, bizga ham omad bo'lsin yor

Bobo Beruniy ham sevgandi fanni,

Tayyordi berishga fan uchun jonni.

Siz, aziz ustozlar, keliig kuzating.

Xatoga yo'l qo'ysak, do'stlar, tuzating.

Ilminiz yanada bo'lsin ziyoda,

Parvoz etaylik fan olamida!

Guruhimiz nomini „Yosh matematiklar“ deb atadik, chunki biz bu fanga ixlosmandmiz.

Ulug' rus olimi Lomonosov matematika haqida bunday degan edi: „Shu paytgacha nimaiki qorong'i bo'lsa, uni matematika aniq, to'g'ri qilib ko'rsatib berdi.

Matematika—barcha fanlar sultoni,

Matematika — aqlning koni.

O'rganing bu fanni qunt bilan, do'stlar

U sizni boshlaydi zafarlar sari.

(Yoshlar kuyi chalinadi. Qizlar o'yinga tushadilar.)

Endi guruhdamiz a'zolari bilan tanishtirishga ijozat etasiz.

1. Abu Nasr Mansur — ajoyib matematik, Abu Rayhon Beruniyning ustoz.
2. Abu Rayhon Beruniy — ulug' olim, mutafakkir, talantli fizik, astronom,
3. Abul Vafo Buzjoniy — talantli astronom.
4. Abul Xayr Hammor — mashhur hakim va tarjimon.

(Guruh sardori guruhdagi qizlarni tanishtiradi.)

Mana bu Shohida, lekin hech tolmas,

Umidi, orzusi hisobchi bo'lish.

Osmon-u, zaminni to'la o'rganib.

Olima bo'lishu, zavqlarga to'lish.

Mana bu o'rtog'im ismi Rayhona.

Yaxshi do'st, har doim unga Mardona.

Bir-biri bilan kim o'zar o'ynar,

O'qir, o'rganar va doim o'ylar.

Keling, tanib qo'ying Gulira' nomi,

Hurmat qilar hatto ustoz izini

Abu Rayhon shogirdi bo'lish orzusi,

Niyat bo'lsin o'nga hamroh kelgusi.

Endi guruhimiz nishonsi bilan tanishning. Guruhimiz nishoni: 365!

Bu sonni nishon qilib olishimizning sababi: birinchidan, Beruniy hijriy yili hisobi bilan 362-yilda uchinchi zulhijjada tug'ilgan. Tavallud topgan yili va oyini qo'shsak, 365 hosil bo'ladi, ikkinchidan, 365 bir yildagi kunlar soni. Uchinchidan, 365 ni 7 ga bo'lganda 1 qoldiq qoladi. Bu esa bir haftadagi 7 kunlik kalendarimiz uchun juda muhim. To'rtinchidan, 365 ketma-ket kelgan uchta son kvadratlarining yig'indisiga teng. Beshinchidan, 13 va 14 sonlari kvadratlarining yig'indisi 365 ga teng. Fursatdan foydalanib ushbu qiyin masalani og'zaki hal qilishni zaldagi o'rtoqlarimiz va guruhdamiz bilan bellashayotgan do'stlarimiz e'tiborlariga havola qilamiz.

(Guruhda guruh sardori nishon yozilgan gardishni zaldagilar va ikkinchi guruhdagilar ko'radigan joyga osib qo'yadi, ramkada

$$10^2 + 11^2 + 12^2 + 13^2 + 14^2$$

yoziq qo'yilgan.)

Aziz do'stlar, guruhimiz tayyorlagan ushbu sovg'ani qabul qilishingizni iltimos qilamiz.

(“Yosh matematiklar” jamoasi shu guruhda a'zolaridan biri ishlagan Beruniy siymosini “Yosh kibernetiklar” komandasiga topshiradi. Qizlar gruppasi Beruniyning lentaga taqilgan rasmini ham “Kibernetiklar” guruhi a'zolariga taqib qo'yadi. Matematiklar, guruhi bir gruppaga a'zolari o'yinga tushadilar.)

Boshlovchi. Endi gal „Kibernetiklar” guruhiga

Guruh sardori.

Assalom, aziz do'stlar,

Salomim ochsin yo'lim.

Odatda oftob ham,  
Salomdan boshlar yo'lin.  
Uzoqqa qochar o'lim.  
Xalqimiz odaticha,  
Ko'ksimdadir o'ng ko'lim,  
Mushoira bilan qutlab,  
Davraga tushar bo'lsak,  
Quydan avval salom farz  
Ustozlarni yod etmoq,  
Shogird uchun katta qarz.  
Suv ichgach, eslash lozim,  
Ariq ochganlarni ham,  
Asoschi algoritmgga,  
Ta'zim al Xorazmiyga.  
Beruniy kashfiyotin  
Mushoira bilan qutlab,  
Deymiz: Assalomu alaykum.  
Assalomu alaykum!

Qizlar gruppasi Guruh sardorii

Biz guruhimiz nomini „Yosh kibernetiklar“ deb atadik, chunki kibernetika hozirgi vaqtda inson tafakkurining matematika va hisoblash mashinasi sohasida erishgan eng oliy mahsulidir.

Biz, XXI asr farzandlari, kosmos asrida yashayotgan ekanmiz, kibernetikani qunt bilan o'rganamiz va hayotga tatbiq etamiz, kelgusida fazo sirlarini ochamiz. K. E. Siolkovskiy planetalararo uchadigan raketa dvigatelimi kashf qilar ekan, quyidagicha bashorat qilgan edi: „Insoniyat yerda turg'un bo'lib qola olmaydi, aksincha, u koimot sirlari va fazoni avval ishonchsizlik bilan, keyin esa, inson quyosh sistemasini ham zabt etadi“. Darhaqiqat, inson kelgusida quyosh sistemasini albatta zabt etadi.

Endi guruhimiz a'zolari bilan tanishing: Muhammad al Xorazmiy—o'zbek matematigi, astronom, matematik tenglamalarni kashf qilgan olim. Abu Ali ibn Sino—jahonda birinchi tabib, tabobat bobida tengi yo'q dono. Ikki yuzdan ortiq asar yozgan olim, o'tkir zehn egasi, Beruniyning do'sti. Ahmad Farg'omiy - mashhur astronom, matematik, (Guruh sardori endi qizlarni tanishtiradi.)

Aqli, mehnati bilan ma'lumdir Ra'no,  
Har bir ish, so'zida aniqdir ma'no.  
Ilmu-hunar o'rgandi yoshlikdan Sora,  
So'zda chechan, ishda chaqqon Dildora.  
Bu dugonamning ismi erur Saodat.  
Sevimlidir hammaga, xushfe'llik odat.

Biz guruhimiz uchun 1957 ni nishon deb qabul qildik. Chunki 1957-yilda yerning birinchi sun'iy yo'ldoshi kosmosga uchirildi. Ikkinchidan, 57 bu ikki raqam yig'indisi 12, ya'ni 12-aprel kuni jahonda birinchi marta ichida odami bilan „Vostok—kosmik kemasi Yer orbitasiga chiqarildi. 7 raqami uchuvchi mayor

Gagarin nomini tuzgan harflar yig'indisi bo'lib, 1 va 9 ning yig'indisi esa „Alekseevich“ ni tuzgan harflar yig'indisidir. “Yosh matematikla”r guruhdagi do'stlar, biz ham sizlar uchun hozirgi zamon matematikasining atqli namoyandasi Toshmuhammad Qori-Niyoziyning portretini sovg'a qilmoqchimiz. Ushbu sovg'amizni qabul etgaysizlar.

(“Kibernetiklar” guruhi “Matematiklar” guruhiga Qori Niyoziyning portretini topshiradi. Bir grupp qizlar esa Qori Niyoziyning lentaga yopishtirilgan rasmini qizlarning ko'ksiga taqib qo'yishadi. So'ngra qizlar raqsi boshlanadi.)

Boshqaruvchi

Avval ochkolar olish tartibi bilan tanishtiraman. To'la javob uchun 2 ochko, agar javob to'la bo'lmasa, bu javobni savol bergan guruhda to'ldirsa har bir guruhda bir ochkodan oladi. Har ikki guruhga katta muvaffaqiyatlar tilayman. Savol berishni boshlaymiz Avval har ikki guruhga bittadan savol beraman. Avvalgi savol „Yosh matematiklar” guruhdasiga: Beruniy „Qonuni Mas'udiy” asarini qachon yozgan va kitobini kimga bag'ishlagan?

(Matematiklar guruhdasi javob tayyorlash uchun yig'iladilar. O'quvchilardan biri javob beradi.)

Beruniy “Qonuni Mas'udiy” asarini 1030-yilda yozgan va shoh Mas'udga bag'ishlagan. Asar 11 bo'limdan iborat bo'lib, I—II bo'lim xronologiya va kalendar masalalariga bag'ishlangan III—V bo'limida trigonometrik masalalar bayon etilgan bo'lib, bu bo'lim o'n bir bobdan iboratdir.

I bobda bir-biriga mos ravishda vatar(geometrik atama)lar yasash orqali, ichki chizilgan muntazam uchburchak va o'n burchakning tomonlarini hisoblash masalalarini yechish uslublari bayon qilingan.

II bob ikki burchak yig'indisi va ayirmasining sinusi, ikkilangan va yarim burchak sinusini ifodalovchi teoremlarning ifodalanishiga bag'ishlangan.

III bobda muntazam ichki chizilgan to'qqiz burchakning tomonini yasash uslublari, IV bobda burchakni teng uchga bo'lish masalalari, V bobda aylana uzunligining o'z diametriga nisbati, VI bobda sinuslar jadvali, VII bobda sinuslar jadvalidan foydalanish qoida va usullari bayon qilingan. VIII bob tangenslar jadvaliga oiddir. XI-XII boblar sferik trigonometriya masalalariga bag'ishlangan.

VI—X bo'lim geodeziya va maxsus astronomik o'lchov masalalarini o'z ichiga, oladi.

Endi „Kibernetiklar” guruhiga savol beramiz:

Beruniyning Ma'mun shoh tomonidan qanday hurmatga sazovor bo'lganligi va Shohning ilm haqida nimalar deganim so'zlab bersangiz?.

Ma'mun shoh kunlardan birida Beruniy huzuriga chaqirtirmay, o'zi Beruniy oldiga ot choptirib kelgan. Bu holni ko'rgan Beruniy juda xavotirlanadi. Shoh otidan tushmoq istadi, lekin Beruniy uning otidan tushmasligini iltimos qildi. Shundan so'ng shoh quyidagi baytni o'qib berdi;

Al ilmu min ashrof ul valodati alo,

Yaltixi kull ul-valo va loyati.

Ma'nosi: ilm dunyodagi barcha narsalarning eng sharaflisidir. Bugun xalq ilm oldiga keladi, ilm esa hech kishining oldiga bormaydi, dedi va yana qo'shib qo'ydi,— ilm har narsadan ustundir va hech bir narsa ilmdan ustunlik qila olmaydi.

Hakamlar hay'ati a'zolari jami ballarni jamlab bo'lgunlaricha „Matematiklar” va „Kibernetiklar” guruhlaridan ustoz haqida ashula eshitamiz.

Ustoz haqida ashula eshitingandan so'ng, har ikkala guruhda ballarni eshittirish uchun hay'at a'zolaridan biriga so'z beriladi.

Hay'at a'zosi:

Har ikkala guruh ham yaxshi tayyorgarlik ko'rishgan. Berilgan savollarga har ikkala guruhda ham to'la javob berishdi. Shularni e'tiborga olib, jyuri a'zolari bir ovozdan „Matematiklar” guruhiga ham, „Kibernetiklar guruhiga ham 4 balldan berishni lozim topdilar.

Boshqaruvchi

Savol berish navbati „Matematiklar” guruhiga.

O'quvchi

Hurmatli do'stlar, Abu Rayhon Beruniy Yer sharining meridiani uzunligini hisoblab topgan. U, mana shu meridian uzunligini qayerda va qanday asboblardan yordamida o'lchagan? Uning qo'llagan usulini ham tushuntirib bersangiz?

Guruhlar galma-galdan savollar berib boradilar, Har uch savol-javobdan so'ng hay'at a'zolari guruhlarning ochkolarini e'lon qilib boradi. Savol-javobdan so'ng guruhlar o'z san'atlarini namoyish qiladilar.

Guruhlar bir-birlariga bunday savollar berishlari mumkin:

1. Beruniy qaysi tillarni mukammal bilgan va o'z asarlarini qaysi tilda yozgan? Nima uchun?

2. Beruniy yashagan joylarini va u joylarga borish sabablarini aytib bering.

3. Beruniy geografik joylanishi jihatidan qaysi shaharlarning uzunlik va kengliklarini o'lchab topgan?

4. Ziddiyat, harakat va rivojlanish haqidagi masalalar bo'yicha Beruniyning fikri qanday edi?

5. Aylanaga ichki chizilgan muntazam to'qqizburchakning tomonlari uzunligini Beruniy qanday hisoblagan?

6. Beruniy yozgan asarlaridan qaysilarini bilasiz va h. k.

Boshlovchi.

Hurmatli do'stlar! Endi, ustoz Beruniyga savol berish uchun navbat „Kibernetiklar” guruh sardoriga.

“Kibernetiklar” guruh sardori:

Ustoz, men va mening do'stlarim qanday qilsalar kelgusida ilm cho'qqilari sari ilgariylab, uni egallaydilar?

Beruniy.

Bolalarim, mening sizlarga qiladigan vasiyatim ushbu bo'lsin. Har bir kuzatuvchi diqqat bilan o'lchasin, o'z ishiarini qayta-qayta tekshirib tursin, mumkin qadar kamroq g'ururlansin. Tobora tirishqoqlik bilan ishlasin va mehnatdan hech zerikmasin, chunki mehnat insonni ulug'laydi va kamolotga yetkazadi. Mehnat insonni hech qachon toliqitmaydi. Zerikish, ishga loqaydlik, e'tiborsizlik tez

charchatadi va ishdan chetlatadi, ishda unumsizlik, odamlarda esa qoloqlik xususiyatlarining mavjud bo'lishiga sabab bo'ladi. Bir ishga kirishar ekansan, komil ishonch bilan kirish. Senda ishonch mustahkam ekan, demak "tog'ni dengizga" tushira olasan.

Men ilm yo'liga astoydil bel bog'ladim va unga butun umrimni sarf etdim. Quvg'inlik va darbadarlikda ham, izzatli asir bo'lganimda ham ilm yo'lidan chekinmadim, sizlar uchun 150 ga yaqin asarimni meros qoldirdim va nihoyat, men shunday sharaf kiyimlarini qo'lga kiritdimki, u mening qoldirgan merosim kabi kelgusida yillar va nasllar hayoti oqimi bilan davom etajak.

(Mushoirani hay'at a'zolari yakunlaydilar. Yutuq qaysi guruhda ekani e'lon qilinadi. G'olib guruhga maktab tomonidan ajratilgan mukofot beriladi.)

Boshlovchi.

Bugungi matematika kechamizning ikkinchi qismini boshlaymiz. Bunda Beruniyning G'aznadagi hayotiga bag'ishlab yozilgan "Beruniy G'aznada" nomli kichik bir dramatik sahnani sizlarning e'tiborlaringizga havola qilamiz.

Sahnamiz tayyor bo'lguncha ulug' kishilarning matematika haqida aytgan fikrlaridan lavhalar tinglang. (Bir nechta o'quvchi bu fikrlarni birin-ketin aytadilar.)

## DONOLAR BISOTIDAN

Sof matematika haqiqiy olamdagi fazoviy formalarni, miqdoriy munosabatlarni tekshiradi, ya'ni u g'oyat - real mazmunga ega.

Matematika qonunlaridan foydalana olgandagina har bir fan o'zining eng yuqori cho'qqisiga chiqa oladi.

Kimyo fizikaning o'ng qo'li bo'lsa, matematika uning ko'zidir.

Agar kishilarning har qanday tadqiqoti matematika asosida isbot qilinmasa, u tadqiqotni hech qachon haqiqat deb bo'lmaydi.

Hamma kasblar matematikani bilishni talab qiladi.

Tabiat matematika tilida gapiradi. Bu tilning asoslari doira, uchburchak va boshqa matematik figuralardir.

Shu paytgacha nimaiki qorong'u bo'lsa, uni matematika to'g'ri, aniq qilib ko'rsatib berdi.

Matematika fanining ham poeziya va san'atga o'xshash o'ziga xos go'zalligi bor.

Matematika fani tabiat sirlarini o'rganishda eng qulay fandir.

Boshqaruvchi:

Qadrli do'stlar, kechamizning ikkinchi qismini boshlaymiz. Bobomiz Abu Rayhon Beruniyning G'aznadagi hayoti aks ettiruvchi "Ziyokor" nomli 1 ko'rinishli dramatik sahna asarini tomosha qiling.

Qatnashuvchilar bilan tanishing:

Beruniy -olim

Xo'ja Hasan-Shoh Ma'sudning vaziri.

Rayhon - Beruniyning shogirdi

## Bahuda zargar- asl toshiarni pardozlovchi

Valvalijiy- Beruniyning jug'rofiya ilmi bilan shug'ullanuvchi do'stlaridan biri.

Dehqonnazar, Mamanazar –dehqonlar

Al Hasan - Beruniyning do'sti

G'aznadagi Beruniy istiqomat qiladigan hovli

(Parda ochiladi)

Ko'cha eshigi ro'parasida oy va yulduzlarni kuzatish uchun ishlatiladigan asbob „Faxriy sekstant“, taglikka o'rnatilgan „Yer yarim shari“ kurrasi Chap tomonda ayvoncha, unga-zina bilan chiqiladi.

Ayvonchadan ichkari uyga kiradigan ikki tavaqall eshik, Beruniy va geograf Valvalijiy ko'cha eshikka orqa o'girgan holda „Yer yarim shari“ kurrasining ustida juda e'tibor bilan nuqtalarni belgilamoqda. Ko'cha eshik ochiq bo'lgani uchun Bahuda zargar va Kumar pardozchining kirib kelganini ikki olim ham sezmaydilar. Kelganlar bir-birlari bilan imo-ishora qilib, qadam uchida yurib keladilarda bir oz to'xtab, xalal bermaslik uchun kuzatib turadilar. Beruniy qaddini roslar ekan, ular barobar salom beradilar.

Bahuda zargar. Kumar pardozchi.

Namaste! (Ikki qo'l kaftlarini bir-biriga jipslashtirib, peshonaga yaqinlashtirib, egiladilar. Beruniy orqasiga qaraydi.)

Beruniy.

Namaste! (Beruniy ham xuddi shu taqlid egilib salomlashadi, Quchoqlashib ko'rishadilar.) Kelinglar, kelinglar do'stlarim. Qadamlariga hasanot! Qanday shamol uchirib keltirdi sizlarni?

Bahuda zargar.

Sizning, shamolingiz-da, do'stim (kulishadi).

Beruniy

Agar yana bir bor sog'ntirib qo'ysangizlar, shamolimni emas, bo'ronimni yuboraman (yana kulishadi).

Bahuda zargar.

Muhabbingiz qo'ymadi, do'stim, mana ko'rib turibsizki, uzoq bo'lsa ham G'aznadamiz. Do'stlik masofa bilmas ekan, deb shuni aytisalar kerak-da.

Beruniy.

Rahmat do'stlarim, rahmat juda xursandman.(Beruniy yana ularni quchadi.) Darvoqe, bu kishi do'stim Valvalijiy bo'ladilar, jug'rofiya ilmi bilan shug'ullanadilar (Valvalijiy ko'rsatadi.) Bu mehmonlar esa mening Hindistondagi aziz do'stlarim Bahuda zargar va Kumar pardozchi bo'ladilar.

Bahuda zargar, Kumar pardozchi

Namaste (ko'rishadilar).

Beruniy

Qam, ayvonchaga marhamat qilinglar. (Beruniy ayvonchaga boshlaydi: Ular ayvonchaga chiqib o'tiradilar, fотиha o'qishadi.) Hind elidagi do'stlar salomatmilar?

Kumar pardozchi.

Shukur, salom aytishdi.

Bahuda zargar.

Do'stlar Sizing suhbatlaringizni juda sog'inishgan. Agar, Abu Rayhon Hindistonga kelmasalar hammamiz G'aznaga ko'chib boramiz, deyishdi (ular barobar kulishadi).

Beruniy.

Mayli, mayli kelishsin, bosh ustiga, bag'rimiz do'stlar uchun hamisha ochiq. Sizlardek ilm-hunar egalari bilan suhbatlashsam huzur qilaman, do'stlarim.

Bahuda zargar.

Do'stim Abu Rayhon, mana shu arzimas sovg'amizni ko'p o'mida ko'rib qabul qilsangiz. (Bahuda zargar qutichani Beruniyga uzatadi.)

Beruniy.

Rahmat, do'stlarim. (Beruniy qutichani olib, ochib ko'radi, yuzida tabassum.) Ofarin, ofarin do'stlar. Bay bay bay, bu toshlarni shunday sehrli san'at bilan pardozlabsizki, ko'zni qamashtiradi-ya, ofarin, ofarin!..

Kumar pardozchi.

Biz tosh ustasi, siz esa toshlar ilmida man-man degan bilimdon ustalarning ham og'zini ochirmay qo'yasiz, Darvoqe, yoqutlarning qaysi xili qimmatliroq?

Beruniy.

Yoqutlar, tabiiy tuzilishi bo'yicha oq, ko'k va qizil rangda bo'ladi. Bular ichida eng qiymatlisi qizil ranglisidir.

Baxuda zargar.

Hindistonda yoqutlarning eng muqaddas xili hisoblangan va sehrli jilo bilan tovlanib, ziyo beruvchi yulduz singari maftun etuvchi yoqut Maxmudning qo'lga tushgan deyishadi, shu gap rostmi?

Beruniy.

Ming afsuski, bu gap (o'ylamib qoladi) to'g'ri. Agar Mahmud to'g'risida gap borsa, sizlarning oldingizda juda noqulay vaziyatda qolaman, chunki u hind xalqini shafqatsiz talab, zulm o'tkazdi. Mahmud Shivo ibodatxonasini talaganda Siz aytgan o'sha yoqutni ham qo'lga tushirgan. Mahmud qimmatbaho bu o'ljani keltirib „Bu qimmatbaho toshning og'irligim qarang-a“ deb mening qo'limga berdi. Men uni ko'tarib ko'rdim, u ancha yengil edi. Ammo Maxmud boshqalar sezmasin uchun o'ljani mening qo'limdan darhol olishlarini buyurdi. (Kuladi, boshqalar ham kulishadi.)

Kumar pardozchi

Mahmud maqtanchoqlikda ham yagona ekan-da?

Beruniy.

To'g'ri aytasiz, bundan tashqari u; „Agar mening huzurimda baxtga yo'ldosh bo'lib yashashni istasang, mening ra'yimga qarab ish tutgin va gapirgin“ deb talab qilardi.

Bahuda zargar:

O'ziga binosi baland ekan, u navbakorni.

Beruniy:

(Kulib.) Shu daqiqada bir voqea yodimga tushib ketdi,

Zargarlar.

Qani eshitaylik, eshitaylik...

Beruniy.

Bir kun sulton Mahmud meni sinamoqchi bo'lib, huzuriga chaqirtirdi-da, „Dilimda bir narsani berkitdim, qani topchi? Qasrning 12 ta eshigi bor, men shu eshiklarning qaysi biridan chiqaman?” deb qoldi. Men javobni darhol bir varaq qog'ozga yozdim-da, buklab, vazirga uzatdim.

Sulton 12 ta eshikning birontasidan chiqmay, boshqa teshik ochib, chiqib ketayotgach, vazir qog'ozdagi yozuvni sultonga o'qib berdi. Unda, devorning teshilishi va sulton shu teshikdan chiqib ketishi yozib qo'yilgan edi. (Ular barobar kuladilar.)

Valvalijiy.

Devor teshilajagini qanday bildingiz?

Beruniy:

Do'stlarim, shubhasizki, hech taajjublanadigan joyi yo'q. Gap shu yerdaki, bu ham riyoziyot ilmining muhokama va fikr musobaqasining hosilasidir.

Qasrning 12 eshigi bor, albatta, xo'sh, shoh bularning qay biridan chiqishi kerak degan fikr, shubhasiz, xayolingizdan bir-bir o'tadi. Bundan ma'lumki, bir necha ehtimollar fikrdan o'ta boshlaydi. Shulardan eng zarur ehtimollikni tanlab olasiz-da, kerakli xulosaga kelasiz, vassalom.

Zargarlar:

Ofarin, taqsir, ofarin!

Beruniy:

Natijada bunday javobni eshitgan sulton battar darg'azab bo'ldi, chunki uning maqsadi mening tilimni tiyib qo'yish va mening ustimdan kulish edi. Ammo ko'rib turibsizki, u o'ylagancha bo'lib chiqmadi. (Kulishadi)

Bahuda zargar.Sulton o'zi johil bo'la turib, saroy qoshida olimlarni to'plagan deb eshitaman. Buning boisi nima?

Beruniy.

Buning boisi bitta, u ham bo'lsa, Mahmud o'zini eng ulug' podsho hamda olim, ilm-ma'rifatning homiysi qilib ko'rsatmoqchi.

Zargarlar.

Obbo shayton-ey! Obbo shayton-ey!

(Beruniy kulib yuboradi.)

Bahuda zargar

Ha taqsir, yodingizga yana biror narsa tushdi chog'i?

Beruniy:

-Ha shunday bo'ldi. Xuddi o'sha kuni, vazirlar, ulamolar va saroy ahillari yig'ilgan edilar. Devor teshilajagi haqida yozilgan qog'ozni vazir o'qiganda, sultonning rangi o'zgarib ko'zlari katta-katta ochilib ketdi-da, atrofdagilarga bir-bir qarab chiqdi. Vazirlar, ulamolar noiloj kulgidan o'zlarini zo'rg'a tiyib turar edilar. Men bo'lsam mutlaqo e'tiborsiz turar edim. Bu vaziyatni ko'rgan sulton shunday darg'azab bo'ldiki, asti qo'yaverasiz. Alamiga chiday olmagan sulton birdamiga Qasr tomidan uni pastga tashlab yuboringlar- deb buyurdi. .

Shoh amri vojib. Navkarlar meni qasr tomidan pastga tashiab yubordilar. Mana bu o'shandan qolgan nishona. Kichik barmog'im majruh bulib qolgan (qo'lini ko'rsatadi).

Kumar pardozchi:

-Adolatsizlik-ku axir bu!

Bahuda zargar:

-Shohjohildan bundan boshqa nimani ham kutish mumkin.

Kumar pardozchi:

-Qanday tasodif bilan Siz omon qoldingiz.

Beruniy:

-Do'stlarim, vazir Xo'ja Hasan meni ko'p hurmatlar edi, u ancha tadbirkor, aqlli odam edi. Xo'ja Hasan fursatni qo'ldan bermay o'z odamlariga, ko'chaga paxtami qalin tushab, undan so'ng to'r ushlab turinglar deb buyuribdi. Umrin boqiy ekan, shu sabab bilan omon qoldim. Bu voqealardan so'ng Xo'ja Hasan meni uyiga olib borib, yaxshi xizmat va g'amxo'rlik qilib turdi

Bahuda zargar:

-Barakallo, u kishining umrini tangrim uzun va rizqini baland qilsin; Kumar pardozchi :

-Aytgancha, Xo'ja Hasan hozir qaerda istiqomat qiladilar, u kishining taqdiri nima bo'ldi?

Beruniy:

-Xo'ja Hasan, sulton o'limidan so'ng, uning o'g'li Mas'ud shohligida ham vazirlik vazifasida turibdi.

(Shu payt eshik qoqiladi, Valvalijiy eshikni ochadi.)

Valvalijiy:

-E, kelinglar.

(Xo'ja Hasan, mulozim va kuzatuvchilar kiradi.)

Xo'ja Hasan:

-Assalomu alaykum.

Beruniy:

-Vaalaykum assalom. E, e, keling, do'stim (ko'rishadilar). Mana mening Hindistonda orttirgan Siz kabi do'stlarim. Tamshinglar, bu kishi Bahuda zargar, zargarlikda tengi yo'q usta (ko'rishadilar). Bu kishi esa, Kumar pardozchi, qimmatbaho toshlarni nozik san'at bilan pardozlaydilar (ko'rishadilar).

Endi do'stlarim, sizga mehmonni tamishtiray. Hozirgima gapirgan hikoyamizning qahramon do'stim Xo'ja Hasan shu kishi bo'ladilar. (Ular qaytadan ko'rishadilar.)

Kumar pardozchi:

-Siz bilan g'oyibona do'st bo'lib qolgan edik, tangriga ming bor shukurkim, mana sizni bizga yetkazdi.

Xo'ja Hasan:

-Abu Rayhon, men haqda qanday hikoya qilayotgan edingiz, do'stim. Kishilarni qiziqtiradigan yaxshi sifatlar menga nasib qilmagan edi-ku?

Beruniy:

-Kamtarlik qilmang, darvoqe, kamtarlikning o'zi ham inson uchun yaxshi sifat, do'stim.

Bahuda zargar:

-Ustoz Beruniy hozirgina qanday qilib Sulton Mahmud g'azabiga uchraganliklarini so'zlab berayotgan edilar (kulishadi).

Xo'ja Hasan:

-Ha, Sulton Mahmud ba'zan g'azabini bosa olmas edi. Abu Rayhon esa xushomad va laganbardorlikni bilmas va yoqtirmas edi. Shu jihatdan doimo Mahmudning jig'iga tegar va g'azabini keltirar edi. Ammo sulton ba'zi vaqtlarda o'z qilmishiga afsus ham qilar edi. U, Abu Rayhonni qasrdan tashlashga buyurganidan so'ng, ko'p vaqt o'tmasdan afsus, nadomat izhor qildi. „Nega senlar uni saqlab qolish haqida menga birorta fikr bildirmadilaring“, deb bizni toza qiynadi. Shunda men undan uzr so'rab, bir qoshiq qonimdan kechishini iltimos qildim. U uzrimni qabul qildi. So'ngra Abu Rayhonning tirik ekanini aytdim u nihoyatda xursand bo'ldi va Abu Rayhonni huzuriga keltirishimizni buyurdi. Abu Rayhon keldi, afsuski u yana o'zining haq gapini bilan sultonni g'azablantirdi va yana baloga qoldi. Sulton Abu Rayhonni 6 oyga zindonga buyurdi.

Bahuda zargar:

-Yo tovba! Qanday adolatsizlik bu, a!..

Kumar pardozchi:

-Chindan ham g'azabini bosolmas ekan o'sha sulton!

Valvalijiy:

-U nimadan g'azablangan edi?

Beruniy:

- Qo'shin tortib yurishda ham, ilmida ham mening podsholigim boshqa podsholarga nisbatan ustun bo'lishi kerak. Xo'sh, buning uchun nimalar qilmoq kerak? —deb so'radi. Shundan so'ng, sen nima deysan Abu Rayhon? — dedi.

Valvalijiy:

-Siz nima degan edingiz? Abu Rayhon! ?

Beruniy:

- Afsuski, bizning zamonamiz ilm-fanga kerakli sharoit yaratolmaydi. Bizning kunlarda bilim va yangi kashfiyotlar sohasida, faqat o'tmish davridagi fan yutuqlarining qoldiqlarigina mavjud xolos, degan edim. Uning g'azabi oshib ketdi (kuladi).

Xo'ja Hasan:

-Abu Rayhon bilan sulton Mahmud oralaridagi munosabat shu qadar jiddiy bo'lgan bo'lsa ham, sulton Beruniyni daxriylikda ayblab, sazoyi qilishga jur'at eta olmadi, balki, ko'pincha o'zi bilan birga olib yurishga majbur bo'ldi.

Kumar pardozchi:

-Qiziq, nima uchun yonida olib yurgan !?

Buning sababi ma'lum. Birinchidan, buning boisi shundaki, “agar Beruniy mendan olisda bo'lsa menga qarshi ish qilishi turgan gap”, deb shubhalangan. Shuning uchun ham Abu Rayhonni o'zi bilan birga hatto Hindistonga ham olib borishga majbur bo'lgan.

Bahuda zargar:

-Obbo shayton-ey, shunday yaramas fikrlarga, ham, borgan ekan-a ?

Xo'ja Hasan:

- Mahmudning o'g'li Mas'ud taxtga chiqqanidan keyin otasiga nisbatan ilmu fanga ko'proq e'tibor berdi. Barcha olimlarni saroyga to'plab, ularga alohida maosh ham tayin qildi, ayniqsa, Abu Rayhonga alohida hurmat va e'tibor bilan qaradi.

Beruniy:

-Men o'zimming „Qonun Mas'udiy“ asarimni shoh Mas'udga bag'ishlagan edim. Mana, o'sha kitob (kitobni olib ko'radilar).

Valvalijiy:

-Kitobingizda jug'rofiya bo'limi ham bor ekanku ... Ayting-chi, yunonlar Atlantika dengizi sohilini dunyoning oxiri deb bilganlar. Bunga siz qanday fikr bergansiz?

Beruniy:

-Men "Qonun Mas'udiy"ning 4-bo'lim 9- bobida bu savolingizga javob berganman. To'g'ri aytdingiz, yunonlar Atlantika sohilini dunyoning oxiri deb bilganlar. Hatto ular Uzoq Sharqdan nariyoqni bilishga fikr ham yuritilmaganlar. Ma'lumki, Yerning sharqiy va g'arbiy tomonlarida aholi yashaydigan qulay joylar bo'lishi mumkin. Bunga ob-havoning, ya'ni qattiq sovuqning, jazirama issiqning hech qanday zararli ta'siri yo'q. Shuning uchun ham bizga ma'lum bo'lgan mavjud dunyodan tashqarida, ya'ni suvlar o'rtasida keng va yaxlit yer bo'lishini taxmin qilamiz.

Xo'ja Hasan:

-Kitobingizda ko'p joylarning kengligi va uzoqligini ko'rsatibsiz. Sulton o'qib, juda xursand bo'ldilar.

Beruniy:

-Ha, hammasi bo'lib 603 joyning uzoqlik va kengliklarini berdim. Shulardan 85 tasi o'rta Osiyoga tegishlidir.

Bahuda zargar:

-Bizning shaharlardan qaysilarini ko'rsatdingiz, do'stim.

Beruniy:

-Men ancha izlamishlar natijasida Lohur qal'asi kengligi 34<sup>o</sup>10', Nandna qal'asini esa, 32<sup>o</sup>0' ekanini topdim. Shu tariqa Bag'dod, Shiroz, Nishopur, Qiyot, Balx, Buxoro, Ray, G'azna kahi bir qancha shaharlarning uzoqligini aniqladim.

Xo'ja Hasan:

-Shoh Mas'ud kitobingizni ko'rib chiqar ekan, ayniqsa, yerning radiusi haqidagi fikringizga qoyil qoldi.

Bahuda zargar:

-Ayting-chi, yerning radiusini qanday usul bilan o'lchadingiz Abu Rayhon? Axir, yerning u chetidan bu chetigacha borib bo'lmaydi-ku? Yerning ichiga esa kirib bo'lmaydi.

Beruniy:

-(Kuladi.) Bu juda oson. Avval, bu ish fikringizga qanday kelib qoldi deb so'rang.

-Avvalq Hind yeriga o'z minnatdorchiligimni bildiray, Mahmud Hindistonga yurish qilganda, meni Nandna qo'rg'onida qoldirib ketgan edi. Men bu qo'rg'onida „izzatli asir“ edim. 1018-yilning kuz kezlari edi. Men Nandna qo'rg'onining g'arb tomonidan baland ko'tarilgan tog'dan janubga tomon ketgan poyonsiz bir tekislikni ko'rdim. Shunda mening miyamga favqulodda hisoblashning mana bunday usulini qo'llash kelib qoldi.

Valvalijiy:

-Siz kuzatish va o'lchash asboblaringizni ham o'zingiz bilan olib ketgan edingizmi?

Beruniy:

-E do'stim, asboblarni olib yurishga imkoniyat yo'q edi.

Valvalijiy:

-Unday bo'lsa, kuzatish ishlarini qanday bajardingiz?

Beruniy:

-Yozuv taxtachasi, qalam va oddiygina qilib kesilgan qamish tayoqchasi, o'zim yasagan astrolyabiyaning o'zi kuzatish va hisoblashga kifoya qildi. (Yozuv taxtasi, qalam, astrolabiyan, do'stlariga ko'rsatadi.)

Kumar pardozchi:

-Ajabo, yer aylanasining radiusi sizning hisobingizcha qancha ekan?

Beruniy:

-Yer, aylanasining radiusi mening hisobimcha 6342,4 km ga teng bo'ladi. (Bu hisob hozirgi aniq o'lchovdan faqat 28,9 km farq qiladi, xolos.) Yer maydonining katta aylanasi esa 6800 farsangga teng bo'lib chiqadi. Agar 1 farsang taxminan 6 km ga. teng bo'lsa, u holda 40800 km ga teng bo'ladi, degan aniq xulosaga kelish mumkin.

Bu usul bilan yer sharining sirlari ham hajmini ham aniq hisoblash mumkin-ku! Ha, do'stim, albatta, hisoblash mumkin, men uni hisoblab ham qo'rganman. Yer sharining sirti 1.471.272 kub farsang bo'lib, hajmi 1.667744242 kub farsangdir.

Bahuda zargar:

-Ofarin, ofarin! ...

Kumar pardozchi:

-Tangri sizga uzoq umr, sihat-salomatlik ato etsin.

Bahuda zargar:

-(O'zicha,) Eh, qanday katta iroda, buyuk aqlga ega bu odam. Xalqimiz uni ilm dengizi deb bekorga aytmagan ekan.

Xo'ja Hasan:

-Do'stim, bir onga ruxsat berasiz. Sizlar suhbatlashib turinglar, men bilan kelgan hamrohlarim bor, ular tashqarida qolgan edilar.

Beruniy:

-Nechun, chaqirmading ularni. (Xo'ja Hasan eshikka yaqinlashar ekan, Dehqonnazar, Mamanazar va Al Hasan kirib keladilar. Ular Xo'ja Hasan bilan salomlashadi, qo'l olib ko'rishadilar. Xo'ja Hasan ko'chaga chiqib ketadi. Beruniy ularni ko'rib, bayajonlanadi, o'rnidan turib vatandoshlari tomon shoshiladi.)

Dehqonnazar, Mamanazar va Al Hasan:

-Assalomu alaykum!

Beruniy:

- E, e ... tushimmi, o'ngimmi, ko'zlarimga ishonmayman. (Quchoqlashib birma-bir ko'rishadi.) Sog'-salomat bormisizlar, hamshaharlarim.

Al Hasan:

- Aziz do'stim, bizni sog'intirib qo'ydingiz-ku! ...

Beruniy:

- (Beruniy xayol surganday, afsuslanganday) ... Ha ... do'stlarim, sizlarni sog'indim, juda sog'indim. Lekin, na iloj ... „izzatli asirlik“ ...

Dehqon nazar:

-Qishlog'imiz dehqonlari sizga bir dunyo salom aytishdi.

Beruniy :

-Salomat bo'lishsin, hammalari yaxshi yurishibdimi?

Mamanazar:

-Ular bizni ancha joygacha kuzatib ham qo'yishdi.

Beruniy:

- (Al Hasanga.) Uy ichlaringiz tinchmi, ojizangiz Rayhona ...

Al Hasan:

-Shogirdingiz Rayhona ham shu yerda. Ustozni ziyorat qilay deb keldi.

Beruniy . (Hayajon bilan.) A ! ..., qayerda?

Al Hasan:

- Men hozir ... (Al Hasan chiqib ketib, Rayhonani, boshlab kiradi. Beruniy ham, Rayhona ham bir dam hayajonda turib qoladilar.)

Beruniy:

-Rayhona ... , azizim! ...

Rayhona:

-... Ustoz. (Asta yurib kelib Beruniyning ko'kragiga bosh qo'yadi. Ho'ngrab yig'lab yuboradi. Beruniy ham o'zini tuta olmaydi. Rayhonaning sochini silaydi. Buni ko'rgan Al Hasan ham o'zini tuta olmaydi. O'girilib, ko'z yoshlarini ro'molchasi bilan artadi.)

Beruniy:

-Kechir meni, azizam... Senga saboq beribman-u, lekin nozik tuyg'ularingni sezmasdan e'tiborsiz qoldiribman... men gunohkorman. (Rayhona sekin ta'zim bilan chetga o'tadi, Beruniy sukutda.)

Al Hasan:

-(Ko'z yoshini artib)... Do'stim Siz emas, zamonamiz aybdor. Bu zamon bizlarni bir-birimizdan ayirdi. Mahmud Xorazmga kelmaganda, biz quvg'inlikda yurmaganimizda, Siz "izzatli asir" bo'lib bunda qolmaganingizda barcha orzularimiz , yuzaga chiqarmidi? Na chora, taqdir hammamizni har yoqqa uloqtirib tashladi.

Mamanazar:

-(Peshonasiga urib.) Taqdir shu ekan-da!

Beruniy:

-Taqdir... Biz taqdir, taqdir deb o'zimizni yupatamiz. Taqdirga tan berib, bu dunyodan o'tamiz (o'ychanlik bilan bir oz yuradi, o'zicha). Insondan ulug', insondan kuchli nima bor? Shunday ulug' kuch, yana takdir oldida bo'yin egadi, tiz cho'kadi, shukurlar qiladi. Ajabo... uni o'zgartirish qo'limizda turib o'zgartira olmasak.

Al Hasan:

-Do'stim, yoshlik davrlarimiz o'tdi. Qarilikka yo'l oldik. Biz endi sizni yolg'iz qoldira olmaymiz. Agar rozi bo'lsangiz, Rayhona ikkimiz xizmatimizda bo'lurimiz.

Beruniy:

-A ... Rayhonaning umr yo'ldoshi-chi?

Al Hasan:

-Ha do'stim, kishi hayoti tekis bormas ekan. Rayhonaning umr yo'ldoshi olamdan o'tganiga ancha bo'ldi.

Beruniy:

-(Qo'li bilan yuzini siypab, fотиha o'qiydi. Rayhonaning oldiga sekin-asta yurib boradi, uning boshini silaydi).(Xo'ja Hasan qop ko'targan kishilar bilan kirib keladi.)

Hoja Hasan:

-Abu Rayhon „Qonuni Mas'udiy“ kitobingiz shohimiz Mas'udga juda ma'qul bo'ldi. Mas'ud „Bu kitob Xorazm xalqining qimmatini yana bir bor dunyoga ko'rsatuvchi, dunyo ahamiyatiga ega bo'lgan asardir“,—deb baholadi. „Siz borib, mening nomimdan minnatdorchilik bildiring“, deb ushbu sovg'ani sizga taqdim etdi. (To'n kiygizadi va quchib ko'rishadi.) Muborak bo'lsin!

Hamma tabrik so'zlarani aytadi.

Al Hasan:

-Muborak bo'lsin, do'stim (quchoqlab ko'rishadi).

Beruniy:

-Qutlug' bo'lsin, do'stlarim.

Xo'ja Hasan:

-Mana bu qoplardagi kumush tangalar, ularni filga ortib olib keldik... Beruniy:

-Do'stim, Xo'ja Hasan, sultonimiz meni hurmatlab qilgan mehnatim evaziga shuncha in'om berib yuboribdilar, men behad xursandman. Shohimiz Mas'udga minnatdorchiligimni bildirib qo'yasiz. Lekin afsuski, bu kumush tangalarni olib qololmayman.

Xo'ja:

-Nechun, do'stim?

Beruniy:

-Do'stlarim, men xalqimga, qolaversa, kelgusi avlodlarga bag'ishlab 150 ga yaqin asar yozdim. Uning beshdan ikki qismi yulduzlar ilmiga, qolgani hisob, geodeziya, jug'rofiya va boshqa ilmlarga bag'ishlangan. Mendan qoladigan bu meros qaysi mol-dunyodan kam? Ilm bir daryo, abadiy porlab turuvchi quyosh. Pul va mol esa bir lahzalik uchqun. Men hech vaqt abadiy porlab turuvchi quyoshni bir lahzalik uchqunga almashtirolmayman (she'r o'qiydi), Mashriqdan qadrimgi hindlardan so'ra,

Mag'ribda — asarim bilgandan, jonim! G'ayirlik etsa ham odamlar menga, Tan olib, e'tirof ayladi shonim.

Mem o'limlardan qutqargan, shu ilm emasmi? Ha, do'stim hayotimda men g'avvosu, ilm bo'ldi ummonim.

Do'stim, Xo'ja Hasan men xalq farzandiman ana shuning uchun ham Siz keltirgan bu kumush tangalarni Vatanim Xorazmga yuboraman.

Xo'ja:

-In'om sizniki, sizga atalgan, ixtiyor sizda!

Beruniy:

-Dehqon buvalar, bu qumush tangalarni Xorazmning obodonligi uchun sarf qilinglar. Kanallar qazib suv chiqaringlar, yerning sho'ri ketishi uchun zovurlar qazinglar, dambalar quringlar, ekinzorlar, bog' -rog'lar ko'paysin ...

Dehqonnazar, Mamanazar, Al Hasan:

-Ofarin ,.. Ofarin (Dehqonnazar Beruniyni quchib o'pdi.)

Dehqonnazar:

-Xalqimizning baxtiga dunyo turguncha turing.

Bahuda zargar, Kumar pardozchi :

-Xorazm xalqining chin farzandisiz!

Xo'ja Hasan:

-Siz hayotingizni xalqqa bag'ishladingiz. Ziyo berdingiz. Xalqimiz sizni hech qachon unutmaydi.

Hamma:

-Siz bizning ziyokorimizsiz!!...

Beruniy:

-(Sahna oldiga kelib.) Do'stlarim, men ilm yo'lidan borib, shunday sharaf kiyimlarini qo'lga kiritdimki, u mening qoldirgan merosim kabi, kelgusida yillar va nasllar oqimi bilan davom etajak. Davrlar osha jaholatlik bitur, yorug' kun kelur, ana o'shanda, kelajak avlod bilan fanming ulug' cho'qqilarida, albatta uchrashurimiz. (Chiroq o'chadi. Uzoqdan yaltirab yorug' yulduz ko'rinadi. Beruniy shu yulduz tomon asta-sekin yurib ketadi.)

### III. FANLARGA OID SENARIYLAR

#### a) BIOLOGIYA FANI BO'YICHA

##### BIOLOGIK XILMA-XILLIKNI SAQLAB QOLISH

Z.Bahodirova, Sh.Yakubjonova

**Maqsadi:** Yoshlarga biologik xilma-xillikni saqlab qolish muammolari haqida ma'lumot berish, atrof muhitni muhofaza qilishga o'rgatish va shular orqali ekologik madaniyatli shaxsni shakllantirish.

**Vazifalari:**

1. Biologik xilma-xillik bo'yicha tushuncha hosil qilish;
2. Biologik xilma-xillikni saqlab qolish muammolariga oid ma'lumotlar berish;
3. Tadbir orqali tabiatni muhofaza qilish bo'yicha yoshlarda ko'nikma hosil qilish.

**Xulosa.** Ushbu rolli o'yin shousi orqali yoshlarga biosferaning eng muhim tarkibiy qismi hisoblangan o'simlik va hayvon turlariga insonning ta'sirini va ularni saqlab qolish muammolari yechimi, hal qilish yo'llari ko'rsatib beriladi.

**Asosiy atama va tushunchalar:**

Tabiatni muhofaza qilish, biologik xilma-xillik, ekologik ta'lim, ekologik tarbiya, ekologik madaniyat, landshaft, "Qizil kitob", endem tur, fauna, flora, populyatsiya, qo'riqxonalar, rezervat.

**Foydalaniladigan metodlar:** rolli o'yin, shou.

Guruh ichidan boshlovchi, ekolog, ekspertlar - botanik, zoolog, o'rmon xodimi, tabiatni muhofaza qilish davlat vakili rollariga o'quvchilar tanlab olinadi.

Tadbir uchun sahna tashkil etiladi. Sahnada go'zal landshaft ko'rinishlari aks etib turishi lozim. Ayrim noyob o'simlik yoki hayvonlarning rasmlari yoki fotosuratlarini namoyish etilishi lozim.

**Boshlovchi:** Qadrii hamkasblar! Bugun bizning oldimizda biosferaning eng muhim tarkibiy qismi hisoblangan o'simlik va hayvon turlariga insonning ta'sirini baholash vazifasi turibdi. Bizning bugungi uchrashuvimizda hurmatli ekspertlar ishtirok etmoqdalar (ekspertlar bilan tanishtiradi va ular o'rinlaridan turib, zaldagilar bilan bosh egib salomlashadilar).

Muhokamani boshlashdan avval biz asosiy masalalarni belgilab olishimiz zarur. Shunday qilib, kun tartibiga qanday vazifalarni kiritamiz? (Zalda ishtirok etayotganlar turli masalalarni taklif etadi va boshlovchi ularni izohlaydi).

-Tabiatni muhofaza qilish tizimining holati.

-Ekologik tashkilotlarning biologik xilma-xillikni saqlashdagi roli.

-O'rmonlardan noto'g'ri foydalanish tufayli kelib chiqayotgan salbiy holatlar.

-O'zbekiston «Qizil kitob»iga kiritilgan o'simlik turlari.

-O'zbekiston «Qizil kitob»iga kiritilgan hayvon turlari.

Boshlovchi: Yuqorida sanab o'tilgan masalalarni insonning biologik xilma-xillikka ta'siri va ularni saqlab qolish imkoniyatlari deb, birlashtirish mumkin. Ammo o'rmonlardan foydalanish masalasini keyingi mashg'ulotlarga qoldirsak ham bo'ladi. Kelinglar, o'ylab ko'raylik, yana qanday masalalar e'tibordan chetda qoldi (Zaldagi o'tirganlar qo'shimcha ma'lumotlarni taklif etadi. Boshlovchi ularni izohlaydi )

-O'g'rincha ovchilikning ta'siri. Bu ham o'simlik va hayvon turlarini kamayishiga ta'sir etadi.

Boshlovchi: Bu to'g'rida albatta to'xtalamiz.

So'zni biologik xilma-xillikka insonning ta'siridan boshlasak.

Sayyoramizda har kuni o'rtacha bitta o'simlik yoki hayvon turi yo'qoladi. Bu o'z navbatida, o'nlab yoki yuzlab o'simlik turi bilan bog'liq umurtqasiz hayvonlarning yo'qolishiga sababchi bo'ladi. Avval bu haqda zoologning so'zini eshitsak.

Zoolog: 1600-yildan boshlab 63 tur sut emizuvchilar va 74 qushlar yo'qolib ketdi. Ular orasida tarpan, zebra-kvaga, xaltali bo'ri, dengiz sigiri, Turon yo'lbarisi kabilar bor. Yaqinda turli mamlakatlar bo'yicha yo'qolib borayotgan umurtqali hayvonlar soni haqida ma'lumotlar chop etildi. Bunda AQSh -281, undan keyin Indoneziya -242, Braziliya -167, Xitoy -153, Hindistonda 137 tur hayvon qayd etilgan. Eng qoniqarli holat Germaniyada hisoblab, unda yo'qolish havfi arafasidagi 11 tur umurtqali hayvon ma'lum bo'lgan.

Boshlovchi: Menimcha, Germaniyadagi hayvonlarni boshqa mamlakatlardagi bilan solishtirib bo'lmaydi. Masalan, Shimoliy Amerika qit'asi tundradan tortib jazirama cho'llargacha va ko'pgina tog' tepaliklariga ega.

O'zbekistonda ahvol qanday?

Zoolog: O'zbekistonda yo'qolish havfi ostida 161 umurtqali hayvon ma'lum.

Endi so'z botanikka: Umuman dunyo bo'yicha har o'nta o'simlikdan bittasi yo'qolib borayotgan tur hisoblanadi. AQShda yo'qolish arafasida-1875, Hindistonda-1256, Braziliyada-483, Germaniyada ahvol ancha yaxshi, ya'ni 16 tur ro'yxatga kiritilgan.

Boshlovchi: O'zbekistonda-chi?

Botanik: 324 tur ro'yxatga olingan.

Boshlovchi: So'zga chiqqan kasbdoshlarga kim qo'shimcha qilmoqchi?

Zaldagi ishtirokchilar: Men yaqinda adabiyotlardan quyidagi ma'lumotlarni oldim. Dunyo bo'yicha bugungi kunda 11 mingdan ortiq o'simlik va hayvon turlari yo'qolish xavfida ekanligi qayd etilgan. Yana 5 ming tur ro'yxatga kirishga nomzod hisoblanadi.

Zaldagi ishtirokchilar: Men yirik ekolog olim D.X. Medouzning fikrini bayon qilmoqchiman. Uning fikricha, har kuni turli sabablarga ko'ra turlarning kamayishi 10 tadan 100 tagachani tashkil etadi. Medouz Madagaskar oroli va G'arbiy Ekvadorda daxshatli holatda biologik xilma-xillikning kamayishiga misollar kettradi. Madagaskarda 90% tropik o'rmonlar yo'qolishi hisobiga u yerdagi barcha turlarning yarmi yo'qolib ketgan. Ularning 60% i endemik turlar edi. G'arbiy Ekvadorda esa tropik o'rmonlarni bananzorlarga aylantirilishi natijasida kamida 50 ming tur organizmlar yo'qolib ketdi.

Boshlovchi: Rahmat. Biologik xilma-xillik masalasi, ya'ni uni saqlab qolish ayrim davlatlar, jamoatchilik va xalqaro hamkorlikni talab etadigan muhim dolzarb muammodir. Keling, biologik xilma-xillikni saqlab qolishning asosiy yo'nalishlarini esga olaylik. Ularning samarali ish faoliyatiga nazar tashlaylik.

Zaldagi ishtirokchilar: Turlarning tabiatda mavjudligi ularning populyatsiyasidir. Ma'lumki, o'simlik va hayvonlar populyatsiya tarzida muhofaza qilinadi. Fauna va florani muhofaza qilishni tashkil etish uchun muhofaza qilish hududlari va «Qizil kitob» tashkil etilgan. Bunda ayrim chiroyli gullovchi va dorivor o'simlik turlarini yig'ish va tayyorlash kabilar taqiqlanadi. Shuningdek, noyob hayvonlarni ovlash, baliqlarni, kapalaklarni va qo'ng'izlarni tutish man etiladi.

Boshlovchi: Turlarni saqlab qolishning taqiqlashdan boshqa maxsus shakllari bormi?

Zaldagi ishtirokchilar: Dunyo bo'yicha turlarni ko'paytirish bo'yicha ancha tajribalar to'plangan. Hayvonlar hayvonot bog'larida ko'paytiriladi, o'simliklar botanika bog'larida o'stiriladi. Noyob turlarni parvarishlash va ko'paytirish uchun mahsus markazlar tashkil etilgan. O'zbekistonda «Jayron» ekomarkazi va boshqalar mavjud.

Zaldagi ishtirokchilar: Turlarni saqlab qolishda O'zbekistonda loyihalashtirilgan NQBR (Nurota-qizilqum biosfera rezervati) ham muhim ahamiyatga ega. Uning asosiy vazifalaridan biri biologik xilma-xillikni, landshaftlarni va ekotizimlarni saqlash hamda muhofaza qilish hisoblanadi.

Boshlovchi: NQBR hududida nechta va qanday o'simlik turlari «Qizil kitob»ga kiritilgan?

Botanik: Loyihalashtirilgan mintaqa o'ziga xos xilma-xil ekologik sharoitlardan iborat bo'lib, Respublika «Qizil kitobi»ga 60 ga yaqin turlar kirgan. Ushbu turlarning ko'pchilik qismi endem turlar hisoblanadi. Cho'ildagi kovrak, sumbul, qandimlarning bir nechta turlari, astragallar, sirttan va boshqalar bilan birga tog'larda lolalarning, shirachlarning bir nechta turlari «Qizil kitob»ga kiritilgan.

Boshlovchi: Lolalar va boshqa turlar qanday sabablarga ko'ra «Qizil kitob»ga kirib qolgan?

**Botanik:** Gap lolalar haqida boradigan bo'lsa, ma'lumki, lolalar guli juda chiroyli bo'ladi va uning chiroyi kishilarni o'ziga jalb qiladi. Shuning uchun ko'pincha lolalarning gullari yig'ib olinadi. Hatto, ba'zi joylarda bahor faslida yo'lning yoqalarida odamlar lolalarni sotib o'tiradilar. Bundan tashqari, lolalarning piyozi kavlab olinadi. Ular o'sadigan maydonlarda chorva mollarini boqish ham ularning kamayishiga sabab bo'lmoqda. Boshqa turlar ham odamlar tomonidan oziq-ovqat, chorva uchun ozuqa, shifobahshligi uchun dori sifatida, shuningdek, ba'zi turlardan o'tin sifatida foydalanishlari natijasida kamayib yoki yo'qolib borayotgani uchun ham «Qizil kitob»ga kiritilgan.

**Boshlovchi:** «Qizil kitob»ga kirgan turlarni qanday yo'llar bilan muhofaza qilish mumkin?

**Botanik:** Avvalambor, botanika bog'larida, ilmiy tadqiqot institutlarida ularning biologik va ekologik xususiyatlari o'rganiladi, madamyilashtirish ishlari olib boriladi. Chorva mollarini boqish tartibga solinadi. Noyob turlar mavjud landshaftlar nazoratga olinadi. Shu bilan birga, bunday turlar qo'riqxona, buyurtmaxona, milliy bog'larda muhofaza qilinadi.

**Boshlovchi:** O'zbekiston «Qizil kitobi»ga qaysi hayvonlar kiritilgan?

**Zoolog:** Umurtqali hayvonlardan baliqlar, sudralib yuruvchilar, qushlar va sut emizuvchilarning bir nechta turlari kiritilgan. Baliqlardan Orol baxrisini; sudralib yuruvchilardan kapcha ilonni; qushlardan soqqaqush, oqqush, burgutlarning bir nechta turlari, yo'rg'a tuvaloq, sut emizuvchilardan mitti qo'shoyoq, gepard, qoraquloq, jayron, qizilqum arxari kabilar «Qizil kitob»ga kiritilgan. Umuman NQBR hududi bo'yicha umurtqasiz va umurtqali hayvonlarning 50 turi ro'yxatga olingan.

**Boshlovchi:** Umurtqasiz hayvonlarning bir nechtasining nomini aytib bersangiz? Nima uchun ular muhofazaga olingan?

**Zoolog:** Hozirgi paytda Fanlar Akademiyasining Zoologiya instituti va O'zbekiston Zoologiya jamiyatining say-harakatlari bilan «Qizil kitob»ga halqasimon chuvalchaglarning 3 turi, mollyuskalarning 14 turi, bo'g'im oyoqlilarning 61 turi kiritildi. Shulardan biosfera rezervatida go'ngpashshalarning bir nechta turi, So'g'd va Baqtriya tishsizi va boshqalarni aytilish mumkin. Umurtqasiz hayvonlar ham inson ta'siridan chetda qolgani yo'q. Ho'jalik maqsadida cho'l zonasini o'zlashtirish, yaylovlardan noto'g'ri foydalanish, to'qaylar maydonining qisqarib borishi, daraxt va butalarni kesib tashlash, suv sathining keskin pasayishi yoki ifloslanishi, Sug'd va Baqtriya tishsizlarini chig'anoqlarini yig'ish natijasida ular kamayib, yo'qolish xavfi arafasida yoki noyob turlar qatoriga kirib qoldi.

**Boshlovchi:** Qizilqum arxarining bioekologiyasi haqida tushuncha bersangiz?

**Zoolog:** Ilgari Markaziy va G'arbiy Qizilqumning Nurota, Malguzar, Turkiston, Zarafshon tog'larida, hozirda esa Nurota, Oqtov qoldiq tog'larida tarqalgan. Qizilqum arxari tog'larning o'rta va yuqori qismlarida yashab, qish faslida pastga

tushadi. 1960-yilda Gqtovdta 120-150 dona yovvoyi qo'ylar hisobga olingan bo'lsa, bugungi kunda ularning soni bir nechta o'n dona qoldi. Nurota tog'larida 2500 donasi ma'lum bo'lib, ularning ko'p qismi Nurota qo'riqxonasida yashamoqda. Yovvoyi qo'ylar poda bo'lib yashaydi, mavsumiy ko'chish kuzatiladi. Bahor faslining oxirlarida bolalaydi, 1-2 tagacha bola tug'adi. Bolalari bir yoshgacha onasi bilan birga bo'ladi. Asosan, o't o'simliklar bilan oziqlanadi.

Boshlovchi: Yuqorida aytib o'tganimizdek, ayrim o'simlik va hayvon turlari botanika bog'lari, Nurota qo'riqxonalarida tabiatning boshqa qismlari bilan birga muhofaza qilinib, bunday joylar muhofazaga olingan hududlar deb ataladi. Bizning oramizda tabiatni muhofaza qilish Davlat qo'mitasi vakili ham ishtirok etmoqda. Ulardan dunyo bo'yicha va bizning Vatanimizda maxsus muhofaza hududlari tashkil etish borasida qanday ishlar olib borilayotgani to'g'risida so'zlab berishlarini so'raymiz.

Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi vakili: YuNESKO tashkilotining ekspertlari hisob-kitoblariga ko'ra, biologik xilma-xillikni saqlash uchun har bir mamlakatda maxsus muhofazaga olingan hududlar maydoni shu mamlakat umumiy maydonining uchdan bir qismini tashkil etishi kerak. Bugungi kunda ana shunday maydonlar dunyo bo'yicha 7% ni tashkil etadi. Bu sohada ilg'or mamlakatlar-Ekvador (43.1%), Venesuela (36.3%), Daniya (32.3%), Norvegiya (30.5%), Germaniya (27%), Yangi Zelandiya (23.6%), Buyuk Britaniya (20.9%).

Boshlovchi: O'zbekistonda bu ko'rsatkich qanchani tashkil etadi?

Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi vakili. Bizda maxsus muhofazaga olingan hududlar maydoni 1355 ming gektarni tashkil etadi. Respublikamizda yangi qo'riqxonalar va tabiat yodgorliklari tashkil etilmoqda. Ularning maydoni tez ortib bormoqda.

Boshlovchi: Men maxsus muhofazaga olingan hududlar maydoni iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda ortib borish jarayonini tushunmayman. Bundan insonning o'zi zarar ko'rmaydimi?

Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining vakili: Gap shundaki, dunyo bo'yicha va shu bilan birga O'zbekistonda ham tashkil etilayotgan maxsus muhofazaga olingan hududlardan rekratsion maqsadda foydalanish, ekologik qulay qishloq ho'jaligi ishlab chiqarishi, dorivor o'simliklar xom ashyosini tayyorlash, litsenziya asosida hayvonlarni ovlash va baliq tutish mumkin. Natijada aholi uchun foydali bo'lgan ekologik asosda xo'jalik yuritiladigan maskan yaratiladi.

Boshlovchi: Biosfera rezervatida hayvonlarni ovlash va turizmga ruxsat beriladimi?

Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining vakili: Ovchilik ta'qiqlanadi, turizm esa rivojlantiriladi, odamlarning dam olishi uchun zonalar ajratiladi. Ularda ekologik ta'lim-tarbiya ishlari olib boriladi.

Boshlovchi: Tushunarli. Hozirgi vaqtda maxsus muhofazaga olingan hududlar turini tashkil etish haqida ko'p gapirilyapti. Bu nima degani?

Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining vakili: Maxsus muhofazaga olingan hududlarning ekologik turi biologik xilma-xillikni saqlashda «yadro» rolini o'ynaydi. Ushbu «yadro» yaylovlar, jarliklar, o'rmonlar, vohalar va boshqa ekotizimlar bilan chambarchas bog'liq. Shuning uchun undagi hayvonlar bir «yadro»dan ikkinchisiga o'tishi mumkin. Maxsus muhofazaga olingan hududlar turi biologik xilma-xillikni ancha samarali muhofaza qilinadigan hudud hisoblanadi.

Boshlovchi: Men o'ylaymanki, biz bugun biologik xilma-xillikni saqlash borasida insoniyat tomonidan olib borilayotgan chora-tadbirlar to'g'risida to'liq ma'lumotga ega bo'ldik. Bizning shou o'z nihoyasiga yetdi. Barcha ishtirokchilarga rahmat. Keyingi uchrashuvgacha Xayr!

## YAYLOVDA KIM ASOSIY?

D. Ismoilova

Spektakl mavzusining maqsadi: Bolalarga atrof-muhitni muhofaza qilishda yaylov muhiti komponentlarining bir-biriga uzviy bog'liqligini tushuntirish orqali ularning ekotizm haqidagi bilimlarini rivojlantirish.

Ishtirokchilar: Baland o't, Sichqon, Tulki, Quyosh, Kichkina qizcha (Sahna ortida)

O't- (pichirlab) Meni tanlashmoqchi!

Sichqon- (chiyillaydi) Yolg'on, men birinchi bo'laman.

Tulki- ( Chuqur ko'krak ovozi bilan): Sening nima aloqang bor? Men g'alaba qozonmoqchiman.

Kichkina qizcha paydo bo'ladi.

Kichkina qizcha: Bu yerda nima bo'lmoqda?

Kim va nimani yutmoqchi?

Tulki: Biz yaylovimizda kim asosiy ekanligini aniqlash uchun saylov uyushtirmoqchimiz.

So'zsiz eng chiroyli nomzod – bu men, mening ajoyib po'stinimga bir qarang, bundan tashqari ko'pchilik mendan qo'rqadi. (biroz imillab, u yoq bu yoqqa ikki marta borib keldi) Qanday nozik harakatlanaman.

Qizcha: Ha, sen go'zalsan va chopog'onsan ham!

Tulki ketadi, sichqon paydo bo'ladi.

Sichqon: Men bu yerga bir daqiqaga keldim. Eng asosiy – bu menman. Men – yoqimtoy sichqonman, ko'p ortiqcha donlarni yeyman. Ulardan esa yovvoyi o'tlar o'sib chiqishi mumkin edi. Bilasizmi? Qancha mening qarindoshlarim bu yaylovda yashaydi? Yuzlab! Balki minglabdir. Agar qarindoshlarimning hammasi menga ovoz berishsa, ayni meni tanlashadi.

Qizcha: Sen haqiqatda juda yoqimtoysan,

Sichqon: Siz sichqonlar bu yerda juda ko'psizlar. Seni tanlashsa kerak.

O't paydo bo'lishi bilan sichqon ketadi.

O't: Hóziroq bas qilinglar, meni tinglamaguncha bir so'z aytmanglar. Ayni menga "Eng asosiy" unvoni beriladi. Menga bir qarang! Men kimman, bolalar? Yaylovda nima o'sadi? Otlar, sigirlar, quyonlar, bug'ular, ko'pchilik hashoratlar nima yeyishadi? E'tirozlar bormi? Albatta, men eng asosiyman.

Qizcha: - Azizim, mening boshim qotib qoldi! Men kim eng asosiy va muhimligini bilmayman. Haqiqatdan yaxshi yaylov o'tsiz bo'lmaydi, yaxshi yaylovda ortiqcha donni yeydigan sichqonlar hamisha ko'p. Agarda yaylovda sichqonlar ko'p bo'lsa unda ularni ovlaydigan tulkilar ham bor.

Tulki paydo bo'ladi.

Tulki: Endi bildingmi, qanchalik men kerakman. Agarda men sichqonlarni tutmaganimda, ular shunchalik ko'payib ketgan bo'lardiki, sen tizzanggacha sichqon ichida turar eding. Kichkina qizcha, Ular bu yaylovda paydo bo'ladigan hamma donni yeb tashlagan bo'lar edi.

Qizcha: Bu juda dahshat bo'lar edi. Umid qilamanki, bunday bo'lmaydi. Biroq qanday qilib to'g'ri yechim topsak bo'ladi? Kelinglar bunday qilamiz: har bir eng asosiylikka davogar o'zining kerakligini bir jumla bilan aytishsin.

O't, sen birinchi boshiaysan.

O't: men hammaga ozuqa va boshpana beradigan yaylovning o'ziman!

O't ketadi, Sichqon paydo bo'ladi.

Sichqon: Yaylov - mening uyim. Men donlarni atroflarga tarqataman va yaylov ozoda va chiroyli bo'lishi unda ortiqcha o't bo'masligi uchun kerakli miqdorda don yeyman. Men hatto tulkilarga ozuqa yetkazib beraman. (tulki paydo bo'ladi), bu menga hech qanday huzur bahshida etmasa ham.

Sichqon ketadi.

Tulki: Men sichqonlarni ortiqcha miqdorini yeb ma'lum bir muvozanatni ushlab turaman. Mensiz ular shunchalik ko'payib ketar ediki, ular hamma donlarni yeb tashlashgan bo'lar edilar.

Qizcha: Diqqat hozir bir qaror qabul qilamiz. Men har biringizni - O'tni, Sichqonni, Tulkini ismingizni aytaman. Bolalar sizlar ulardan qaysi birini asosiy deb hisoblasangiz, shuni qo'llab qarsaklar bilan olqishlashingizni so'rayman.

Qani boshlaymiz.

(To'satdan quyosh paydo bo'ladi) o-o-op! Salom, mening azizlarim...

Quyosh: Zarari yo'q, men faqat aytmoqchimanki, bolalar yaylov hayotida men qanday rol o'ynashimni o'ylab ko'rishsin. Men hammaga yorug'lik va issiqlik beraman. Mensiz o't o'smas edi, sichqonlar hech narsa yemas edilar, va hech qayerda berkina olmas edilar. Sichqonlar bo'lmaganidan keyin tulkilar ham och qolar edilar. Yaylov bo'lishi uchun hammamiz chin ko'ngildan mehnat qilishimiz kerak.

Xayr, qizaloq, xayr, bolalar ko'rishguncha!

Qizcha: Xayr Quyosh bobo! O'ylaymanki, hammadan - eng asosiy-quyosh va yaylovda yashovchi barcha ham o'ziga yarasha asosiy va zarurdir. Shuning uchun men hammani g'olib deb e'lon qilaman: O'tni ham, sichqonni ham va tulkini ham, bugun kelmagan, biroq yaylovda yashaydigan va uni hozirgiday muhitni yaratayotgan barchaga!

Xulosa: Bolalarga ekologik ta'lim-tarbiya berishda yaylov muhitini yaratayotgan tabiat komponentlari bir-biri bilan uzviy bog'liqligi mazkur spektakli ssenariyda aks ettirilgan.

## ATROF – MUHIT, HAYOT VAZNLARI

Mashg'ulot maqsadi: Bolalarga biz qanday qilib atrofimizni o'rab turgan narsalarni taqqoslashimizni tushuntirish va yangi so'zlar bilan tamishtirish.

Atrof – muhit, hayot vaznlari kabi tushunchalarim shakllantirish. Tabiatda inson o'zini qanday tutishining oddiy qoidalarim bolalarga simdirishdan iborat.

Ish jilhozlari: rangli qalamlar, ayrim daraxt barglari;

Mashg'ulotning borishi:

Atrofdagi ekilgan chinor, terak va butalarga diqqat bilan nazar tashlaymiz.

Atrof yam – yashil. O'lkamizda yoz faslining boshlanishi – bu bahor faslining davomi.

Kunlar quyoshli va issiq, osmon musaffo, kechasi esa birmuncha salqin. O'zbekistonda daraxtlar barglari kuz faslining o'rtalariga borib sarg'aya boshlaydi, yog'ir yog'adi, osmon bulutlashadi.

Xalqda agar daraxt barglarining hammasi to'kilmasa, demak, qish sovuq keladi, degan naql bor.

Kechki xazonrezgi – qish juda sovuq va uzoq davom etadi.

Lug'at: Bahor, yoz, kuz, qish.

Yoz boshlanishi bilan meva – chevalar pishadi.

Mashg'ulot kuzatuv:

Kuzatuv davomida yil fasllarining o'zgarish tartibi aniqlanadi.

Fasl o'zgarishi bilan: osmon, barglar ranglari, quyoshning osmondagi joylashuvi, yomg'irning tez – tez yog'ishi, insonlarning bandligi, kun va tunning uzunligi o'zgaradi.

Yiliga ikki marotaba kun bilan tun tenglashadi. Bu kunlar bahorgi kun – tunning tenglashishi deb ataladi.

Bu – 23- sentabr va 21-mart kunlaridir.

Juda qisqa kunlar bo'ladi, shimoliy qutb ortida esa aksmcha, bir necha sutka davom etadigan uzun kunlar ham bo'ladi. Sutka – kun va tun almashadi.

Topishmoqlar, maqollar, aytishmalar, she'rlar.

Tabiat barcha narsami hisobga olgan.

Go'zallik keldi – hosil olib keldi (kuz).

Tabiat uyqusiramoqda, lekin uxlamayapti, u yashamoqda va dam olmoqda, kuch yig'moqda.

Qish – tabiat uchun eng ajoyib dam. Yer yuzida yo'qdir yomon va yovuz ob – havo.

Atrof – muhit tushunchasini beramiz.

Ham ma – eski qarag'aydan tortib devorgacha

Katta qorong' u qarag'ayzorgacha

Ko'ldan hovuzgacha – atrofimizdagi muhit.

Bundan tashqari ayiq va los

Ehtimol, mushuk Vaska ham

Hatto ko'lmak – ajobo! –

Atrofimizdagi muhit.

Tabiat qo'ynida o'zlarim qanday tutishlarining oddiy qoidalarimi bolalar ongiga singdirish lozim.

– Buta va daraxt shoxlarim sindirma!

– Daraxtlarning ildiziga shikast yetkazma!

– O'rgimchak uyasini buzma, o'rgimchaklarni o'ldirma.

– Tukli arilarning uyasini vayron qilma!

– Ilonlarni o'ldirma, hatto ular zaharli bo'lsa ham.

– Qushlarnig iniga yaqin kelma va ularni vayron qilma!

– Yovvoyi jomivorlarni zarar yetkazma va ularni uyinga olib ketma!

-Dam olish oromgohlarida, tog'larda, yaylovlarning daryolari yonida chiqindilar qoldirma, hech qachon suv omborlariga chiqindilar tashlama! Bu eng oddiy va eng muhim qoidalardan biridir. Insonlar tomonidan chiqindilarni aynan har joyda qoldirish tabiat husnini buzadi.

Xulosa

Bizning dumaloq yer sharimiz,

Biz hammamiz aka-ukamiz.

Yagona sayyorada

Agar biz yig'ilsak.

Birgalikda hammamiz kulsak,

Biz daraxt, gullar eksak,

Bunda dunyo go'zal bo'ladi,

Xuddi yerimiz oltin kabi.

## **b) MATEMATIKA FANI BO'YICHA**

### **TINGLANG SONLAR TAVSIFINI**

M.I.Toshpo'latova

Yosh avlodni hozirgi zamon fani bilan qurollantirish orqali ularning aqliy jihatdan yuqori darajada rivojlanishlariga erishish umumta'lim – tayanch maktablar oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir. Bu vazifani hal etishda boshlang'ich sinf o'quvchilarini nafaqat sinfdan tashqari ishlar va yozgi ta'tilda bolalar oromgohlarida o'tkaziladigan ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-metodik tadbirlarning o'rni beniloya katta.

Oromgohlarda matematikadan o'tkaziladigan tadbirlarning mazmuni boshlang'ich sinf o'quvchilarining yoshi, sinfiga ko'ra matematikadan o'tkaziladigan tadbirlar matematika bahslarida egallangan bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Shundagina o'tkazilgan mashg'ulotlar, tadbirlar, kechalar matematikadan Bahs mashg'ulotlarining mantiqiy davomi bo'lib xizmat qila oladi.

Ma'lumki, boshlang'ich sinf o'quvchilari matematikadan o'tkaziladigan tadbirlarni samarali va qiziqarli olib borishlari uchun material topishda qiynalardilar. Ushbu tadbir ssenariysi ana shu masala bo'yicha o'quvchilarga yordam beradi deb o'ylaymiz.

Tavsiya etilgan tadbir ssenariysi mazmuni o'quv dasturi bilan uzviy bog'liq bo'lib, uni to'ldirishga va chuqurlashtirishga xizmat qiladi. Maqolada berilgan tadbir ssenariysi birinchi sinflar uchun mo'ljallangan bo'lib, unda o'quvchilarda sonlarning qatordagi o'rinni mustahkamlash bilan birga o'quvchilarda vatanga, oilaga, o'rtoqlariga bo'lgan mehr-muhabbati yanada mustahkamlanadi.

Bayramona bezatilgan xonaga bolalar kirib keladilar. Dastlab boshlovchilar sahnaga chiqib kechani ochadi.

1-Boshlovchi: Assalomu alaykum, hurmatli ustozlar, davramiz ishtirokchilari.

2-Boshlovchi: Assalomu alaykum, aziz tomoshabinlar va ota-onalar.

1-Boshlovchi: Shu o'rinda Prezidentimiz I.A.Karimovning "Kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishga bog'liq." degan so'zlari beixtiyor yodimga tushdi.

2-Boshlovchi: "Yosh matematiklar" ijrosidagi "Tinglang sonlar tavsifini" mavzusidagi matematik kechamizni ochiq deb e'lon qilamiz.

1-Boshlovchi: Quyosh chiqar olamga,

Nurlarini sochgali.

Sening ila kitobdan,

Sahifalar ochgali.

2-Boshlovchi: Ikki karra ikkini,

Tezroq bilgin bolajon.

Undan keyin yanada,

- G'ayrat qilgin bolajon.
- 1-Bōshiovchi: "Yecholmayman" demagil,  
"Qiyim" bo'lsa masala.  
Yalqovlardan bo'lgamin,  
Ishlashga qil hafsala.
- 2-Boshiovchi: Misollarni yechmoqqa,  
Sen doimo tirishgin,  
Eplolmasang ilk marta,  
Yana takror kirishgin.
- 1-Boshlovchi: Sonlar faqat o'shanda,  
"Sir" larini ochishar.  
Ular bilan do'stlashsang,  
Yo'lingga nur sochishar.

2-Boshiovchi: Sahnaga ishtirokchilarini taklif qilamiz.

(O'quvchilarning ko'ksida 1-10 gacha bolgan sonlar, turli matematik shakllar tasviri osib qo'yilgan.)

- 1-o'quvchi: Bizning quvnoq davraga,  
Xush kelibsiz, marhabo!  
Matematika bilan siz,  
Hamroh bo'ling doimo.
- «Matematika» kitobi kirib keladi: Matematika kerak,  
Har bir o'gil va qizga,  
Aqlini va fikrini,  
Soladi yaxshi izga.
- 2-o'quvchi: Bu fan bizning do'stimiz,  
Mo'jizalar makoni,  
Inoq bo'lib o'ssa kim,  
Ortar ilmi, imkoni.
- 3-o'quvchi: Elda bor shunday naql:  
«Hisob-kitob qayrog'i»  
Tinglab sonlar tavsifin,  
Bo'lingiz chin o'rtog'i.
- Bir: 1 Noldan keyin turaman,  
Chizg'ichingga qarab boq.  
Tartib sonlar ichida,  
Birinchimani, ey o'rtog'i.
- Ikki: 2 Qomatimni ko'rganlar,  
Qiyos etar oqqushga.  
Mendan dir-dir qaltirar,  
Ixlosi yo'q o'qishga.
- Uch: 3 Bilimingni baholab,  
Noiloj qoniqaman.

To'rt:	4	Qachon o'tar to'rtga deb, So'ng o'ylanib qolaman. To'ntarilgan stolga, o'xshab ketar bo'y-bastim. Otim «yaxshi», to'rt harf, Besh mening yaqin do'stim.
Besh:	5	Rassom chizar, o'xshatib, Yuk ko'targich ilmoqqa, Men muallif sovg'asiga, Bilimdon har o'rtoqqa.
Olti:	6	Koptok misol qornimni, Soyabonga olaman. Bir, ikki, uch, o'zimga, Men bo'lina qolaman.
Yetti:	7	Boshga tutib soyabon, Belbog'cha bog'laganman, Hisob-kitobga do'stlar, O'zimni chog'laganman.
Sakkiz:	8	Ipak qurt pillasiday, Qo'sh halqaman mustahkam, O'zgarmas qiymat, shaklim, O'ng-ters bo'lib tursam ham.
To'qqiz:	9	Shaklim o'xshar vergulga, Oltiga qarindoshman. Bir xonali sonlarga, Shu yoshdan karvondoshman.

To'qqizta sonlar tizilib turadi. shu o'rinda "Hoy, nol, kela qol!" she'ri aytiladi.

1-Boshlovchi:		Raqamlar saflangan chog', Kelmay turar faqat NOL. Ular bo'lishar hayron, Sodir bo'ldi qanday hol? (Sonlarni ijro etuvchi bolalar hayron bo'lishadi.)
2-Boshlovchi:		Shunda to'qqiz so'zladi:
To'qqiz:	9	-Imillamay bo'la qol! Seni kutib turmaylik, Tezroq kelib o'rning ol.
1-Boshlovchi:		Lekin shundan keyin ham, Qimir etmay turar nol, Yoki o'z o'min bilmay, Gangib turar ehtimol?
2-Boshlovchi:		Nol uchraydi har yerda,

“Nol”  
0  
Asli o‘rni qayerda?  
Juda puch ham emasman,  
O‘ylagandek ba‘zilar,  
O‘tsam sonlar ortiga,  
Kuchim yaqqol sezilar.

Nol kelib qayerga turishini bilmay Xayron bo‘lib turganda, boshlovchi tomoshabinlardan so‘raydi.

1-Boshlovchi: Qani bolalar “Nol”ga yordam beramizmi? (Ha!!!)

2-Boshlovchi: Aytinglarchi? “Nol” qayerda turish kerak? (Bolalar aytishadi, sonlar qatoridagi o‘rmini ko‘rsatadilar)

O‘n: 10  
Qo‘shni bo‘lib ko‘paydik,  
O‘n hissaga bir va nol,  
Hisoblaymiz, sanaymiz,  
Berib doim qo‘lga-qo‘l.

1-Boshlovchi: Mana sonlar bilan tanishib, do‘stlashib ham oldik. Endi ularning sehrli olamiga sayyohatlar qilamiz.

Bolajonlar boshiaylik,  
Yalla-navo nazmini,  
Savol- javob qismi-yu,  
Topag‘onlar bazmini.

(Bolajonlar ijrosida kuy va qoshiqlar tinglanadi)

2-Boshlovchi: Endi navbat “Nol bilan ishlaganda” nomli sahna ko‘rinishiga navbat beramiz.

(sahnaga aka-uka rolini bajaruvchi ikki o‘quvchi chiqadi. Akasi Rahmon, ukasi Ravshan.)

Rahmon: Sen nol bilan ishiashni bilasanmi?

Ravshan: -Ha. -dedi bilog‘onlik bilan,-nolga har qanday sonni qo‘shsak ham yana o‘sha sonning o‘zi hosil bo‘ladi, ammo noldan hech bir sonni ayirib bo‘lmaydi.

Rahmon:-Xo‘sh tag‘in-chi?

Ravshan: -Unga sonni bo‘lish mumkin emas, shuningdek ko‘paytirish ham befoyda-qanday songa ko‘paytirmaylik, baribir nol hosil bo‘laveradi.

Rahmon:-Shu xolosmi?-yana so‘radi akasi.

Ravshan: -Ha,yana nima bilishim kerak bo‘lmasa?

Rahmon:-Nolning yana bir xususiyati shuki, o‘zi hech qanday qiymatga ega bo‘lmagan holda, agar uni biror sonning ortiga yozar bo‘lsang, o‘sha sonning qiymati birdaniga oshib boradi.

Masalan:  $11+0=11$ ,  $110>11$ ,  $11<110$

1-Boshlovchi: O‘n tup daraxt bor edi,  
Savol: Qo‘shni bog‘da,  
Yana beshta ekdilar.  
Kuzak choqda.  
Chorbog‘da endi qancha,  
Bo‘ladi daraxt?  
To‘g‘ri javob topolmay,

Javob: Boshim karaxt.  
O'n tup daraxt bo'lsa,  
Qo'shni bog'da.  
Yana beshta eksalar,  
Kuzak chog'da.  
Chorbog'da bo'ldi, Ahad,  
O'n beshta daraxt.

2-Boshlovchi: — Bir qovunni o'n bo'lakka  
Savol: Teppa-teng bo'lib qo'ydim.

Endi mening savolimga,  
Quloq tut, bilib qo'ygin.  
Biri-biridan totli,  
Tilni yoradi.

Bir tilimin senga bersam,  
Menda qancha qoladi?

Javob: — Agar bitta bo'lakni,  
Menga bersang Shohista,  
Hisobni bil dugona  
Senda qolar to'qqizta.

1-Boshlovchi: — Bildingiz, birin-ketin.  
Hamrangizga ofarin!  
Qani, ayting-chi, sizlar  
Sonlar haqida maqol.

1-o'quvchi: — Sanamay sakkiz dema.

2-o'quvchi: Birniki - mingga, mingniki- tumanga.

3-o'quvchi: Yer haydasang, kuz hayda,  
Kuz haydamasang, yuz hayda.

4-o'quvchi: Bir yigitga qirq hunar ham oz.

5-o'quvchi: Yetti o'lchab, bir kes.

2-Boshlovchi: Balli, zukko bolalar, endi sizlarga topishmoqlar aytaman.  
Sizlar esa, javobini aytasizlar. (Tomoshabinlarga murojaat qiladi.)

1-Boshlovchi: Bo'ylari teng to'rt o'rtoq,  
To'rtoviga bir qalpoq? (stol)

2-Boshlovchi: Ikki ona, har birida besh bola,  
Hammasining oti bir, bular nima? (qo'1 barmoqlari)

1-Boshlovchi: Baliqchi 2 daqiqada 4 ta haliq tutdi, u 12 ta baliqni necha daqiqada tutadi?

(Bu masalani o'qiganda bolalar o'ylamasdan "6 minutda" deb javob beradilar.  
Chunki, 2 daqiqada 4 ta baliq tutsa, 12 ta baliqni 6 daqiqada tutadi.

$12:4=3$

$3*2=6$  kelib chiqadi.

Masalani ikkinchi, uchinchi marta o'qiganda bolalarda masala sharti hoshqacha tasavvur o'yg'otadi. 2 minutda 4 ta baliq tutsada, keyingi 2,4,6, ..., 10.... minutlarda ham boshqa baliq tuta olmasligi mumkinligi, yoki, 3, 4, 5,)

2-Boshlovchi: Bitta tuxum 4 minutda pishishi mumkin, shunday 25 ta tuxumni pishirish uchun ko'pi bilan necha minut kerak.

(Agar bir idishga sig'sa, 4 daqiqa kerak bo'ladi. Idishga nechta tuxum sig'ishiga qarab masalani javobi belgilanadi.)

1-Boshlovchi: Bir kishidan nechta farzandingiz bor deb so'rashgan edi. U bunday javob berdi. "Mening 4 ta o'g'lim bor, bu o'g'illarimdan har birining tug'ishgan 2 ta singlisi bor." Aytingchi, shu kishining nechta farzandi bo'lgan.

(Bu masalaning javobi 6 ta farzand bo'lib, 4 ta o'g'lidan keyin 2 ta qizi bor. Shunda har bir o'g'ilning 2 ta singlisi borligi kelib chiqadi.)

2-Boshlovchi: 4 ta qaynatilgan kartoshkani 5 ta bolaga teng qilib bo'lish mumkinmi?

(Bo'lishi mumkin, kartoshkalarni ezib, teng taqsimlanadi.)

1-Boshlovchi: Ikki ota va ikki o'g'il nonushtada 3 ta tuxum yeyishdi, bunda ularning har biri 1 tadan tuxum edi. Siz buni qanday tushuntirasiz?

(Nabira, ota, bobo. Boboning o'g'li, o'g'liming o'g'li yoki nabiraning otasi, otasining otasi.)

2-Boshlovchi: G'oz ikkala oyog'ida turganda 4 kg keladi, u bir oyog'ida tursa necha kg keladi?

(G'oz bir oyog'ida turganda ikkinchi oyog'ini yig'ishtirib oladi, shunda ikkala oyog'ining og'irligi bir joyga tushadi. Demak, g'oz bir oyog'i bilan turganda ham, ikkinchi oyog'ida turganda ham 4 kg keladi.)

1-Boshlovchi: Balli, bilimdon do'stlar, navbat yana savol-javobga.

Savol: — To'rt harfdan iborat sonlar qaysilar?

Javob: — 2, 4, 6, 7, 40. (qirq)

2-Boshlovchi: Savol: — Ikki harfdan iborat sonlar qaysilar?

Javob: — 3, 10.

1-Boshlovchi: Savol: — Qayin daraxtida 8 ta shox bor. Har bir shoxida 8 tadan olma bo'lsa, hammasi bo'lib nechta olma bor?

Javob: — Qayin daraxtida olma bo'lmaydi.

2-Boshlovchi: Quyoshdirsan, mehr to'la nigohlaring,

Baxt nuridan yashnar go'zal quchog'laring.

Yayrab o'sar gul-u maysa-quyoshiaring.

Shu'lalarga chulg'angan bo'stonim – Vatan!

Borim Vatan, shonim Vatan, jonim Vatan!

1-Boshlovchi: Mardlaring bor, madhi sig'mas kitoblarga,

Jo'rovosdan tinchlik degan xitoblarga.

Oydek yuzing chayay gulu guloblarga,

Sajdagohim, muqaddas iymonim – Vatanim!

Borim – Vatan, shonim – Vatan – jonim Vatan!

2-Boshlovchi: Shuning bilan, "Tinglang sonlar tavsifini" matematik kechamiz nihoyasiga yetdi.

Bayram so'ngida bir ajoyib qo'shiqqa navbat beriladi.

Bahsning maqsadi: O`quvchilarning maktabda olgan bilim va ko`nikmalarini, og`zaki nutqini, hisoblash malakalarini rivojlantirish, mustaqil fikrlash, mantiqiy fikrlash hamda mustaqil ishlashni o`rgatish, yangi o`quv yiliga tayyorlash. Shu bilan bir qatorda Vatanga bo`lgan mehr-muhabbati, do`stlariga, yaqinlariga bo`lgan hurmatini rivojlantirish.

Usul: Bahs –munozara, ikki guruh o`rtasida bellashuv.

1-boshlovchi: Assalom, mustaqil O`zbekistonim!

Assalom, qudratli, nurli bo`stonim.

Sog`lom farzandlaring muborak bo`lsin!

Bizdek farzandlaring doim bor bo`lsin.

2-boshlovchi: Xush kelibsiz mehmonlar

Assalom sizga,

Tabarruk insonlar

Ming ta`zim sizga

Yana bir ta`zim

Dildan ehtirom,

Mo`tabar murabbiy,

Sizga ming salom

1-boshlovchi: Aziz mehmonlar! “Bilimlar bellashganda” deb nomlangan kechamizni ochiq deb e`lon qilamiz.

2-boshlovchi: Bugungi kechamizni boshlashdan oldin ishtirokchilarni guruhlariga ajratamiz.

1-boshlovchi: Bahsda bolalar guruhlariga ajratiladi. Guruhlarga ajratishda “Qushlar inida” enerjayeridan foydalaniladi. (Guruhda ijobiy o`quv muhitini yaratish, o`quvchilarni jipslashtirishga xizmat qiladigan mashqlar-enerjayerlar deb ataladi. Enerjayer-inglizcha “energy” so`zidan olingan bo`lib, “kuch” degan ma`noni anglatadi. Enerjayerlar, asosan, Bahslarda dam olish daqiqasida, lagerlarda esa guruhlariga ajratishda, kayfiyatni ko`tarishda, guruhlarning jipslashishiga, yangi tashkil qilingan guruhda o`zaro do`stona munosabatni yaratishda o`tkaziladi.

“Qushchalar uyda” enerjayeri.

Maqsad: ishtirokchi (o`quvchi)larni diqqat-e`tiborini kuchaytirish, ijodiy muhit yaratish, charchoqni chiqara olish yoki kichik guruhlariga bo`lish.

Ishtirokchilar auditoriya bo`ylab erkin harakat qiladilar. O`qituvchi (trener) boshlovchilik qiladi: “Mana yoz ham keldi.



Ko'p qushlar bizning o'lkalarga uchib kelishadi. Qushchalar qanot qoqib manzillarga yetib keldilar (shunda ishtirokchilar ko'proq qanot qoqib har tarafga harakatlanadilar. O'qituvchi o'quvchilarga: –“Qushlar 3 ta (4, 5, ...) dan inlariga to'planadilar” deydi. Ishtirokchilar, masalan, 4 guruhga bo'linadilar va guruhlarining raqamlari yozilgan stollar atrofiga o'tiradilar.) Shu tarzda guruhlarga ajralishadi. Har bir guruh uchun sardor saylanadi. Bahs davomida guruhlar faoliyatini ana shu sardorlar boshqaradi. Bu o'quvchilarni o'z-o'zini boshqarishga va mustaqillikka o'rgatadi. Shuningdek, har bir o'quvchiningt mashg'ulot jarayonida faol bo'lishiga imkoniyat yaratadi.

2-boshlovchi: Mana guruhlarga ham ajratib oldik.

1-boshlovchi: Bugungi kechamizni boshiashdan oldin, uning shartlari bilan tanishtirib chiqsak. Birinchi shartimiz yangi tuzilgan guruhlarni “Biz kimmiz, kimlar farzandimiz” shiori ostida guruhlar o'zlarini tanishtiradilar.

2-boshlovchi: Guruhlar tayyorlangunicha musiqiy tanaffus qilamiz.

1-boshlovchi: Qodirov Samad ijrosida “Vatan” deb nomlangan qo'shiq eshitamiz. Marhamat, tinglab tomosha qiling.

(Guruhlarni nomlanishida quyidagicha tavsiyalar beramiz.

1-birinchi guruh. Al-Xorazmiy hayoti va ijodi

Abu Abdulloh Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy Xorazmda taxminan 783-yilda tug'ilgan. Al-Xorazmiy «Al-jabr va al-muqobala haqida qisqa kitob» asari bilan algebra faniga asos soldi. Shu asar tufayli olim nomining lotincha shaklida «algoritm» termini paydo bo'lgan. Al-Xorazmiy Bag'doddagi «Bayt ul-hikma» (Donishmandlar uyi)da rasadxona, kutubxona va barcha ilmiy tekshirish ishlariga rahbarlik qildi.

Al-Xorazmiyning 10 ta asari bizgacha yetib kelgan:

1. «Hind hisobi haqida» (Fi hisab al-hind). Bu asarning XII asrda Ispaniya olimi Batlik Adelard arab tilidan lotin tiliga tarjima qildi. Keyinchalik Bonkompani, K.Fogel, I.Sevilskiyler tadqiq qildilar.

Risola 8 ta bobdan iborat bo'lib: 1) natural sonlarni «hind raqamlari» hisoblangan 0,1,2,3,4,5,6,7,8,9 lar yordamida yozish; 2) sonlarni qo'shish va ayirish; 3) ikkiga bo'lish va ikkiga ko'paytirish qoidalari; 4) ko'paytirish amali va uni 9 raqami yordamida tekshirish; 5) bo'lish; 6) kasrlar hisobi; 7) kasrlarni ko'paytirish; 8) musbat sonlardan kvadrat ildiz chiqarish.

Bu risola hisob bo'yicha qo'llanma sifatida Yaqin va O'rta Sharq hamda G'arbiy Yevropaga katta ta'sir ko'rsatdi. Lotin tiliga tarjimasida «al-Xorazmiy» so'zi Algorithmus (Algorismus) deb yozildi va jahon faniga yangi “algoritm” atama sifatida kiritildi.

2. «Al-jabr va al-muqobala haqida qisqa kitob» (Al-kitab al-muxtasar fi hisab al-jabr va-l-muqabala)

Bu asarni XII asrda Ispaniya olimlari Kremonalik Gerardo va Batlik Adelardlar arab tilidan lotin tiliga, keyinchalik Gans va Grantlar ingliz tiliga tarjima qilish asosida o'rgandilar. Bu risola 27 ta bobdan iborat.

3. «Al-Xorazmiy ziji» (ya'ni jadvallari) yoki «Al –Ma'mun ziji».

Bu risola 37 ta bobdan iborat bo'lib, uni XII asrda Ispaniya olimi Batllk Adelard arab tilidan lotin tiliga, keyinchalik X.Zuter nemis tiliga, B. Kopelevich rus tiliga tarjima qildilar.

4. «Astrulyabiyalarni qo'llash haqida kitob»(Kitab al-amal bi-l-astrulabat).Bu risolada astronomiyaga oid 43 ta masala hal qilingan.

5.«Astrulob yordamida azimutni aniqlash» (Ma'rif as-samt bi-l-astrulab). X asrda yashagan Ibn Nadimning «Fixrist» asarida tilga olinadi.

6. «Quyosh soati tekisligida soatni ko'rish haqida» (Amal as-saat fi basit ar-ruham a).

7. «Astrulobni yasash haqida kitob» (Kitab amal as-astrulab).U X asrda yashagan Ibn Nadimning «Fixrist» asarida tilga olinadi.

8. «Quyosh soati haqida kitob» (Kitob ar-ruham a).Bu risola haqidagi ma'lumot Ibn Nadimning «Fixrist»ida bor.

9. «Jo'g'rofiya kitobi» (Kitob surati-l-ard). Mjik tomonidan arab tilidagi matn chop qilingan.

10. «Yahudilar eralari va bayramlari haqida risola» (Risola fi istixroj ta'rix yahud va a'yodihim). Bu risola AQSh olimi E.Kennedi tomonidan o'rganildi.

Al-Xorazmiyning bizgacha yetib kelgan 10 ta risolasidan quydagi 3 ta katta kashfiyot haqida aytish joizdir:

1. «Hind hisobi haqida»gi risolasida o'nlik pozitsion sanoq tizimining oltmishlikdan ustun ekanligini ko'rsatgan va bu asarni lotin tiliga tarjimasi orqali o'nli pozitsion sanoq tizimi tarqalgan.

2. «Al-jabr va al-muqobala haqida qisqa kitob»ida aljabrni astronomiyamng yordamchi qismidan mustaqil fan darajasiga ko'tardi, 6 ta chiziqli va kvadrat tenglamalarni tasniflagan.

3. Al-Xorazmiy o'z shogirdlari bilan orasidagi masofasi 35 km. bo'lgan Tadmor va ar-Rakka shaharlaridan o'tuvchi Yer sharining 1<sup>o</sup> li meridiani uzunligini hozirgi o'Ichovda 111814,64 metr (XIX asrda Bessel110938 metr hisobiagan. Xorazmiy va Besselning o'Ichovlari orasidagi farq 876metrga yaqin) hisoblagan.

Al-Xorazmiy 850-yilda Bag'dodda vafot etgan.

2-birinchi guruh.

Abu Ali Husayn ibn Sino hayoti va ijodi

Abu Ali Husayn ibn Sino 980-yil Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog'ida dunyoga keldi. Ibn Sino 18 yoshga yetganda faqat Buxoroga emas, balki butun Sharqqa mashhur olim va tabib sifatida tanildi. U «Ash-shifo», «Najot» kitobi, «Donishnoma» asarlarida matematikaga oid fikrlarini bayon qilgan.

«Ash-shifo» asari 18 qismdan iborat bo'lib, unda «kvadrivium», ya'ni matematikaga doir bo'limlar: «Qisqartirilgan Yevklid», «Qisqartirilgan «Almagest», «Sonlar fani», «Musiqqa fani» deb atalgan. «Qisqartirilgan Yevklid» bo'limida planimetriyaga doir bo'limi 58 ta'rif, 7 postulat, 5 aksioma va 169 jumladan iborat; stereometriyaga doir bo'limida esa 16 ta'rif va 86 jumla bayon etilgan. «Sonlar fani»



bo'limi arifmetikaga bag'ishlangan bo'lib, u 43 ta'rif va 201 jumlani o'z ichiga oladi. Unda 9 soni yordamida sonlarni kvadratga va kubga ko'tarish amaliari to'g'riligini tekshirish haqida qoidalar berilgan.

Keyin ibn Sino sonlar kvadratini 9 raqami bilan hind hisobi usulida tekshirish masalasini quyidagi qoidalar bilan ifodalaydi:

1. Agar son 9 ga bo'linib, qoldiqda 1 yoki 8 qolsa, u holda bunday sonlarning kvadrati 9 ga bo'limb, qoldiqda 1 qoladi.

Berilgan sonlar  $M$  va  $N$  bo'lsin. Qoidaga ko'ra:  $M=9n+1$ ;  $M^2=(9n+1)^2=81n^2+18n+1=9(9n^2+2n)+1$  ifoda 9 ga bo'linadi, qoldiq 1.

$N=9k+8$ ;  $N^2=(9k+8)^2=81k^2+72k+64=81k^2+72k+63+1=9(9k^2+8k+7)+1$ ;  $9(9k^2+8k+7)$  ifoda 9 ga bo'linadi, qoldiq 1.

2. Agar son 9 ga bo'linib, qoldiqda 2 yoki 7 qolsa, u holda bunday sonlarning kvadrati 9 ga bo'linib, qoldiqda hamisha 4 qoladi.

3. Agar sonni 9 ga bo'lganda, qoldiqda 4 yoki 5 sonlari qolsa, u holda bunday sonlarning kvadrati 9 ga bo'linib, qoldiqda 7 qoladi.

4. Agar son 9 ga bo'linib, qoldiqda 3, 6 yoki 9 qolsa, u holda unday sonlarning kvadrati 9 ga bo'linib, qoldiqda 9 qoladi.

2. «Donishnoma» asarida to'rtta: falsafa, mantiq, fizika, matematika fanlari bayon etilgan. Matematikaga oid bir qismi geometriyaga bag'ishlangan bo'lib, u 12 bobdan iborat.

Ikkinchisi arifmetikaga bag'ishlangan va u 7 bobdan iborat. Asarning birinchi bobi, sonlarning turi va umumiy xossalari haqida. Unda sonlar juft va toqqa bo'linishi, ularning xossalari ko'rsatilgan. Ikkinchi bob juft sonlar haqida. Bu bobda juft sonlarning xossalari, juft-juft sonlar, juft-toq sonlar, ularning xossalari bayon etilgan. Unda juft-juft son shunday sonki, uni ikkiga va hosil bo'lgan sonning choraklarining har birini yana ikkiga va hokazo bo'lish mumkinki, toki oxirida bir somi hosil bo'lsin.

Uchinchi bob toq sonlar haqida. Bu bobda toq sonlarning uch xil shaklda bo'lishi va ularning xossalari bayon etilgan. Bular tub sonlar, murakkab sonlar, o'zaro tub sonlardan iborat.

To'rtinchi bob «zoid», «noqis», va «mukammal» sonlar haqida. Bu bobda sonlar, ularning qiymatlari bilan, shu son bo'luvchilarining yig'indisi bir-biriga tengligi va teng emasligiga qarab, uch xilga bo'linishi va ularning xossalari bayon etilgan.

Beshinchi bob nisbatlar to'g'risida. Bu bobda nisbat, uning ta'rifi «oshirilgan nisbatlar», «yetishmaydigan nisbatlar», ularning xossalari bayon etilgan.

Oltinchi bob tuzma nisbatlar haqida. Bu bob, sonli tuzma nisbatlariga bag'ishlangan maxsus bob bo'lib, bunda mulohazalar sonli misollar ustida yuritiladi.

Yettinchi bob proporsiyalarga bag'ishlangan. Bunda proporsiya, uning turlari va xossalari bayon etilgan.

Ibn Sino shunday yozgan: Ilm — narsalarning inson aqli yordami bilan o'rganilishidir.

Abu Ali Husayn ibn Sino Hamadonda 1037-yilda vafot etgan.

3-guruh: Mirzo Ulug'bek hayoti va ijodi.

Mashhur astronom, matematik, tarixchi, Samarqand rasadxonasining asoschisi va undagi ilmiy maktab rahbari Ulug'bek jahonning eng yirik astronomlari qatoridan joy olgan olimdir.



Amur Temurning harbiy safarlarida, uning oila a'zolari ham birgalikda borishlari odat bo'lib qolgan edi. Sharq tomonga ketayotgan shunday safarlarning birida. Sultoniya shaharida dam olish uchun to'xtagan vaqtda, 1394 yil 22 martda Temurning 17 ga kirgan kicbik o'g'li Shohruhning xotini Gavharshod o'g'il tug'adi, unga Muhammad Tarag'ay deb ism beriladi. Keyinchalik unga berilgan Ulug'bek laqabi uning nomiga aylanib qolgan.

Ulug'bek Temurning bir necha safarlarida, masalan, mashhur Hindiston safarida (1397-1398), g'arbga qilgan safarida (1399-1404) saroy a'zolari bilan birgalikda, bobosini uzatib borgan.

Ulug'bek yoshligidanoq yunon olimlari Platon, Aristotel, Gipparx, Ptolemey, vatandoshlari Farg'oniy, Beruniy, Ibn Sino kabi olimlarning asarlarini o'rgana boshladi. Ulug'bekning o'tkir zehni, doimiy va izchil mutolaasi, uni boyitadi

Ulug'bekni bobosi Temur kabi harbiy yurishlar qiziqirmas edi. Otasi Shohruh, Hirotda (Xuroson davlatining poytaxti, bu davlatga Shohruhning o'zi xokimlik qilar edi) o'z atrofiga ruhoniylarni yig'ib olib erkin fikr egalari ta'qib qilgan bo'lsa, Ulug'bek Samarqandda, o'z atrofiga olimlar va shoirlarni to'plab fan, adabiyot va san'atning taraqqiy etishiga keng yo'l ochib berdi, o'zi tabiiy fanlar bilan bevosita shug'ullanadi.

Ulug'bek yirik olim bo'lishi bilan birga, o'z davridagi fan taraqqiyotiga bosh bo'ldi. Mashhur matematik va astronom olimlarni o'z atrofiga to'plab, ilmiy maktab tashkil etdi.

Ulug'bek rahbarligida 1424-1428 yillarda Samarqandda eng takomillashgan asboblardan birini jihozlangan astronomik rasadxona quriladi. Olim va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur o'z asarida, bu rasadxonaning binosi katta uch oshyonli, juda baland, g'oyat hashamatli bo'lganligini yozadi. Samarqand rasadxonasida erishilgan ilmiy tadqiqotlarning eng yirigi yulduzlar va sayyoralar harakatiga bag'ishlangan "Yangi astronomik jadvallar" ("Zichi jadidi Ko'ragoniy") bo'lib, bu asar o'rta asr astronomiya faning durdonasi hisoblanadi va sharq astronomiya fanining taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shgan mumtoz asardir. Bu asar 1437-yilda yozib tamomlangan.

Astronomiyaning nazariy va amaliy masalalariga bag'ishlangan bu asarda taqvim tuzish bilan bog'liq bo'lgan masalalar: arablar, yunonlar, eron, xitoy va o'yg'ur sanalari, davrlar, yil va oylar, kun va haftalar, sanalarning kelib chiqishi va ularning bir-biriga munosabati, Quyosh va Oyning harakati bayon qilingan. Shuni aytish kerakki, Ulug'bek Quyosh va Oy harakatini to'g'ri hisoblagan, uning bu sohadagi hisoblash natijalari hozirgi hisoblashlardan juda oz farq qiladi. Masalan, ekliptika tekisligining ekvatorga og'maligini Ulug'bek  $23^{\circ} 30' 17''$  deb topgan, nazariy hisoblash bo'yicha bu miqdor  $23^{\circ} 30' 49''$  bo'lishi kerak, demak, bundagi xato

farq  $0^{\circ} 32''$  hisoblanadi. Bu asarning boshqa bo'limida trigonometriyaga oid jadvallar keltirilgan va 1019 yulduzning vaziyati ko'rsatib berilgan. Bu jadvallar o'zining aniqligi bilan kishini hayratda qoldiradi. Masalan, mashhur fransuz olimi, matematik, astronom Laplas shunday deb yozgan: "Ulug'bek-Samarqandda, o'z viloyatining markazida, Tixo Bragegacha mavjud bo'lib kelgan eng yaxshi hisoblangan yangi, yulduzlar katalogi va astronomik jadvallar tuzdi".

Trigonometrik jadvallar tuzish va u bilan bog'liq bo'lgan hisoblashlarni bajarish shubhasiz og'ir ish hisoblanadi. Ulug'bek rasadxonasida uning jadvallarini hisoblagan maxsus hisoblash markazi bo'lib, unda hisoblashlar bilan mashg'ul ko'p sonli matematiklar ishlaganlar va turli hisoblarni aniq bajarishda ular ko'p mehnat sarflaganlar.

1449-yil 27-oktabrda mashhur olim Ulug'bek bir guruh fitnachilar tomonidan vahshiylarcha o'ldirildi. 1941-yil 18-iyunda akademik Qori-Niyoziy rahbarligida Samarqanddagi Temur maqbarasidagi Ulug'bekning qabri ochilgan edi. Ulug'bek o'z kiyimlari bilan ko'milganligi ma'lum bo'ldi. Chunki shahid bo'lgan kishi, shariatga muvofiq shunday ko'milgan. Olimning bo'yin suyaklari o'tkir qilich bilan kesilganligi ma'lum bo'ldi.)

#### 4-guruh: Yevklid hayoti va ijodi.

Yevklid miloddan avvalgi 3 asrda yashagan yunon faylasufi, matematigi. U matematika, optika, mexanika, musiqaga oid asarlar muallifi. Yevklid asli Shir(Livan)lik bo'lib, Iskandariyada yashab, ijod etgan va u yerda o'z ilmiy maktabini yaratgan. Uning mashhur asari «Negizlar»dir. Unda Yevklid o'zigacha Yunonistonda to'plangan boy matematik materiallarni mantiqiy tartibga tushirgan, matematikaning kelgusi taraqqiyotiga asos solgan. «Negizlar» 13 kitobdan iborat bo'lib matematika taraqqiyotida muhim o'rin tutadi. Yevkliddan keyin Gipsikl (mil.avval II asr) va miletlik Isidor (mil. Avval VI asr) «Negizlar»ga XIV va XV kitoblarni qo'shganlar. Yevklid asos solgan geometriya «Yevklid geometriyasi» deb ataladi va unda o'rganiladigan tekislik va uch o'lchovli fazo «Yevklid fazosi» deb yuritiladi.

«Yevklid algoritmi»- ikkita butun sonning eng katta umumiy bo'luvchisini topish, shuningdek ikkita o'lchovdosh kesmaning umumiy o'lchovini topish usulidir.

Raqaamlar evolyutsiyasi.

1,2,3,4,5,6,7,8,9,0 raqamlarni Yevropada arab raqamlari deyishgan. Buning sababi arablar Yaqin Sharq mamlakatlarini bo'ysundirgandan so'ng bir muddat yunon harfiy raqamlaridan foydalanganlar. Keyin VIII asr oxiri IX asr boshlarida arablarning o'z harfiy raqamlari — abjad hisobi tarqaladi. Lekin IX asrning birinchi yarimidayoq hindlarning ta'siri natijasida sharqiy arab raqamlari va nol yuzaga keladi. Bu raqamlarni tadqiqotchilar hindlarning brahmi raqamlarining modifikatsiyasi deb hisoblashadi. Deyarli shu vaqtning o'zida G'arbiy Afrika va Pireney yarim orolida g'arbiy arab raqamlari — «g'ubor» tarqaladi.

Hind – arab raqamlari Yevropada paydo bo'lishi X asrdan boshlab Ispaniya orqali apekslar shaklida o'tgan. G'ubor raqamlari Ispaniyaga Sharq bilan savdo munosabatlari tufayli yetib kelganligi ehtimol. Yevropada g'ubor raqamlari yevropa

abaklarida apekslar shaklidagi jetonlarga almashtirildi. Yevropadagi eng qadimgi raqam Shlmoliy Ispaniyadagi Albelda monastirida topilgan 976-yilga taalluqli qo'lyozmada keltirilgan. Unda nol belgisi yozilmagan. Keyingi asrlarda arab raqamlari qo'lyozmalarida ko'proq uchray boshlaydi va XV asr oxirlariga kelib, G'arbiy Yevropada tarqaladi. Bunda arabcha arifmetik asarlarning va ayniqsa Xorazmiy risolalarining lotin tiliga qilingan tarjimalari katta ahamiyat kasb etdi.

O'zbekcha «raqam», ruscha «sifra» arabcha «as-sifr» so'zidan kelib chiqqan bo'lib «hech narsa», «bo'sh» ma'nosini anglatadi. Keyinchalik «as-sifr» so'zi lotincha «cifra» ko'rinishda qoldirildi, o'nta 0,1,2,3,4,5,6,7,8,9 belgilarni raqamlar deb atashdi. Nol sonni hind olimlari kashf etgan va uni «suniya» deb nomlashgan.

“Kim chaqqon?” deb nomlanadi. (Bolalar berilgan allomalarimiz nomlarini guruhlariga qo'yib, ular haqida ma'lumotlar beradi.)

1-boshlovchi: Mana guruhlarning chiqishlarini ham tomosha qilib oldik.

Hakamlar guruhlar ballarini qo'yguncha navbatni bir dilrabo qo'shiqqa beramiz. Marhamat!

2-boshlovchi: Ikkinchi shartimiz “Tezkor savol-javoblar” deb nomlanib, boshlovchilar tomonidan belgilangan vaqtda, bir xil savollar beriladi.

1-boshlovchi: 1-guruhga savollar beradi va savollarga javoblarni belgilab boradi.

1 dan 49 ta ortiq va 100 dan 50 dan kam bo'lgan sonni ayting.

2. Karim, Salim, Sattor paxta terishga borishdi. Ular tergan paxtalarni tarozida o'lchashdi. Karimning tergan paxtasi 19kg, Salimning tergan paxtasi 17 kg chiqdi. Sattor esa paxtasini o'lchamasdan to'daga ag'darib yubordi. Karim bilan Salim "o'lcha " degancha qolaverishdi, chunki ular kim ko'p paxta terganini bllmoqchi edilar. Salim Sattordan o'pkalagan edi, Karim: "Hozir kim qancha paxta terganini bilib olamiz "- dedi. U to'dadagi paxtalarni qopga joylashtirdi va tarozida tortdi. Hamma paxta 60 kg chiqdi. Sattor qancha paxta terganini bolalar qanday qilib bilgan?

3. 10 ta o'nlik 1 dan qancha birlik ortiq?

4. Bir so'm yarim so'mdan qancha ortiq?

5. 5 litr suv 3 litr suvdaa necha kg og'ir?

6. Otasi o'g'liga 320 so'mga palto sotib olmoqchi bo'ldi va sotuvchiga 508 so'mlik uzatdi.

Siz qancha qaytim oldimgiz? - deb so'radi o'g'li.

Men bitta 100 so'mlik, 50 so'mlik va bir necha 10 so'mlik oldim.

Ayting-chi, otasi qaytimiga necha 10 so'mlik olgan.

7. 54,43,26,47,74, sonlarni eng qulay usul bilan qo'shing.

8. 4 haftaga teng bo'lgan oy bormi?

9. Menda bir, ikki, uch va besh so'mliklardan 99 so'm bor edi. Ularning soni o'zaro teng. Hammasi bo'lib nechta qog'oz pul bo'lgan?

10. Soat 12da soatning ikkala mili ustma-ust kelib qoladi. Ular yana necha soatdan keyin ustma-ust kelishi mumkin?

2-boshlovchi: 2-guruhga savollar beradi va savollarga javoblarni belgilab boradi.

1. Uchta 5 raqam va amal ishoralari yordamida 5ni yozing.

2. Uchta 5 raqam va amal ishoralari yordamida nolni yozing.

3. Uchta 5 raqam va amal ishoralari yordamida qanday qilib 2 ni yosh mumkin?

4. Ikki son yig'indisi birinchi songa qachon teng bo'ladi? (Agar birinchi qo'shiluvchi nolga teng bo'lsa)

5. Ikki son yig'indisi birinchi ikkinchi songa qachon teng bo'ladi? (Agar birinchi qo'shiluvchi nolga teng bo'lsa)

6. Uchta 3 raqami va amal ishorasi bilan 36ni qanday hosil qilish mumkin?

(Javob :  $33+3=36$ .)

7. Bo'linma bo'limuvchiga qachon teng bo'ladi? (Agar bo'limuvchi 1 ga teng bo'lsa)

8. Ikki xonali sonning o'nlar xonasidagi raqam 6. Birlar xonasidagi raqam undan ikki marta ortiq. Bu qanday son? (Javobi: 68 )

9. Ikki xonali sonning o'nlar xonasidagi raqam birlar xonasidagi raqam ikki marta ortiq. Bu qanday son? (Javobi : 84,63, 42, 21.)

10. Ikki xonali sonning o'nlar xonasidagi raqam o'nlar xonasidagi raqamdan uch marta ortiq. Bu qanday son? ( Javobi: 13,26,39, ... )

1-boshlovchi: 3-guruhga savollar beradi va savollarga javobiarni belgilab boradi.

1. Ikki xonali sonning o'nlar xonasidagi raqam birlar xonasidagi raqamga teng. Bu qanday son? ( Javobi: 84,44,...)

2. Uchta gugurt cho'pni sindirmay 4 raqamni hosil qiling. (Javobi IV)

3. 6ta gugurt cho'pidan bir xil kattalikdagi 4ta uchburchak yasang.

4. 9ta gugurt cho'pidan tarozi yasang.

5. Agar kechasi soat 12da yomg'ir yog'adigan bo'lsa u holda 72 soatdan so'ng quyosh chiqib turishi mumkinmi?

6. Uchta ot 30 km masofaga chopib bordi. Har bir ot necha km dan chopgan?

7. Soat strelkasi bir haftada necha marta to'la aylanadi?

8. To'g'ri to'rt burchakning perimetri 40 dm ga teng. To'g'ri to'rt burchakning tomonlarini aniqlang.

9. Yilning birinchi yarmida kunlar ko'pmi yoki ikkinchi yarmida?

10. Ota 10 ta qovun sotib oldi. U har juft qovungga 245 so'm dan to'ladi. Ota hammasi bo'lib qancha pul to'lagan?

2-boshlovchi: 4-guruhga savollar beradi va savollarga javoblarni belgilab boradi.

1. Ikki o'quvchi 5 soat shaxmat o'ynashadi. Har bir o'quvchi necha soat shaxmat o'ynagan? ( Javobi: 5 soat)

2. Kassaga kitob uchun 200 so'm va yana kitob narxini yarmiga pul to'ladi. Kitob qancha turadi?

3. Agar soat qo'ng'irog'i har yarim soatda jiringlaydigan bo'lsa, u sutkasiga necha marta jiringlaydi?

4. Yarim sutka necha soat bo'ladi? Chorak sutkachi?

5. Eng katta uch xonali son eng kichik uch xonali sondan qancha ortiq?

6. Jamoa xo'jaligi dalasida tovuqlar va qo'ylar yuribdi, ularning hammasi 30 bo'lib, oyoqlari 84ta. Dalada nechta tovuq va qo'y yuribdi?

7. Qiziqarli hisob:  $1+2+3+4+5+6+7+8+9+10$ . Bu sonlarning yig'indisini qisqa va tez toping.

8. Ikki xonali sonning o'nlar xonasidagi raqam 7, birlar xonasidagi raqam undan uchta kam, bu qanday son? (Javobi: 74.)

9. Ikki cho'pning necha uchi bor? Ikki yarimta cho'pning-chi?

10. Samolyot Toshkentdan Buxoroga 1 soati 10 minutda uchib boradi, qaytishda esa shu yo'lni 70 minutda uchib o'tadi. Samolyot borishda tez uchganmi yoki qaytishdami?

1-boshlovchi: 3-shartimiz quyidagicha guruhlardan bittadan o'quvchi taklif etamiz. Ishtirokchilarni ko'zlari bog'lanadi. Ularga doskadan joy ajratadilar yoki har biriga marker va vatmanlar beradi. Geometrik shakllarning nomlarini aytiladi.

Masalan: to'rtburchak, uchburchak, romb, kvadrat, aylana, trapetsiya.

2-boshlovchi: Navbat ajoyib qo'shiqqa. (Havaskor bolalar ijrosida qo'shiq eshitiladi.)

Ishtirokchi guruhlarning olgan ballarini baholash uchun navbat juyri a'zolariga beriladi. Kecha so'ngida g'oliblar munosib taqdirlaadi.

## ZUKKOLAR BAHSI

B.S.Abdullayeva

Bahsning borishi

O'qituvchi: Qani bolajonlar Bahsimizni boshlaymiz. Bugungi Bahsimiz har doimgidan o'zgacha bo'lib, "Zukkolar bahsi" deb nomlanadi.

Bolalar hozir o'lkamizda kumush qish fasli. Shuning uchun men bugungi Bahsimizga qishning erkato'y qizi qor malikasini ham taklif etganman. Marhamat uni kutib olamiz.

Shu payt eshik taqillib, musiqa sadosi ostida Qor malikasi kirib keladi. Qo'lida qor parchalari to'la savatcha.

Qor malikasi: Assalomu Alaykum, aziz ustozlar va o'quvchilar. Bugun 3-A sinfda "Zukkolar bahsi" bo'lishini eshitib, savatchamni turli -tuman qor parchalariga to'ldirib, huzuringizga kelaverdim. Qor parchalarida har bir guruh uchun savol va topshiriqlar yozilgan. Siz shu topshiriqlarni bajarib, o'z zukkolingizni ko'rsatasiz degan umiddaman. (Qor malikasi o'z o'rniga borib o'tiradi)

O'qituvchi: Hurmatli ustozlar va Qor malikasi. Bolalar bugungi bellashuvda guruhlariga bo'linib, ishtirok etishga shay bo'lib turishibdi. Hozir sizlarni ular bilan tanishtiramiz.

1. “Humo” guruhi. Guruh sardori -Dilfuza
  2. “Orzu” guruhi Guruh sardori - Akbar
  3. “Lochin” guruhi Guruh sardori -Asadbek
  4. “Zukko” guruhi Guruh sardori -Umida
  5. “Chaqmoq” guruhi Guruh sardori –Samandar
- Ushbu guruhlar o‘zlarini tanishtiradilar.

“Humo” guruhi: Yurtim O‘zbekistonning o‘z o‘rni bor jahonda, Xumo qushi erkin, shod uchar moviy osmonda

“Orzu” guruhi: Sen ilm cho‘qqisini kuching-la zabt etarsan, Kelajakka, albatta, orzuyingga yetarsan.

“Zukko” guruhi: Zukkolik fazilati – bola ziyinati

“Lochin” guruhi: Ziyrak lochin qoqilmas, Qoqilsa ham yiqilmas.

“Chaqmoq”guruhi: Chaqmoq kahi chaqnamiz, Bellashuvdan qo‘rqmaymiz

O‘qituvchi: Mana guruhlar bilan tanishib oldik. Endi bugungi bellashuvimizni boshlaymiz. Bugungi bellashuvimiz 5 ta shartdan iborat. Har bir shartda bolalar turli xil vazifa va topshiriqlarni bajaradilar.

1-shartimiz “Vatanim - O‘zbekiston” deb nomlanadi. Bunda guruhlariga vatanimiz haqida savollar beriladi. Ushbu savollarga bolalar javob beradilar.

2-shart mantiqiy topshiriq deb nomlanadi. Ushbu shartda o‘quvchilarga mantiqiy topshiriqlar beriladi. Bolalar ushbu topshiriqni bajarishlari lozim.

3-shart Tenglamani yechish va ularni taqqoslash deb nomlanadi. Ushbu shartda o‘quvchilarga 2 tadan tenglama beriladi. Bolalar ushbu tenglamani yechish bilan birgalikda ularning natijalarini taqqoslaydilar.

4- shart Masala shartini rasmlar orqali tasvirlash va yechish deb nomlanadi. Ushbu shartda guruhlariga 1 tadan masala tarqatiladi. Ular ushbu masalaning rasmini chizadilar va yechimini topadilar. Masalalar yechimi 2 amal bilan yechiladi.

5-shart. Sardorlar bellashuvi. Bunda har bir guruh sardorlari Qorqiz tomonidan tayyorlab kelingan topishmoqlarga javob beradilar.

Sardorlar bellashuvi vaqtida guruhlariga alohida topshirig‘imiz bor. Bu hozircha sir.

O‘qituvchi: Mana bugungi bellashuvimizning shartlari bilan tanishib chiqdik. Ushbu shartlarda berilgan topshiriqlarni guruhlar tomonidan qanday bajarilganligini tekshirib borishlari uchun hakamlar ha‘yati a‘zolari tuzilgan. Hozir sizlarni ular bilan tanishtirib o‘tamiz. \_\_\_\_\_


Mana hakamlar hay‘ati bilan tanishib oldik. Endi bellashuvimizni boshlaymiz.

Har bir shart alohida-alohida berib boriladi.

HUMO guruhiga beriladigan topshiriqlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi qachon mustaqillikka erishgan?
2. Mantiqiy topshiriq.

Kvadrat ichidagi sonlarni qo'shing. Yig'indisini shunday songa ko'paytiringki, natija uchburchaklar ichidagi songa teng bo'lsin. 3-uchburchakda qanday son yashiringan?



3. Tenglamani yeching va taqqoslang

$$X:9=8$$

$$6*X=54$$

4. Masala.


Katta idishga 24 kg, kichik idishga undan 2 marta kam bodring tuzlandi. Ikkala idishga qancha bodring tuzlangan?

“ORZU” guruhiga beriladigan topshiriqlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi qachon qabul qilingan?

2. Mantiqiy topshiriq.

Kvadrat ichidagi sonlarni ayiring. Ayirmani shunday songa ko'paytiringki, natija uchburchaklar ichidagi songa teng bo'lsin. 3-uchburchakda qaysi son yashiringan?



3. Tenglamani yeching va taqqoslang

$$9*X=72$$

$$49:X=7$$

4. Masala.


9 ta bir xil idishga 27 litr o'rik murabosi solindi. 8 ta shunday idishga necha litr murabbo solish mumkin?

“Zukko” guruhi uchun beriladigan topshiriqlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qachon qabul qilingan?

2. Mantiqiy topshiriq.

Kvadrat ichidagi sonlarni qo'shing. Yig'indini shunday songa ko'paytiringki, natija uchburchaklar ichidagi songa teng bo'lsin. 3-uchburchakda qanday son yashiringan?



3. Tenglamani yeching va taqqoslang

$$x + 160 = 360$$

$$300 + x = 600$$

4. Masala.


Bog'da har birida 8 tupdan 7 qator olma daraxti bor. Olma daraxtlari olxo'ri daraxtidan 37 tup ortiq. Bog'da necha tup olxo'ri daraxti bor?

“LOCHIN” guruhi uchun beriladigan topshiriqlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'i qachon qabul qilingan?

2. Mantiqiy topshiriq.

Kvadrat ichidagi sonlarni qo'shing. Yig'indini shunday songa bo'lingki, bo'linma uchburchaklar ichidagi songa teng bo'lsin. 3-uchburchakda qanday son yashiringan



3. Tenglamani yeching va taqqoslang

$$18 : x = 6$$

$$x * 6 = 30$$

4. Masala.


Buvida 34 dona konfet bor edi. Konfetlarni nabiralarga 6 tadan bo'lib berdi va unda yana 4 dona konfet qoldi. Buvining nechta nabirasi bor?

“CHAQMOQ” guruhi uchun beriladigan topshiriqlar

1. O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi qachon qabul qilingan?

2. Mantiqiy topshiriq.

Kvadrat ichidagi sonlarni ayiring. Ayirmani shunday songa ko'paytiringki, ko'paytmalar uchburchaklar ichidagi sonlarga teng bo'lsin. 3-uchburchakda qanday son yashiringan?



3. Tenglamani yeching va taqqoslang

$$x+6=81$$

$$50-x=18$$

4. Masala.

Bir mashinada 25 ta, ikkinchi mashinada unda 3 marta ortiq tarvuz bor. Ikkala mashinada nechta tarvuz bor?

Har bir guruh tomonidan masala va misollar yechib bo'lingach, hay'at a'zolariga topshiriladi. Hay'at a'zolari guruhlar ishini baholagunlariga qadar sardorlar bellashuvi o'tkaziladi.

Ularga 10 tadan test topshiriqlari topishmoqlar beriladi. Sardorlar test topshiriqlarini yechgunlariga qadar, barcha guruh a'zolari bilan "Quruvchi" o'yini o'tkaziladi yoki ular bilan quyidagi topishmoqlar beriladi.

1. Bir otada besh o'g'il (qo'l va barmoqlar)

2. Bir narsa bor ko'p asl, Seni etar mustaqil

U ilmingni boyitar, Kamroq bo'lsa koyitar

O'zingda ham bordir bil, Boshingdagi bu ..... (aql)

3. Ikki aka uka yashaydi, Bir birini ko'rmaydi (ko'zlar)

4. Kichik bir maydonchada, pirp'irar ikki chiroq

Uning qoq o'rtasidan? Kesib o'tgan katta tog' (burun va ko'z)

5. Bir suruv qo'yim bor sanab bo'lmaydi (tishlar)

6. To'nkarilgan stulga o'xshab ketar bo'y basti

Oti yaxshi to'rtta harf besh uning yaqin do'sti (4 somi)

7. Chorrahaning o'rtasida uch ko'zli sehrgar osiliq turar

Hech qachon qaramaydi, Uch ko'zi bilan baravar (svetofor)

8. Qizil yuzli bir pari, yerr tagida zindonda

9. Mayda o'rib sochlari, Ochiq yalang maydonda (sabzi)

10. Bir piyolada ikki xil sharbat (tuxum)

11. Rassom chizar o'xshatib,

Yuk ko'targich ilmoqqa

U Muallim sovg'asi

Bilimdon har o'rtoqqa (5 soni)

Bolalar topishmoqlar javoblarini topadilar.

O'qituvchi: Endi navbatni hakamlar hay'ati a'zolariga beramiz.

Hayat a'zolari baholarini e'lon qlladi. G'olibiar maxsus faxriy yorliq va sovg'alar bilan taqdirlanadi. Ularga sovg'alarni Qor malikasi taqdim etadi.

O'qituvchi: Hurmatli bolalar! Bugun Zukkolar bellashuviga kelgan qor malikasining ketadigan vaqti bo'lib qobdi. Endi navbatni Qor malikasiga bersak.

Qor malikasi:

Ey, zukko bolajonlar,

Mehri daryo ustozlar,

Bugun mehmonga kelib,

Zukkolingiz ko'rib,

Bir jahon quvonch oldim,

Hayajondan lol qoldim,

Sizga omad tilayman,

Hani saodat tilayman,

Doimo o'ynab, kuling

Xayr, endi sog' bo'ling

Xayr, o'quvchilar.

Yangi yil bayramida ko'rishguncha.

O'qituvchi: Mana bugungi Zukkolar bellashuvimiz o'z nihoyasiga yetdi. G'oliblarni yana bir bor tabriklaymiz. Ko'rishguncha xayr.

## QUVNOQLAR VA ZUKKOLAR KLUBI

Bolalar 2 guruhga bo'linadi. Ayrim bolalar kuzatuvchi bo'lib qolishi mumkin. O'qituvchi va yuqori sinf o'quvchilaridan hakamlar tayinlanadi. Guruhlar bir birlarini tabriklagandan keyin o'yin boshlanadi.

Guruhlar uchun qog'oz varag'iga yoki doskaga misollar yozib qo'yiladi. Misollarning soniga qarab har bir guruhdan bolalar ajratiladi. Misollarning yechimida tezlik va aniqlik hisobga olinadi hamda ballar (ochkolar) beriladi.

I. Kerakli sonlarni va ishoralarni qo'ying.

$$20 + \square + \square = 70$$

$$\square + 21 + \square = 60$$

$$A + 35 + A = 65$$

$$\square + \square - 10 = 40$$

$$\square + \square + 45 = 85$$

$$86 - \square - \square = 46$$

$$\square + \square + \square = 90$$

$$A + A + A = 75$$

$$12 \dots 16 \dots 8 = 36$$

$$13 \dots 20 \dots 17 = 50$$

$$49 \dots 9 \dots 19 = 21$$

$$28 \dots 8 \dots 80 = 100$$

$$2 \dots 0 \dots 15 = 18$$

$$35 \dots 15 \dots 0 = 50$$

$$61 \dots 21 \dots 40 = 80$$

$$80 \dots 40 \dots 12 = 52$$

$$76 \dots 24 \dots 76 = 76$$

$$38 \dots 17 \dots 38 = 17$$

## II. Topishmoqlar.

Birinci guruhga:

1. Bo'ylari teng to'rt o'rtoq,  
To'rtoviga bir qalpoq.  
Ikki aka-uka oldinda,  
Boshqa ikkovi quvlab boradi. (Stol)
2. Yetti aka-ukaning bittadan singlisi bor. Ularning hammasi nechta? (8ta)

Ikkinchi guruhga:

1. Mening sakkizta oshnam,  
Hammasi ham mendan kam,  
Sen o'ngacha sanasang,  
Meni aytmay qo'yaysan. (To'qqiz)
2. 7kg jun og'irimi yoki 7kg temirmi?

## III. Hakamlar a'zolarining guruh a'zolariga beradigan savollari:

Birinci guruhga beriladigan savollar:

1. Yetti og'a-ini, baravardir boshlari, boshqachadir otlari. Bu nima? (Bir xaftaning kunlari)
2. Uchta 2 raqami va amal ishoralari yordamida 24 sonni yozing? ( $22+2=24$ )  
Ikkinchi guruhga beriladigan savollar:
  1. Bir daraxtda 12ta shoh bor. Har bir shoxda 30ta barg bor. Har bir bargning bir tomoni oq, bir tomoni qora. Bu nima? (Yil, oy, sutka, kun va tun)
  2. Kunlarning nomida chislolarni aytmadan ketma-ket besh kunni aytib bering? (o'tgan kun, kecha, bugun, erta, indin)

## IV. Guruh a'zolarining bir-birlariga beradigan savollari:


Oltita gugurt cho'pidan bir xil kattalikda 4ta uchburchak yasang.  
9ta gugurt cho'pidan tarozi yasang.

Yillarning birinchi yarmida kunlar ko'pmi yoki ikkinchi yarmidami?

Agar soat qo'ng'irog'i har yarim soatda jiringlaydigan bo'lsa, u sutkasida necha marta jiringlaydi?

Rasmda ko'rsatilgan figurada nechta uchburchak bor?

Bu figurada nechta to'rtburchak bor?




## V. Har bir guruh Vatan to'g'risida bittadan she'r aytadi.


## VI. Bo'sh kataklarni to'ldiring (o'rtadagi son yig'indisini ko'rsatadi)

Birinci guruhga

Ikkinchi guruhga



4		2
	9	
		3



	3	
	7	2
	4	

Hakamlar yakun yasaydilar.

## RAQAMLAR MAMLAKATIDA

Raqamlar mamlakatida

Tadbirning maqsadi:

1. O'quvchilarning ko'paytirish va bo'lish yuzasidan olgan bilimlarini mustahkamlash, misol va masalalar yechish malakasini o'stirish.

2. Iqtisodiy va ekologik tarbiya berish. Ularda do'stlik, bir-biriga hurmat hissini tarbiyalash.

3. O'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish.

- Assalomu alaykum, bolajonlar. Meni tanidingizmi?

— Mening ishim — hisob-kitob

Hamda berish nuri oftob.

Ishlamasam agar bir kun,

Dunyo bo'lar zim-ziyo tun.

O'rgan meni erta-yu kech,

«Yomon» baho olmagin hech.

Kimki bilsa meni a 'lo,

U bilimli hamda dono.

«Matematika» kitobi o'quvchilarga test topshiriqlari tarqatadi.

(Shu choq eshik taqillab, ertakchi momo kirib keladi).

Ertakchi momo: - Assalomu-alaykum, bolajonlar. Kichkintoylar huzurida bo'lib, biroz kechikdim, buning uchun uzr.

Bolalar: - Ayni vaqtida keldingiz. Qani, marhamat!

Ertakchi momo:- Bolalarim, ertak eshitishga tayyormisizlar? Bo'lmasa, quloq solinglar.

Qadim zamonda, tog'lar ortida, dengiz tomonda, raqamlar mamlakati bo'lgan ekan. Unda juda ham inoq sonlar yashagan ekan.

Kunlardan bir kuni, ular uzoq bir yurtda Matematika mamlakati va uning odil shohi borligini eshitib qolishibdi. Shoh o'z xizmatiga barcha raqamlarni taklif etibdi. Raqamlarning hammasi shoh xizmatini bajarishga rozi bo'libdi. Raqamlar mamlakati bilan Matematika shohi davlati orasida juda katta vodiy bor ekan. Bu vodiyda esa 4 ta daryo bo'lib, ularning nomi «Qo'shish», «Ayirish», «Ko'paytirish» va «Bo'lish» ekan.

Raqamlar qanday qilib Matematika shohi mamlakatiga borishni maslahatlashishibdi. Ular hammalari birgalikda borishga qaror qilibdilar, chunki shunday qilinsa, har qanday qiymchilikni oson yengish mumkin, ekan-da.

Ertalab quyosh o'zining zarrin nurlarini yerga sochib, atrof yorisha boshlaganda raqamlar yo'lga chiqishibdi. Ular uzoq yurishibdi va, nihoyat, «Qo'shish» daryosi bo'yiga yetib kelishibdi. Barcha raqamlar daryo bo'yiga yig'lishibdi, daryo suvidan ichib, chanqog'ini bosmoqchi bo'lishibdi, ammo "Qo'shish" daryosi ularga suv bermabdi. «Agar suv ichmoqchi bo'lsangiz, avval, mening quyidagi shartimni bajarishingiz lozim. Juft-juft bo'lib saftaning va qo'shiling, shundagina suv ichasizlar», debdi.

Shartga ko'ra bir o'quvchi chiqib magnit taxtasidagi jadvalni to'ldiradi.

10	2	4	3	5	1	6	8	9	7

Qolgan bolalar bilan qo'shishga doir «Son ketidan son kelar» o'yini o'ynaladi. Bu o'yinda bir o'quvchi qo'shishga doir misol aytadi, javobi necha chiqsa, boshqa o'quvchi o'sha javobdan boshlab yana misol aytishda davom etadi.

Masalan :

$$15+32=47$$

$$47+23=70$$

$$70+20 = 90 \text{ va hokazo.}$$

Ertakchi momo:- Bolalar, matematik diktantni ham to'g'ri bajara olsak, «Qo'shish» daryosi raqamlarga suv beradi.

38 ni 22 ta orttiring va 50 taga kamaytiring; 80 ni 50 ta kamaytiring va 30 ta orttiring.

- Raqamlar suv ichib, yo'lga tushishibdi. Quyosh yana ham qattiqroq qizdiribdi, raqamlar horib-tolib, zo'rg'a «Ayirish» daryosi bo'yiga yetib kelishibdi. U daryo ham chanqagan raqamlarga o'z shartini qolibdi. Ayirishga doir misollarni to'g'ri yechsangiz, suv beraman, debdi u.

Quyidagi jadval ekranga tushiriladi va bolalarga uni mustaqil! Toldirish topshiriladi.

B	25	48	77	0
90-b				

Topshiriq bajarilgach, misollar javoblari tahlil qilinadi.

Ertakchi momo: - Barakalla, bolalar, raqamlarga juda yaxshi yordam berdingiz. Shunday qilib, raqamlar Matematika shohi mamlakatiga qarab yurishni davom ettirishibdi. Olisdan «Ko'paytirish» daryosi ko'rinibdi. Bu daryo ham ularga ko'paytirishga doir misollar yechish shartini qo'yibdi. Mustahkamlash uchun mashqlardan 1-4-6-misollarning ko'paytirishga doirlari yechiladi.

1-misol.

$$2 \times 9 - 9$$

$$2 \times 7 - 8$$

$$2 \times 8 - 7$$

$$2 \times 4 + 73$$

$$2 \times 5 + 56$$

$$2 \times 6 + 35$$

4-misol.

$$3 \times 5 + 64$$

$$3 \times 7 + 15$$

$$3 \times 6 - 11$$

$$3 \times 2 + 90$$

$$3 \times 8 - 16$$

$$3 \times 3 - 9$$

6-misol.

$$X \times 3 = 24$$



Bu tenglamani mustaqil ish qilib berish mumkin.

Ertakchi momo:- Raqamlar suv ichib, yana yolga tushishibdi. Yo'1 yurishibdi, yo'1 yursa ham mo'1 yurishibdi. Endi oldilaridan «Bo'lish» daryosi chiqib qolibdi. Raqamlar ko'p yurib chanqagan ekanlar. Suv so'rashsa, u ham o'zining shartini qo'yibdi: «Bo'lishga doir misollarni yechib berasizlar, keyin suv beraman».

Mustahkamlash uchun mashqlardan 3-5-6-misollarning bo'lishga doirlari yechiladi.

3-misol.

$$16 : 2 + 7$$

$$18 : 2 + 18$$

5-misol.

$$27 : 3 - 9$$

$$24 : 3 + 56$$

$$(15 + 3) : (76 - 55)$$

6-misol.

$$21 : x = 3$$

Ertakchi momo: - Barakalla, bolalar. Sizlarning yordamingiz bilan raqamlar Matematika shohi mamlakatiga eson-omon yetib borishibdi va u yerda ahil bo'lib yashay boshlabdilar.

«Matematika» kitobi: - Bolalar, endi men ham sizlarning bilimingizni sinab ko'rmoqchiman. Tadbirlikdagi 8-masalani yecha olsangiz, sizlarga qoyil qolardim.

Masala sharti o'qitiladi, tahlil qilinadi va qisqacha sharti yozilgan lavha xattaxtaga ilinadi.

1. yashikda – 8 kg pomidor

2- yashikda – 4 kg ortiq pomidor — jami?

Yechilishi:  $8 + 4 = 12$ ,  $8 + 12 = 20$ . Javob:20 kg

Pomidor va uning salomatlik uchun foydasi haqida o'tkazilib, o'quvchilarga iqtisodiy ekologik tarbiya beriladi.

«Matematika» kitobi: Rahmat, bolajonlar. Endi savollarimga ham javob olsangiz, Matematik. Sovg'alariga ega bo'lasiz.

1. Bitta tuxum 4 minutda pishadi, 2 ta tuxum-chi?

2. Uyda 3 ta chiroq yonmoqda, 1 tasini o'chirsak, nechta chiroq qoladi?

3. Ikki aka-uka yashaydi, bir-birini ko'rmaydi. Bu nima?

Tadbir jarayonida o'quvchilarga tarqatilgan testlar yig'ib olinadi va natijalari qo'yib chiqiladi. Faol bolalar rag'batlantirilib, baholanadi. 7-misolning ko'paytirish va bo'lishga doirlari uyga vazifa qilib beriladi.

«Matematika» kitobi: Rahmat, bolajonlar! Siz zukko bilimdon ekansizlar. Men bundan juda xursand bo'ldim.

Ertakchi momo:- Mening aziz bolajonlarim, ertagim davomida siz aqlingizni charxlab, bilimingizni oshira borib, o'zingizni hozir javobligingiz bilan meni lol qoldirdingiz. Kelgusida ham sizlarga bundan-da qiziqarli ertaklar aytib berishga va'da beraman. Hozircha xayr. (Ertakchi momo va «Matematika» kitobi xayrlashib, chiqib ketishadi).

## MATEMATIK BILIMLAR KECHASI

Sahna sharlar, katta-kichik o' lchamdagisonlar va har xil matematik shakilar bilan bayramona bezatilgan

1-Boshlovchi: - Assalomu alaykum, aziz ustozlar, burmatli mehmonlar va qadrlri tengdoshlar.

2-Boshlovchi: - Bugun bizning litseyimizda katta bayram, matematika to'garagi qatnashchilari ishtirokida matematik kecha tashkil qilingan.Shu kechani siz bilan birgalikda tomosha qilamiz.

1.Shart.

Endi sahnaga "Beruniy" guruhini taklif etamiz.

1-O'quvchi.

Assalomu alaykum ey aziz do'stlar,  
Mard yigitlar, sho'x barno qizlar.  
Zehnimiz kuchini ishga solgani,  
Bizning bilimimiz sinab olgani.  
Sizlar birlasbib bir oilaga,  
Tashrif buyuribsiz musobaqaga.  
Kelinglar azizlar bahsga biz tayyor,  
Sizga ham bizga ham bo'lsin omad yor!  
Siz aziz ustozlar keling kuzating,  
Ilmimiz yanada bo'lsin ziyoda,  
Parvoz qilaylik bizlar samoda.

2.O'quvchi.

Matematika fani yuksalmoqda kun sayin,  
Bo'limlari xilma-xil qay birini aytayin.  
Qancha-qancha muammo hal etilgan ushbu on,  
Kompyuter savodi quloch ochmoqda chunon.

3.O'quvchi.

Zamonlarning zamomida,  
Rivojlangan yetilgan.  
Al-Xorazmiy, Beruniy, Ulug'beklar boyitgan,  
Shu ajoyib fan bizga, olam sirini o'rgatgan.

4.O'quvchi.

Siz yaratgan mashhur fanni,  
Biz ham sevib qolganmiz.  
Ixlos bilan o'qib uni,  
Ancha bilib olganmiz.

5.O'quvchi.

Ruxsat bering boshlamoqqa matematika bahsini,  
Turli-tuman savol bilan o'ylataylik barchani.  
Ta'zim sizga, buyuk fanga asos solgan bobolar,  
Ta'zim sizga, nomi dilda qolgan bobolar.

6.O'quvchi.

Oddiy yer yuzidan to kosmik fazogacha,  
Kundalik turmush, hayot, quyosh, suv, havogacha,  
Hisob-kitobsiz yashab bo'lmas hech qachon,  
Matematika fani go'zallikka boy juda.

7.O'quvchi.

Eslatay Beruniyning durdona so'zim,  
Hisob-kitob ochmish aqlning ko'zim.  
Matematika fanlar podshosidir,  
Har bir ishda ko'rsatar o'zini.

8.O'quvchi.

Asrlar ortidan kelar asrlar,  
Unutilar o'tmish, zamon ko'p sirlar.  
Ammo yaratilgan fan asoslari,  
Asrdan-asrga elat nasllar.}birgalikda

9.O'quvchi.

Yaxshi nom bilan yaxshi bo'lmoq yaxshidir,  
Dema charxdin zanjur bo'lmoq yaxshidir.  
Ilm suvidin masrur bo'lmoq yaxshidir,  
Dema zuhiddin mahrur bo'lmoq yaxshidir.

10.O'quvchi.

Qunt bilan o'rganing bu buyuk fanni.  
Shon-shuhratga o'raylik ona vatanni.  
Donolardonosibo'lgay har kim, }  
Fanga bag'ishlasa jon bilan tanni }birgalikda

1.O'quvchi.

O'rta asrda yashab ijod etgan mashhur olim Xorazmlik buyuk qomusiy alloma Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad Beruniydir.U 973-yil 4-sentabrda Xorazmning qadimiy Qiyot shahrida tug'ildi.Bu davrda Qiyot Xorazmning poytaxti bo'lib, Somoniylar davlatiga qarashli edi.

2.O'quvchi.

Beruniy hayoti va ijodini bir qancha bosqichlarga bo'lish mumkin. Ular: bolalik va o'smirlilik yillari, Rayga ketishi va Jurgonga kelishi, 1010-1017-yillarda Xorazmda yashagan davri, G'aznada yashagan davri va hayotining so'ngi yillari.

3.O'quvchi.

Otasidan yosh qolgan Beruniyning astronom va matematik Abu Nasr ibn Ibroq o'z tarbiyasiga oladi va unga alohida ixlos bilan o'z bilimlarini o'rgatadi.

4.O'quvchi.

Buyuk olim umri davomida 15 dan ortiq ilmiy asar yozgan bo'lib, bizgacha 40 tasi yetib kelgan.Uning ijodi haqida akademik I.Yu.Krakovskiy shunday deydi: "Beruniy qiziqqan sohalarni sanab chiqqandan ko'ra, qiziqmagan sohalarni sanab chiqish osondir."

5.O'quvchi.

Beruniy 1025-yili "Geodeziya", 1027-yili "Doiraga ichki chizilgan siniq chiziqning xossasi yordamida uning vatarini aniqlash", 1030-yilda "Hindiston" nomli asarlarini yozdi.

6.O'quvchi.

Arifmetika va algebraning asosiy masalalarini aytib beradi hamda o'nli va oltinshli sistemaning asosiy prinsiplari, abjad hisobi, butun va kasr sonlar ustida amallar, chiziqli, kvadrat va kub tenglamalarni taqribiy yechish usullarini bayon etadi.

7.O'quvchi.

Geometrik figuralarni son deb qarash bilan ular ustida arifmetik amallarni bajarishda son tushunchasini musbat haqiqiy sonlargacha kengaytiradi.

8.O'quvchi.

Evklidning asosiy keyingi tushunchalar va keyingi figuralarga bergan tariflarini to'ldirib, ularga teng kuchli bo'lgan tariflar beradi.

9.O'quvchi.

Planimetriya teoremlarini astronomiyaga tadbiq qilishda: keyingi tengligini aniqlash, quyosh apageyini aniqlash va boshqalarni aniqlaydi.

10.O'quvchi.

Doiraga ichki chizilgan ko'pburchaklarning tomonlarini hisoblaydi: beshburchak, o'nburchak va to'qqizburchak tomonlarini hisoblashni uchinchi darajali tenglamaga keltiradi va tenglamani taqribiy yechish usullarini keltiradi. Bunda  $\pi$  (pi) sonining 7 ta o'nli raqamigacha bo'lgan sondan foydalangan.Burchakni teng uchta bo'lakka bo'lish masalasini yechishning 12 xil usulini beradi.

11.O'quvchi.

Tekis va sferik trigonometriyadagi asosiy masalalar asosida mustaqil sistematik trigonometriyani tuzadi. Trigonometrik chiziqlar orasidagi munosabatlan\rni isbotlaydi.Sferik kosinuslar teoremasiga teng kuchli teoremani isbotlaydi.

12.O'quvchi.

*Beruniyning "Qonuni Ma'sudiy" asari muqaddima va 11 bobdan iborat.*

13.O'quvchi.

Beruniy 1030-yili "Yulduzshunoslik san'ati negizlarini tushuntirish kitobi", 1036-yili esa "astronomiya va yulduzlar bo'yicha ma'sud qonuni" asarni Muhammadning o'g'li Ma'sudga bag'ishlaydi. Beruniy 1048-yili G'aznada vafot etadi.

Sirkul.

Aylanganing aylangan, ketolmaysan  
uzoqqa,  
O'z oyog'ingdan o'zing, tushibsanda  
tuzoqqa

Irratsional son.

Asl sirin bilolmaymiz na sen-u na men,  
Bu jumboqni hal qilolmaymiz na sen-u  
na men.  
Ilmda der bu g'ururimiz,  
Ilm qolur qololmaymiz na sen-u na men.

Uchburchak.

Ichki burchaklarim o'lchovini qo'shsang  
bo'lar 180.

Tomonlarim o'rtasini ikkitasin olsangiz.  
Qolgan tomonlarim yarimidir bilsangiz.  
Topingchi bu figura.

Nimadir siz bilsangiz?

("-" Ayiruv belgisi)

Kichik bitta chiziqcha unga,  
Doim duch kelaman hisob-kitobda.  
Qayerda men bo'lsam bering e'tibor,  
Ko'p miqdor ozayib qolar shu tobda  
Nuqta

Na eni bor, na qalinlik, na bo'yi,  
Tashvishi ko'p, serhayoli, o'yli.  
Mayda zarra otashidek to quyosh,  
Sira mensiz yashay olmas qari-yosh.  
Agar ikki chiziq kesishsa uchrab,  
Shu joyga boqaman bir past to'xtab

Trapetsiya.

Bizni teng chiqarmanglar har safar,  
Hislatlarim aytayimda bir safar.  
To'rt tomonim ikkitasi parallel,  
Qolganlari paralellmas hilar el.  
Ichlaringda biror bormi talantlik,  
Asoslarga tik tushursa balandlik.  
Asoslarga qo'shib yarim olsangiz,  
O'rta chiziq shudir agar topsangiz.  
Romb.

Tomonlarini tutashtirib bir ko'ray,  
Qismatingiz o'rtoqlardan bir so'ray.  
Xislatlarining borligin bilaman,  
Senda yo'g'in men ham bayon qilaman.  
Diagonallarini tutashsa doim,  
Tik turar shirin so'zlab muloyim.  
("+” Qo'shuv belgisi)

Faqat ikki chiziqcha kifoya unga,  
Biri tik turar, biri gorizontal.  
Qarab bajarsangiz chagga va o'ngga,  
Oz miqdor ko'payib hisob bo'lar hal.

("-" Bo'lish belgisi)

Ikki nuqta ikki chiziqcha misol,  
Turadi ikki son orasida.  
Burda-burda qilib tashlaydi darhol,  
Hech kimni ayamay ish sohasida.

## MATEMATIK KECHA

Boshlovchi: Assalomu alaykum ey aziz do'stlar,

Qarchig'ay yigitlar-u barno sho'x qizlar.

Zehningiz kuchimi ishga solgani,

Bizning bilimni ham sinab olgani.

Siz aziz ustozlar, keling kuzating,

Xatoga yo'l qo'ysak, do'stlar, tuzating.

Ilmimiz yanada bo'lsin ziyoda,

Parvoz etaylik biz fan olamiga.

Assalomu alaykum, hurmatli ustozlar, aziz tengdoshiar hamda musobaqa ishtirokchilari. Matematik bilimlar bayramiga xush kelibsizlar. Umid qilamizki, bugungi bayramimiz barchangizda yaxshi taa'ssuurot qoldiradi.

Boshlovchi: Asrlar ortidan kelar asrlar,

Unutilar o'tmish zamon ko'p sirlar.

Ammo yaratilgan fan asoslarin,

Asrdan asrga eltar nasllar.

Do'stlar, fikrimizga yetishdi fursat.

Kechani ochishga etingiz ruksat.

Mas'uliyat yukin zimmamizga ortib,

Ko'zimiz oldida ular boshlar bahs.

Hayotdagi har bir ish, har bir harakat matematikaga asoslangan bo'ladi, shu sababli matematik bilimni

egallamay turib, oldi-sotdi munosabatlarini samarali to'g'ri tashkil qilish mumkin emas. Bozor munosabatlariga asoslangan mavjud sharoitda esa matematik bilimni yanada chuqur puxta o'zlashtirish ehtiyoji ortib bormoqda. Maskur sharoitni inobatga olgan holda biz tadbirimizni "MATEMATIK BILIMLAR KECHASI" nom bilan atadik.

Kechamizning shiori "MATEMATIKA-FANLAR ICHIDA SHOH, UNING SIRLARIDAN BO'LINGIZ OGOH".

Boshlovchi: Bugungi kechani ochish uchun so'z navbatini muassasa direktoriga bersak.

Boshlovchi: Rahmat ustoz mashaqqatli ishlaringizda kattadan katta muvaffaqiyat tilagan holda men sizlarni bellashuvga bevosita rahbarlik qiluvchi Hay'at a'zolari bilan tanishtirib o'taman.

Boshlovchi: \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_.

Boshlovchi: Bugungi matematik kechamizda yetti ishtirokchi o'zaro bellashadi. Bugungi kechamiz qatnashchilarini kutib oling.

1) Guruh shanini tikib ko'kka

U qiziqar algebra va sportga.

2) Tarixdan aqliming tengi yo'q,

Aniq fanlar ichra misli o'q.

Sarviquomat bu qizimiz sho'x va shodon,

Algebraga husn berar kulib har on.

3) Har narsani o'rganishga tirishadi

Algebraga yeng shimarib kirishadi.

4) Kamtarin, gapga chechan,

Algebrani qo'ldan qo'ymas hech ham.

Bilimlarni o'zlashtiradi chuqur,

Hamma fandan 5 oladi

5) Futboldan beringiz xohlagan savol  
Algebradek berar javob surmasdan hayol.

Boshlovchi: Ishtirokchilarimiz bilan ham tanishib oldik. Endi ruxsatinglar bilan  
Sizlarni bellashi shartlari bilan tanishtirib o'taman.

1- Shart. O'zbek xalq maqollarida matematik son qatnashgan maqollarni davom  
ettiring.

2- shart. Qiziqarli mantiqiy masalalar.

3-shart. Erkin mavzu.

4- Shart. ko'zi bog'langan holda konus shaklim chizish.

1-shart quyldagicha:

1-ishtirokchi:

- Qars 2 qo'ldan chiqar, qizg'onchiq yo'ldan
- Bahorning 1 kuni qishni boqar
- 1 bolam katta qilguncha 7 shahar paydo bo'lur
- Ota-bola 1 bog', biri gul, biri bog'bon.
- Ishi borgan 1 kun hayit, ishi yo'qqa har kun hayit

2-ishtirokchi:

- Do'st 1000 ta bo'lsa oz, dushman 1 ta bo'lsa ham ko'p
- 1 ko'ngil imorati ming ko'ngil ziyorati
- Sanamay, 8 dema.
- 1 ko'rgan, 100 eshigandan yaxshi.
- 1 kun tuz totgan joyinga, 40 kun salom ber

3-ishtirokchi:

- Dunyo yig'ib ketarsan, 1 kun tashlab ketarsan
- Har ko'ngilda 1 gavhar
- Har bir ishning vaqti bor, vaqt bilganning baxtiyor
- Yolg'iz aql o'zi yaxshi, 2 ta bo'lsa yana yaxshi.
- Bir yigitga, 40 hunar ham oz

4-ishtirokchi:

- Birni bersang otangga 100 ni olasan bolangdan
- har keksada 1 naql
- So'ragan 1 qizarar, bermagan 2 qizarar
- 1 kishi ariq qazar, 1000 kishi suv ichar.
- 1 ilon 1 uy odamni tinchitar.

5-ishtirokchi:

- 1 sinalgan tajriba 7 kitobdan afzal
- 7 o'lchab 1 kes
- Bilagi zo'r birni yiqar – bilimi zo'r mingmi
- 2 quioqdan ko'ra 1 ko'zga ko'proq ishon.
- birni birov beradi, ko'pni mexnat beradi.

6-ishtirokchi:

- Saqlasang 1000 bo'lur, saqlamasang yo'q bo'lur
- 1 kattaning gapiga kir 1 kichikning

- Yer haydasang kuz hayda, kuz haydamasang 100 hayda.
- Birni kessang, o'nni ek.
- 1 boshoqdan, 1 savat non.

7-ishtirokchi:

- 1 o'zing dono bo'lguncha ko'p bilan ahmoq bo'l
- 3 kishi bilgan sirni 100 kishi bilar.
- 100 qayg'u, 1 ishni bitirmas.
- Daraxt 1 joyda ko'karar.
- 1 aldasang, 100 aldanasan.

Musiqiy tanaffuz.

Raqqosalar tomonidan raqs ijro etiladi.

2-Shart Qiziqarli mantiqiy masalalar. Bu shartimizda ishtirokchilarimizga mantiqiy masalalar beriladi. Ular rangli figuralar ortiga yashirilgan bo'lib, har bir ishtirokchilarimizga besh minut vaqt beramiz. Shu vaqt oraliq'ida savollarga javob yozib berishiari kerak.

Tomoshabin do'stlar bo'lmang betaraf,

Ishtirokchilarga tilang shon-sharaf.

Ularni olqishlang uringiz qarsak,

Kecha hech qiziqmas o'tsa beqarsak.

1-ishtirokchi:

1) 0123456789=1 ni qanday hosil qilish mumkin?

Javob:  $0+1+2+3+4-5+6+7-8-9=1$  kombinasiyani to'g'ri bajarsangiz bas.

2) siz ikkita raqam bilan qanday eng kichik butun musbat sonni yoza olasiz? Javob: 10 emas balki quyidagicha ifodalangan birlikdir:

$\frac{1}{1}, \frac{2}{2}, \frac{3}{3}, \frac{4}{4}$  va hokazo to  $\frac{9}{9}$  gacha 10, 20, 30, 40, ... 90 gacha chunki nol

darajadagi har

qanday son 1 ga teng.

2-ishtirokchi:

1) Yettita 2 yordamida 100 ni hosil qiling

Javob:  $(222/2)-22/2=100$

2) 10 ni 5 ta 9 bilan ifodalang.

99 9

Javob:  $\frac{99}{9} - \frac{9}{9} = 11 - 1 = 10$  ;  $9 + 99^{9-9} = 10$

3-ishtirokchi:

1) 5 ta 1 sonidan 100 ni hosil qiling. Javob:  $111-11=100$

2) Samolyot A shahardan B shaharga 1-soat-u 20-minutda uchib boradi.

Biroq qaytish uchun 80-minut vaqt sarf qiladi. Siz buni qanday izohlab bera olasiz?

Javob: samolyot har ikki tomonga bir xil vaqtda boradi. 80 minut=1 soat 20 minut.

#### 4-ishtirokchi:

1)  $XI+?II=XII?II$  raqamini o'zgartirib tenglikning to'g'riligini ko'rsating

Javob:  $\sqrt{1, XI} + \sqrt{1} = XII$

2) 1 ni 10ta raqamning hammasidan foydalanib ifodalang. Buni ikki kasrning yig'indisi kabi ifodalang.

Javob:

1) usul

$$\frac{148}{296} + \frac{35}{70} = 1$$

2) usul  $123456789^0 = 1$

3) usul  $234567^{9-8-1} = 1$

#### 5-ishtirokchi:

1) Qanday 3 ta sonning yig'indisi ulaning ko'paytmasiga teng? Javob:  $1+2+3=1*2*3=6$

2) olti yoqli qalamda nechta yoq bor. Javob: 8 ta

#### 6-ishtirokchi:

1) 3 litr va 5 litrlik idishlar bor. Haridorga 1 litr yog' o'lchab berish kerak. Bu qanday amalga oshirish mumkin?

2) Javob: Birinchi 3 litrga yog' solinadi. Uni 5 litrlikka bo'shatiladi. Ya'na 3 litrlikka yog' solinadi. Uni 5 litrlikka bo'shatilganda, 3 litrlik idishda 1 litr yog' qoladi.

3) uch oyoqli stol oyoqlarini uzunliklari teng bo'lmasa ham stol hech bir qimirlamay turaveradi degan fikr bor. Bu to'g'rimi?

Javob: uch oyoqli stolning uchala oyog'ini uchlari doimo yerga tegib turadi, chunki fazoning har uch nuqtasi orqali tekislik o'tkazish mumkin va faqat bitta tekislik uch yoqli stolning qimirlamay turishiga sabab shu.

#### 7-ishtirokchi:

1) qaysi raqam ham son, ham harf? Javob: 0.

2) bo'sh turgan shashka taxtasiga ikkita har xil shashka terish kerak. Ular taxtada nechta hil joylashish mumkin?

Javob: birinchi shashkani taxtning 64 katagidan istalganiga qo'yish mumkin. Birinchi shashka qo'yilgandan keyin ikkinchisini qolgan 63 katakdan istalganiga qo'yish mumkin. Demak, birinchi shashkani 64 holatidan har biriga ikkinchi shashkaning 63 holatini biriktirish mumkin. Bundan taxtadagi ikki shashkaning turli holatini umumiy soni  $64*63=4032$  bo'lishi chiqadi. Ishtirokchilarimiz shartni bajargunlariga qadar amaliyatchilarning amaliyot davrida bajargan ishlaridan lavhalar ko'rsatamiz va 2-shartlarimiz bo'yicha ishtirokchilarimiz olgan baholarni e'lon qilamiz.

3-shartimiz erkin mavzu bunda ishtirokchilarimiz o'z qobiliyatlarini namoyon etishadi. Bizdek yosh avlodga sinchkov boqar bobolar har odimni kuzatib ishlarimiz baholar.

Qoloqni kechirishmas Qilmang derlar xatolar Kashfiyotlar qilsangiz Shunda olam tan olar

3-shartimiz ishtirokchilarimiz ko'zi bog'langan holda konus shaklini chizish 3 va 4- shartlarimiz bo'yicha ishtirokchilarimiz olgan baholarni e'lon qilamiz

-----  
Ustoz deya etgaymiz e'zoz  
Butun umrim hayotim ichra  
Ming qilsamda ustoz uchun oz  
Chunki u bilim bergan u kecha

---

Har bir so'zning bordir oxiri Har bir amal topadi yakun Eng zukkoni bildik axiyri

Har bir zukko bo'ldilar mamnun.

Hech cho'ktirmang qalblarni zinhor  
Qalbingizda gullasin bahor  
Bunday kunlar barchaga nasib  
Aylasin quv naylik takror va takror

Xayr, omon bo'ling, azizlar

## YOSH MATEMATIKLAR KO'RIK-TANLOVI

Boshlovchi: Assalomu alaykum, bugungi kechamizga tashrif buyurgan aziz mehmonlar, hurmatli ustozlar va bilimga chanqoq o'quvchilar. "Yosh matematiklar" ko'rik-tanloviga xush kelibsiz!

"Yosh matematiklar" ko'rik-tanlovida akademik litseyning 1-bosqich aniq fanlar yo'nalishida tahsil olayotgan guruhlar ishtirok etadilar. Bular 1<sup>a</sup>-12 guruhining "Riyoziyot" jamoasi, 3i-12 guruhining "Al-Xorazmiy" jamoasi va 4i-12 guruhining "Ulug'bek yulduzlari" jamoalaridir. Bu jamoalar 6 ta shart bo'yicha bellashadilar. Bular:

- 1-shart "Tanishtiruv"
- 2-shart "Boshqotirma"
- 3-shart "Viktorina"
- 4-shart "Sardorlar bahsi"
- 5-shart "Erkin mavzu"
- 6-shart "Kichik olimpiada" bahsi

Jamoalarning chiqish ketma-ketliklarini qur'a tashlash orqali aniqlab olamiz (Jamoalar sardorlari hakamlar hay'ati yoniga borib, berkitilgan raqamlarni tanlaydilar).

Qur'a natijasiga ko'ra shartlarni jamoalar quyidagi ketma-ketlikda bajaradilar:

- 1-jamoa \_\_\_\_\_,
- 2-jamoa \_\_\_\_\_,
- 3-jamoa \_\_\_\_\_.

Jamoalar 1-shartga tayyorgarlik ko'rgunlariga qadar umumiy qoidalar bilan tanishtirib o'taman.

- Har bir jamoa tarkibi 8 nafar ishtirokchidan iborat bo'lishi lozim.

•Jamoalar o'z nomiga, nishoniga, shiori hamda devoriy gazetasiga ega bo'lishi kerak.

•Jamoalar 6 ta shart bo'yicha kuch sinashishadi. Barcha shartlar 10 ballik mezonda baholanadi.

•Hakamlar hay'atining qarori muhokama qilinmaydi va qayta ko'rib chiqilmaydi.

•Ko'rik-tanlovda faol ishtirok etgan hamda g'olib bo'lgan jamoalar tashkilotchilar tomonidan faxriy yorliq va esdalik sovg'alari bilan taqdirlanadilar.


Demak, endi 1-shart, ya'ni "Tanishtiruv" shartini bajarish uchun sahnaga \_\_\_\_\_ jamoasini taklif etamiz.

Shartni bajarish uchun sahnaga \_\_\_\_\_ jamoasini taklif etamiz.

Shartni bajarish uchun sahnaga \_\_\_\_\_ jamoasini taklif etamiz.

Jamoalar 2-shartga tayyorgarlik ko'rgunlariga qadar hakamlar hay'atiga yuzlanamiz va jamoalarning 1-shart bo'yicha olgan baholari bilan tanishamiz.

2-shart, ya'ni "Boshqotirma" shartini bajarish uchun jamoalarni sahnaga taklif etamiz.



#### ENIGA

1. Qarama-qarshi tomonlari parallel bo'lgan to'rtburchak.

5. Eng kichik

7. Isbot talab qilmaydigan matematik jumla.

9. Teng o'lchamli to'g'ri burchakli parallelepiped.

#### BO'YIGA

1. Sonning 100 dan bir ulushi.

2. Funksiyani chiziqlar yordamida tasvirlash.

3. Fazoda berilgan nuqtadan bir xil masofada yotadigan nuqtalar to'plami.

4. Yo'nalgan kesma.

6. Eng katta

8. To'g'ri burchakli uchburchakni uning kateti atrofida aylantirishdan hosil bo'lgan figura.

10. Aylana markazidan o'tuvchi vatar.

Jamoalar o'z joylarini egallashlari mumkin. 2-shart bo'yicha jamoalarning olgan baholari bilan tanishamiz.

3-shart, ya'ni "Viktorina" sharti bo'yicha jamoalarni sahnaga taklif etamiz. Jamoalar hakamlar hay'atining yoniga borib variant tanlaydilar.

1-bilet

1. Murakkab son deb nimaga aytiladi? (Javob: Bo'luvchilari soni ikkitadan ortiq bo'lgan sonlar.)

2. Tovuq bir oyog'ida 2 kg, ikkinchi oyog'idachi? (Javob: 2 kg)

3. To'rtta manfiy sonni uchta musbat songa ko'paytirsa qanday son hosil bo'ladi? (Javob: musbat son.)

4. Qanday sonni hech qanday matematik amal bajarmasdan cheksizlik belgisiga aylantirish mumkin? (Javob: 8 sonini)

5. Qayin daraxtining 8 ta shoxi bor, har bir shoxda yana 8 tadan shoxcha bor. Har bir shoxchada 8 tadan olma bo'lsa, daraxtda hainmasi bo'lib nechta olma bor? (Javob:qayin daraxtida olma bo'lmaydi)

2-bilet

1. Uchta o'nlikni ikkita o'nlikka ko'paytirsak, necha o'nlik hosil bo'ladi? (Javob:60 o'nlik)

2. Savatda oltita olma bor. Shu olmalarni oltita bolaga bittadan shunday bo'lib beringki, natijada savatda ham bitta olma qolsin (Javob:5 bolaga bittadan olma berib, savatda qolgan olmani bolaga savati bilan beriladi)

3. Ertalab uchta tuxumni ikki otasi va ikki bolasi bittadan yeyishgan. Buni qanday tushuntirish mumkin? (Javob: bola, otasi va bobosi yegan)

4. G'isht ikki kilogramm va o'z og'irligining yarmiga teng bo'lsa, u necha killogramm? (Javob: 4 kg)

5. Sonning  $\frac{1}{2}$  qismi  $\frac{1}{4}$  qismidan necha marta ortiq?(javob: 2 marta.)

3-bilet

1. Oralig'i 15 km bo'lgan bir shahardan ikkinchi shaharga uch chavandoz chopib borgan bo'lsa, har qaysi chavandoz necha kilometr yo'l bosadi? (Javob: 15 km)

2. Qo'shni burchak bissektressalari orasidagi burchak necha gradus? (Javob:90°)

3. Qachon uchni ko'rib 15 deymiz? (Javob: kuduzi soat uch)

4. To'rtburchakning to'rtta uchi bor, uning bitta uchini qirqib tashlasak, qanday figura hosil bo'ladi? (Javob: beshburchak)

5. 50 mi yarmiga bo'lsak, necha chiqadi? (Javob: 100)

4-shartni bajarish uchun sahnaga jamoalar sardorlarini taklif etamiz. Jamoalar ushbu shartda 2 daqiqa davomida matematik formulalarni yozadilar.

5-shart "Erkin mavzu" shartini bajarish uchun ketma-ketlikda jamoalarni sahnaga taklif etamiz.

Mana har uchala jamoalar ham barcha shartlarni bajarib bo'lishdi. 6-shart kuni kecha o'tkazilganligini inobatga olgan hoida ushbu shart bo'yicha va umumiy ballarni e'lon qilish uchun so'zni Hakamlar hay'ati a'zosi, akademik litseyning "Matematika va informatika" kafedrasini mudiri R.Jo'rayevaga beramiz.

Jamoalar tashkilotchilar tomonidan ta'sis etilgan esdalik sovg'alar va faxriy yorliqlar bilan taqdirlanadi.

## SIZ KOMPYUTERNI BILASIZMI?

1 - Boshlovchi Assalomu alaykum, ey aziz do'stlar,  
Qarchig'ay yigitlar-u barno sho'x qizlar,  
Zehningiz kuchini ishga solgani,  
Bizning bilimni ham sinab olgani.

Siz aziz ustozlar, keling kuzating,  
Xatoga yo'l qo'ysak, do'stlar tuzating.  
Ilmimiz yanada bo'lsin ziyoda,  
Parvoz etaylik biz fan olamiga.

2 -Boshlovchi Asrlar ortidan kelar asrlar,  
Unutilar o'tmish zamon ko'p sirlar,  
Ammo yaratilgan fan asoslarin,  
Asrdan asrga eltar nasllar.  
Do'stlar, fikrimizga yetishdi fursat,  
Kechani ochishga etingiz ruxsat.  
Mas'uliyat yukin zimmaga ortib,  
Ko'zimiz oldida ular boshlar bahs.

Assalomu alaykum, hurmatli ustozlar, aziz mehmonlar va qadri o'quvchilar.

Bizning lager o'quvchilari ishtirokida matematika va informatika fanlariga bag'ishlangan tadbirni e'tiboringizga havola etmoqchimiz.

1. Boshlovchi

Tadбирimizni ochish uchun so'zni oromgoh direktori \_\_\_\_\_ ga beramiz.

1. -Boshlovchi Marhamat ...

2. Boshlovchi Rahmat! ...

Endi biz sizlarni o'quvchilarimizning chiqishlarini xolis baholab beruvchi Hay'at a'zolari bilan tanishtirib o'tamiz.

1 – Boshlovchi Endi ishtirokchilar taklif etiladi.

1 – Boshlovchi

Kecha mehmonlariga ushbu so'zimiz,  
Kuzating va tinglang har bir so'zimiz,  
Barcha chiqishlarga tashlangiz nazar,  
Hammaga teng qarang, bo'ling zo'r hakam.

## 2– Boshlovchi

Xalqimizning faxridir,  
Necha buyuk siymolar.  
Al-Xorazmiy, Farobiy,  
Beruniy, Ibn-Sinolar.

Ming yil avval ham mashhur,  
Bo'lgan bizning bobolar.  
Har bir ishida tengsiz,  
Nom qozongan daholar.

### 1-shart:

Endi bellashuv shartlari bilan tanishtiramiz:

1 – shart - tanishtirish: (5-7 daqiqa) bolalar o'z jamoasi nomi, devoriy gazetasi, nishoni va shiorlari bilan ommani tanishtiradilar.

### 1– Boshlovchi

Tomoshabin do'stlar, bo'lmang betaraf,  
Ishtirokchilarga tilang shon-sharaf.  
Ularni olqishlang uringiz qarsak,  
Kecha hech qizimas, o'tsa beqarsak.

### 1 – Boshlovchi

2-shart: Bu shartda ishtirokchilarimiz o'zlarining epcilliklarini namoyon qilishlari lozim, ekranimizda 4 xil rangli charxpalak mavjud va har bir guruh o'zlari kartochkalar orqali rang tanlab shu ranga mos kelgan vazifani aql-idrok bilan bajarishlari talab etiladi (taqdimot ilova qilinadi).

## 2– Boshlovchi

Bizdek yosh avlodiga,  
Simchkov boqar bobolar.  
Har odimni kuzatib,  
Ishlarimiz baholar.

Qoloqni kechirishmas,  
Qilmang derlar xatolar.  
Kashfiyotlar qilsangiz,  
Shunda olam tan olar.

### 1 – Boshlovchi

3-shart: krossvord yechish bo'lib bunda barcha guruhlariga bir xil jumboq beriladi. Bu kalit so'zi albatta informatik terminlardan tashkil topgan. (5 min)

### 1– Boshlovchi

4-shart: Ishtirokchilarga matematik yoki informatik tildagi maqollar beriladi va uni aslini aytish talab qilinadi (M: Yetti o'lehab, bir kes. Yaxshi dasturchidan dastur qolar, Yomon dasturchidan virus. Kompyuterning ahmoq quli bo'lguncha, aqli egasi bo'l, Yaxshi bola dastur tuzar, yomon bola kompyuter buzar, Sen menga kompyuterini ko'rsat, men senga kimligingni aytaman, . . . )

(Musiqiy tanaffus)

1 – Boshlovchi: 5-shart: Hozir ishtirokchilarimiz har birlari kartochkalarda aytilgan figuralarni ko'zlarini bog'lagan holda doskada chizib berishlari kerak

2 – Boshlovchi: Aziz ustozlarimizga so'z beriladi, natijalar e'lon qilindi.

### 1 – Boshlovchi

Ustoz deya etgayman e'zoz,

Butun umrim hayotim ichra.  
Ming qilsamda ustoz uchun oz,  
Chunki u bilim bergan u kecha.

2 – Boshlovchi

Har bir so‘zning bordir oxiri  
Har bir amal topadi yakun  
Eng zukkoni bildik axiyri  
Har bir zukko bo‘ldilar mamnun.  
Xayr, omon bo‘ling, azizlar.

1 – Boshlovchi

Hech cho‘ktirmang qalblarni zinhor,  
Qalbingizda gullasin bahor.  
Bunday kunlar barchaga nasib,  
Aylasin,quv naylik takror va takror.

## c) FIZIKA BO'YICHA

### ASSALOM FIZIKA

Komandalar (guruhlardan) olingan ballar (5 ballikda)

Bosqichlar va topshiriqlar

1. Salomlashish, tamishtiruv
  2. Fizik asboblari
  3. Sardorlar bellashuvi
  4. Sahna ko'rinishi
- Jami:

1. Salomlashish erkin holda amalga oshiriladi.

2. Fizik asboblari haqida

1-o'quvchi: Stol ustida turgan fizik asboblardan menzurkani toping, vazifasini tushuntiring.

2-o'quvchi: Menzurkani qo'lga oladi va uning hajmini, o'lchashdagi vazifasini tushuntiradi.

1-o'quvchi: Kishi tanasining harorati qanday asbob bilan o'lchanadi?

2-o'quvchi: Termometr kashf etilgunga qadar tana harorati qo'l bilan aniqlangan, keyinchalik esa termometr bilan o'lchanadi deb termometrni ko'rsatadi.

1-o'quvchi: Adialak qanday asbob, vazifasichi?

2-o'quvchi: Adialak jismlar sirtining tekisligini aniqlaydigan fizik asbobdir.

1-o'quvchi: Kuchni qanday asbob bilan o'lchanadi, uni toping va qayerlarda ishlatilishini tushuntiring?

2-o'quvchi: Kuch dinamometr bilan o'lchanadi. U muskul kuchiarini aniqlashda, ikki jism orasidagi tortishish kuchini aniqlashda ishlatiladi.

Shunga o'xshash savollar davom ettiriladi. Savol-javob, munozaralarda kim ko'proq ball yig'sa, shu o'quvchi g'olib hisoblanadi.

3. Sardorlar bellashuvi (Savollar)

- |   |   |
|---|---|
| 1. Fizika nimani o'rganadi?                     | 6. Energiya turlarini ayting.                                 |
| 2. Mexanika nimani tushuntiradi?                | 7. Energiyaning aylanishi va saqlanishini tushuntirib bering. |
| 3. Oddiy mexanizmlar deganda nimani tushunasiz? | 8. Fizikani bo'limlarini ayting.                              |
| 4. Impuls nima?                                 | 9. Fizik jarayon nima?  |
| 5. Energiya nima?                               | 10. Izojarayonlarni tushuntiring.                             |
4. Sahna ko'rinishi erkim tayyorlanadi.

### KECHKI OVQATDA FIZIKA

Komandalar (guruhlardan) olingan ballar (5 ballikda)

Bosqichlar va topshiriqlar

1. Salomlashish, tanishtiruv

2. Kechki ovqatda fizika munozarasi

3. Sardorlar bellashuvi

4. Sahna ko‘rinishi

Jami:

1. Salomlashish, tanishtiruv erkin tayyorlanadi

2. Kechki ovqatda fizika munozarasi

1-o‘quvchi: Nima uchun non qotadi?

2-o‘quvchi: Nonning qotib qolish sabablaridan biri, non tarkibidagi suvning bug‘lanishdir.

1-o‘quvchi: Issiq ovqatni yog‘och qoshiq bilanmi yoki metall qoshiq bilan ichish afzal? Nega?

2-o‘quvchi: Yog‘och qoshiq bilan ichish afzal, chunki yog‘och issiqlikni metallga nisbatan kam o‘tkazadi, shuning uchun u issiq bo‘lmaydi.

1-o‘quvchi: Piyoladagi issiq choyni qanday sovutish mumkin?

2-o‘quvchi: Choyga metall qoshiq solinsa metall issiqlikni yaxshi o‘tkazgani uchun choy tezroq soviydi. Bug‘lanishni kuchaytirish uchun choyni puflash kerak.

1-o‘quvchi: Nima uchun chovgumdagi suv qaynash oldidan ovoz chiqaradi?

2-o‘quvchi: Suvda havo pufakchalari mavjud. Qizish natijisida suv pufakchalari kattalashadi va yuqoriga ko‘tariladi. Qaynash oldidan pufakchalari soni ko‘payadi, ularning yorilishi natijasida suvning o‘ziga xos ovozi chiqa boshlaydi.

1-o‘quvchi: Nima uchun chovgumdagi suv qaynayotganda uning qopqog‘i sakraydi?

2-o‘quvchi: Isish natijasida hosil bo‘lgan bug‘ bosimi qopqoqni ko‘taradi, bug‘ning bir qismi tashqariga chiqqach bosim bir oz pasayadi va qopqoq joyiga tushadi.

3. Sardorlar bellashuvi (Savollar)

1. Energiya nima?

2. Fizika nimani o‘rganadi?

3. Fizikani bo‘limlarini ayting.

4. Energiyaning aylanishi va saqlanishini tushuntirib bering.

5. Mexanika nimani tushuntiradi?

6. Oddiy mexanizmlar deganda nimani tushunasiz?

7. Mexanik ish nima?

8. Energiya turlarini ayting.

9. Fizik jarayon nima?

10. Kuch qaysi asbobda o‘lchanadi.

4. Sahna ko‘rinishi erkin tayyorlanadi.

## FIZIKA KECHASI

Ikkita guruh ishtirok etadi. Ishtirokchilari “Zuhro yulduzi” va “Ona zamin” guruhlari

“Zuhro yulduzi” tabrigi:

Bizni bellashuvga taklif etgan “Ona zamin”ga salom, assalom!

1. “Ona zamin” kuchlimi, “Zuhro yulduzi”mi?

Bizning tilak, “Zuhro yulduzi”ga omad,

“Ona zamin” quchsin zafar beadam.

Bugun mushoirada ayon bo‘lg‘usi.

2. Had-hududi yo‘q olamda yo‘nalish bormi?

3. Poyoni yo‘q koinotni o‘lchab bo‘lurmi?

1. Inson agar,

Jahd qilgudek bo‘lsa,

Yerga olib tushar,

Baland osmonni ham

Fizika faniga bog‘liq tabiat ham

Intilish, inersiya, hatto tortishish,

Zarurat bo‘lganda barcha fanlar ham

Intiladi fizika tomon.

Keltirib bu fanga shavkatu shuhrat,

Biz sodiq qolamiz abadul-abad.

Keyin tabrik uchun so‘z “Ona zamin” komandasi a‘zolariga beriladi.

Raqibimiz bo‘lmish “Zuhro yulduzi” ga salom, assalom!

4. Olam juda zimiston,

Nurafshon ayladi uni Nyuton,

Arximed, Demokrat etdi guliston

Ulug‘bek yulduzi porlar charog‘on

5. Ko‘ring havas qiling “Zuhro yulduzi”

Biz ulug‘ “Ona zamin” farzandlarimiz!

6. Gullar bilan to‘lgan bahoring, yozing,

Sevinch bilan jo‘shib chiqar sozing

Mehmonlar ustozlar sizga ming rahmat!

Xush ko‘rdik, hakamlar bo‘lingiz ogoh!

Sizdan iltimos shu qaysi bir tomon

Noto‘g‘ri ketmasin baholar nogoh!

Birinchi grappa kapitaniga savollar.

Chiroqchalar o‘chgan qishloqda,

Jimlik cho‘kkan o‘rmon, so‘qmoqda,

Tipratikan yurar qimirlab,

Bug‘imikan shoshgan suvloqqa,

Mayda yomg‘ir barglarni yuvar.

Shoxchalarni tebratib shamol.

Iliq kumush bir zumlik tuman,

Daryo uzra suzadi behol.

Tong saharlab qanday tirik jon?

Daraxtlarda shudring dona-dona

Taqib qo‘yar marvarid-marjon.

1-savol: Rayim Farhodiyning ushbu she'ridagi "taqib qo'yar marvarid-marjonlar" nima?

2-savol: Bu marvarid-marjonlarining paydo bo'lishini tushuntiring.

Ikkinchi komanda kapitaniga savollar:

Ra'no ko'rgan marvarid.

Ra'no chiqdi gulboqqa,

Ertalab gul uzmoqqa,

Vojatiy opasiga

Gulni hadya qilmoqqa,

Gullar bargida ko'rdi

Marvarid-dur shodasi

Kamalakdek egilgan.

Gulning shoxi, navdasi.

Mana asl marvarid

Bog'da ekan bilmabmiz,

Nega har kun ertalab

Etak-etak termabmiz.

Sevinganidan Ra'noming

Gul ko'ziga ko'rinmas.

Endi teray deganda,

Marvarid qo'lda turmas.

Undan keyin Ra'nooy

Guldan uzdi bir dasta.

Quyosh chiqdi marvarid,

Uchib ketdi bir pastda.

1-savol: Ra'no gul bargida ko'rgan marvarid nima?

2-savol: Quyosh chiqqandan so'ng ular qayoqqa uchib ketishdi?

Kapitanlarning savollariga javoblar.

1. Rayim Farhodiyning she'rida tilga olingan marvarid-marjonlar suv tomchilaridir.

2. Ular havo tarkibidagi suv bug'larining kondensiyalanishi tufayli hosil bo'ladi.

3. Ra'noning gul bargida ko'rgan marvaridlari suv tomchilaridir. Quyosh chiqishi bilan bu tomchilar bug'lanib ketdilar.

Komandalarga tayyorlangan savollar.

1. Metallni bolg'a bilan tez-tez urib isitish mumkin. Bu mexanikaviy ish nimaga sarf bo'ladi?

2. Quvvat birliklarini ayting?

3. Choynak qancha ko'p isitilsa undagi suv shuncha sekin qaynaydi. Nimaga shunday?

4. Elektromagnit induksiya hodisasini kim qachon kashf qilgan?

5. Daraxt bargiga tuproqdan ildiz orqali ko'p miqdordagi suv uzluksiz kelib turadi. Bu suv qayerga ketadi?

6. Bug' turbinalarida suv bug'ining qanday tur energiyasidan foydalaniladi?

## 7. Siz issiqlik dvigatellarining qanday turlarini bilasiz?

Albatta, savollar va javoblar oralig'ida badiiy qism, ashula, o'yin, intermediyalardan foydalaniladi.

### TEBRANISHLAR VA TO'LQINLAR

Har bir guruhga:

a) fizik kechanning mavzusiga oid guruh nomini o'ylab topish;

b) raqib komanda va hakamlar a'zolari bilan tanishuv;

v) dasturni tayyorlash topshiriladi.

Tayyorlanish uchun 2 hafta vaqt beriladi.

Kechaning borishi:

Hay'at (jyuri) tarkibiga guruh rahbarlari, litseylarda amaliyot o'tayotgan talabalarni jalb etish mumkin.

Har bir hay'at a'zosi kechanning dastur topshiriqlari va baholash mezonlari bilan tanishtirilishi lozim.

Kechani o'tkazish bosqichlari va topshiriqlari quyidagilardan iborat:

T/R	Bosqichlar va topshiriqlar	Komandalar (guruhlardan) olingan ballar (5 ballikda)
1.	Salomlashish, tanishtiruv	
2.	Hayot formulasi	
3.	Krossvord	
4.	Kim ko'p?	
5.	Sardorlar bellashuvi	
6.	Sahna ko'rinishi	
7.	Pantamimo	
8.	Aytishuv	
	Jami:	

1-bosqich: Salomlashish (uyga vazifa). Bolalar guruh nomini kechanning mavzusidan kelib chiqqan holda (masalan, "Mayatnik") deb tanlashlari, salomlashishda ham "Tebranish" mavzusiga asoslanishlari mumkin. Bu ijodiy topshiriq bo'lib, har bir guruh o'z qiziqishi bilimi va quvnoqliklarini namoyon etishadi.

Kechaning mazmunida quyidagilar bo'lishi mumkin, ya'ni bunda 1-guruh klassik tamishtirish, 2-guruh "Qishli qirovli kunlarning birida ..." deya nomlangan she'rni kechanning mavzusiga moslab fizikchasiga o'zgartirishi, 3-guruh va 4-guruh sahna ko'rinishini tayyorlashi, shuningdek, guruhlardan biri  $T = 2\pi\sqrt{LC}$  formulasini bosh mavzu qilib olib, yana biri esa metronom tovushlari (urishlari) ostida "... vals" o'ynashi mumkin.

O'quvchi tomonidan quyidagi she'r o'qilishi ham mumkin:

Tebranishlar, tebranishlar,

Sizlar – g'am va anduhlar.

Mexanik, elektrik – har xil tebranishlar.

Mana bir davr,

Mana endi ikkinchisi ham

Qanchalik u charchaydi,

Qanchalik u jonga tegdi.

2-bosqich: Hayot formulasi. Bunda guruhlarga oq qog‘oz tarqatiladi va unga bolalar tebranishlarga doir formulalarni yozib borishlari kerak. Qanchalik ko‘p formula yozishsa, guruh shuncha ko‘p ball to‘playdi.

3-bosqich: Krossvord. Guruhlarga “Tebranish” mavzusiga oid krossvordlar tarqatiladi va hay‘at a‘zolari shart oldidan vaqtni belgilab oladilar. Qaysi guruh birinchi bo‘lib topshiriqni bajarsa, o‘sha guruh g‘olib hisoblanadi. Krossvordni o‘qituvchilar kollektivi yoki hay‘at a‘zolari tomonidan tuzish mumkin.

4-bosqich: “Kim ko‘p?”. Guruhlarga “Elektromagnetizm” so‘zi yozilgan varaq tarqatiladi. Bunda “Tebranish” mavzusining har bir harfiga iloji boricha ko‘p so‘z tuzish kerak. Kim ko‘p yozsa, o‘sha g‘olib hisoblanadi.

5-bosqich: Sardorlar bellashuvi. Har bir sardor rasmda tasvirlangan asbobni oladi. Topshiriq: olgan asbob yordamida turli xil tebranish jarayonlarini ko‘rsatish va tushuntirish kerak. Kim ko‘p hodisani ko‘rsatsa va tushuntirsa, o‘sha g‘olib bo‘ladi.

6-bosqich: “Bir mayatnik diskotekadan qaytayotib ketvorgan tezlikni uchratib qoldi. U podyezd oldida ko‘zlari to‘rt bo‘lib Rezonansni kutardi. Biroq, Rezonans...” kelmadi.

Tezlik katta chastotada bezovtalana boshladi, biroq shu payt uning cho‘ntagidagi uyali telefoni jiringlab qoldi. Bu qo‘ng‘iroqni Fazalar Siljishi qildi. U Rezonans bilan Grafik to‘qnashib qolib, avtomobil halokatida halok bo‘lganini yetkazdi. Tezlik xonim Rezonanssiz yashay olmasligini bildirdi. Nima qilish kerak? Uning hayotida eng qiyin ... davr bosblandi.

7-bosqich: Pantomimo. Guruh sardori qura topshiriq oladi. Undagi topshiriqda guruh sahna ko‘rinishi o‘ynab ko‘rsatishi (masalan, rezonans, harakatlanayotgan mayatnik, tebranish konturini tasvirlashi) kerak, boshqa guruhlar nima tasvirlanganini o‘ylab topishlari kerak.

8-bosqich: Aytishuv. Bu konkurs dasturning qo‘shimcha (zapas) qismi hisoblanadi. Uning maqsadi shundan iboratki, taqdim etilgan har bir ibora yoki ma‘nosi bo‘yicha teskarisini iloji boricha tez aytish kerak. Bunday ibora (yoki so‘zlarni) guruhlar oldindan tayyorlaydi, ularning javoblarini esa raqib-guruhlar yozadilar. Masalan, “tebranuvchi harakat” iborasi beriladi, uning teskarisi “takrorlanmaydigan tinchlik” iborasi bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, bunday kechalar o‘quvchilarga juda yoqadi va ular bunday tadbirga ishtiyok bilan tayyorlanadilar. Bunda bolalar o‘zlarining ijodiy izlanuvchanliklarini, mustaqil ishlash qobiliyatlarini namoyon qiladilar. Bu bilan ularning fizika faniga bo‘lgan qiziqishlari ham yanada oshadi.

## TURLI MUHITLARDA DIFFUZIYA HODISASI

Komandalar (guruhlardan) olingan ballar  
(5 ballikda)

Bosqichlar va topshiriqlar

1. Salomlashish, tanishtiruv
2. “Turli muhitlarda diffuziya hodisasi”ga oid munozara
3. Sardorlar bellashuvi
4. Sahna ko‘rinishi

Jami:

1. Salomlashish, tanishtiruv erkin holda amalga oshirildi.

2. “Turli muhitlarda diffuziya hodisasi”ga oid munozara

“Turli muhitlarda diffuziya hodisasi” mavzusi bo‘yicha bolalar ma’lumotlar tayyorlab keladi.

Masalan: Tayyorlanib kelgan o‘quvchi shu mavzuni gapirib tushuntirib beradi. Qo‘lidan kelgancha tajriba ham qilib ko‘rsatadi. U o‘rtoqlariga gaz, suyuqlik va qattiq jismlarda diffuziya hodisasiga doir misollar, animatsiyalar, hodisalarni izohlash va amalda foydalanish haqida tushuncha beradi. Boshqa o‘quvchi shu mavzuga doir tajriba ko‘rsatadi.

Tajriba, oddiy sovuq suvga margansovka solib diffuziya hodisasini ko‘rsatadi. So‘ngra issiq suvga margansovka solib diffuziya hodisasini yuqori haroratda tez sodir bo‘lishiga o‘rtoqlarining e‘tiborini qaratadi. Bunda jismning harorati yuqori bo‘lsa, molekulalarning tezligi katta bo‘ladi va aksincha, degan xulosa chiqadi.

Rivoyat. Bir podsho ulamolariga ko‘p narsa qo‘limdan keladi, deb maqtanadi. Shunda vaziri shohim unday demang, ba’zi narsalar borki, uni siz qila olmaysiz, deb nasihat qiladi. Baribir podsho o‘z so‘zida turib oladi. O‘sha kuni podshoning besh yosh o‘g‘il nabirasi bobosining oldiga kelib suv so‘raydi. Bobosi suv oldirib kelib nabirasiga beradi. Nabirasi suv ichmayman, sut keltiring deydi. Bobosi sut keltirishni buyuradi. Bola sutni ichib ko‘rib ichmayman, deb xarxasha qiladi. Shunda podsho nima qilsam tinchiysan deydi. Bola suvni sutga qo‘shing, deydi. Podsho noiloj suvga sutni qo‘shadi. Bola bu suyuqlikni ichib ko‘rib to‘polon qila boshlaydi. Bobo buni ham ichmayman, bu suyuqlik bemaza ekan deydi. Bolam, nima qilsam, sen tinchiysan-deydi podsho. Bola bobo suvdan sutni ajratib bering, deb iltijo qiladi. Afsuski, suvga aralashib ketgan sutni endi ajratib bo‘lmaydi.

3. Sardorlar bellashuvi

1. Moddaning agregat holatini tushuntiring.

2. Moddaning suyuq holati qanday xarakterlanadi.

3. Moddaning gaz holati qanday xarakterlanadi.

4. Moddaning qattiq holati qanday xarakterlanadi.

5. Molekulani tushuntiring.

6. Qattiq jism molekulalarini joylashish holatini tushuntiring.

7. Konveksiya hodisasini tushuntiring. Energiya nima?

8. Fizika nimni o‘rganadi? Fizikaning bo‘limlarini ayting

## e) CHIZMACHILIK FANI BO'YICHA

### TABIATDA-CHIZMA TASVIR

**Maqsadi:** O'lkamizning boy tabiat qo'ynidagi daraxtlari, gullarini geometrik tahlili orqali yoshlarni ma'naviy dunyoqarashini shakllantirish.

**Vazifasi:**

- 1) Tadbirga tayyorgarlik ko'rish;
- 2) O'quvchilarning nazariy bilimlarini qiziqarli savollar, testlar, hamda o'yinlar bajarish orqali aniqlash.
- 3) O'quvchilarni amaliy bilimlarini chizmalar chizish orqali aniqlash.
- 4) Tadbirda faol qatnashgan va g'olib chiqqan o'quvchilarni rag'batlantirish va taqdirlash.

**Mavzu:** «Tablatda-chizma tasvir»

**Tayyorgarlik bosqichi:**

**O'tkazish vaqti:** \_\_\_\_\_.

**O'tkazish joyi:** \_\_\_\_\_.

**Ishtirokchilar:** Tarbiyachi, metodist, ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha mas'ul va o'quvchi-yoshlar.

**Jihozlash:**

1. Chizmachilikka oid ko'rgazmali materiallar tashkil etish; (buyumlar, sirkul va lekalo egri chiziqlari chizmalari, slaydlar va boshqalar).

2. Texnik vositalar: mikrofon, kompyuter jihozlari, fotoapparat, videotaqdimot (prezentatsiya).

3. Ko'rgazma qurollari: Chizmachilik darslarida foydalaniladigan egri chiziqlarni tabiatda qo'llanishi haqida kitoblar, albom va bukletlar, plakatlar.

4. Chizma chizish uchun oq qog'oz, qalam, o'chirg'ich, sirkul, shaffof qog'oz (kalka) va boshqalar.

**Asosiy bosqich:**

Sahna ekranida mumtoz musiqa ijrosida tadbir mavzusi va taqdimoti namoyish etiladi.

1-boshlovchi Ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha mas'ul sahnaga chiqib tadbirni milliy ma'naviyatimizni madh etuvchi she'r yoki kirish so'zi bilan ochadi.

2-boshlovchi, Tarbiyachi: - Assalomu alaykum, hurmatli o'quvchilar, aziz ustozlar va qadrlil ota-onalar. Mana bugungi o'tkaziladigan o'quv-tabiiyaviy tadbirining mavzusi «Tabiatda-chizma tasvir».

Tadbir maqsadi – yoshlarimizning chizmachilik fani va o'lkamiz tabiatidagi gullar va barglarning tuzilishda sirkul va lekalo egri chiziq'larni ishtirok etishi haqidagi bilimlarini sinab ko'rish va iqtidorlilarni, g'oliblarni taqdirlash.

Tarbiyachi tadbir qatnashchilarini 6 nafar o'quvchilardan iborat 3 ta guruh bilan tanishtiradi.

2-boshlovchi, Tarbiyachi: - Men ularni sahnaga taklif etaman, marhamat. (gulduros qarsaklar ostida kirib kelishadi).

1-guruh sardori \_\_\_\_\_  
a'zolari \_\_\_\_\_

2-guruh sardori \_\_\_\_\_  
a'zolari \_\_\_\_\_

3-guruh sardori \_\_\_\_\_  
a'zolari \_\_\_\_\_

Tadbir shartlari:

1. Mavzu asosida nazariy bilimlarini testlar bajarish orqali niqlash.

2. Mavzu asosida amaliy bilimlarini naqsh chizish orqali aniqlash.

3. Mustaqil ijod (she'r, monolog, hikoya, qo'shiq, raqs va b.)

«Tabiatda-chizma tasvir» mavzusidagi o'quv-tarbiyaviy tadbirimizga tashrif buyurgan aziz mehmonlarimiz bilan tanishtiramiz:

\_\_\_\_\_

Ko'rik-tadbirni baholab boruvchi hakamlar hay'ati bilan tanishtiraman. Hakamlar hay'atining raisi \_\_\_\_\_

Hakamlar hay'ati a'zolari: ma'naviy va ma'rifiy ishlari bo'yicha muovini: \_\_\_\_\_

2-boshlovchi, Tarbiyachi: Dastlab guruh a'zolarining taqdimot chiqishlarini e'lon qiladi. Bunda har bir guruhlar bir-birlarini bayram bilan tabriklashadi (tabrik so'zi, maqol, rivoyat, hikmatli so'zlar va boshqalar bo'lishi mumkin). Bu jarayon bir guruh uchun 3 daqiqa. (Natijasi shartlar tugagandan so'ng e'lon qilinadi).

Hakamlar hay'ati taqdimot chiqishlarni baholagunga qadar navbatni musiqali tanaffusga beradi.

2-boshlovchi, Tarbiyachi: 1-shart: Test savollariga javob berish. Ushbu shartda har bir guruhning ishtirokchilari qatnashib, 4 tadan test topshirig'i savollariga (yozma yoki og'zaki) javob berishadi, har bir test topshirig'iga 5 tadan javoblar berilgan, shulardan to'g'ri javobni belgilashadi. (bu jarayon ham 3 daqiqa vaqt beriladi).

Hakamlar hay'ati shartni baholagunga qadar navbatni musiqali tanaffusga beradi. So'ngra baholar e'lon qilinadi.

2-boshlovchi, Tarbiyachi: 2-shart amaliy mashg'ulotda har bir guruhdan 6 nafar ishtirokchi 60 daqiqa davomida o'zlariga belgilangan amaliy mashg'ulotlarni bajarishadi, ya'ni biror sirkul yoki lekalo egri chizig'ini chizish. (Natijasi shartlar tugagandan so'ng e'lon qilinadi).

Hakamlar hay'ati shartni baholagunga qadar navbatni musiqali tanaffusga beradi.

2-boshlovchi, Tarbiyachi: 3–shart: mustaqil ijod (she'r, monolog, hikoya, qo'shiq, raqs va b.). Har bir guruh qatnashchilari tayyorlagan badiiy chiqishlarini she'r, monolog, hikoya, qo'shiq va raqs turlari bo'yicha namoyish etadilar. (Natijasi shartlar tugagandan so'ng e'lon qilinadi). Hakamlar hay'ati shartni baholagunga qadar navbatni musiqali tanaffusga beradi.

2-boshlovchi, Tarbiyachi: Hurmatli o'quvchilar, aziz ustozlar va qadrlı mehmonlar. Mana bugungi «Tabiatda-chizma tasvir» mavzusida o'quv-tarbiyaviy ko'rik-tadbirimizning uchala guruh qatnashchilaridan iborat iqtidorli va iste'dodli o'quvchilarimizning bilimlari va qobiliyatlari sinab ko'rildi. Imkon qadar barcha guruh a'zolarining o'z jamoalari bilan birdanlikda, ahillikda va qizg'in bahslarda o'zaro hurmatdagi harakatlari guvohi bo'ldik. Belgilangan shartlar bo'yicha umumiy baholarni e'lon qilish uchun so'z hakamlar hay'atining raisi \_\_\_\_\_ ga.

Hay'at raisi: Mana, hammamiz o'quvchilarni barcha shartlar bo'yicha chiqishlarini tomosha qildik. Har bir guruh qatnashchilarining sahnada o'zlarini tutishi, mazmunli she'r o'qish, ashula ijro etishi, sahna ko'rinishi hamda mavzu bo'yicha nazariy va amaliy bilimlari, ko'nikmalari inobatga olgan holda baholandi. Hay'at a'zolari qarori bilan bir ovozdan

(Umumiy baholar tantanali musiqa ostida e'lon qilinadi).

1- o'rin \_\_\_\_\_ guruh jamoasi

2- o'rin \_\_\_\_\_ guruh jamoasi

3- o'rin \_\_\_\_\_ guruh jamoasi

G'olib guruh va faol qatnashgan bolalar gulduros qarsaklar ostida taqdirlanadilar.

2-boshlovchi, Tarbiyachi: Yakunlovchi so'z ma'naviy va ma'rifiy ishlari bo'yicha rahbar muovini: \_\_\_\_\_ ga .

– Bugun Davlatimiz yoshlarimizning biliimi, salohiyati, kuchi-qudrati, milliy madaniyati va ma'naviyati har tamonlama shakilantirish uchun keng imkomiyatlarni yaratib bermoqda. Ko'rik-tadbirda qatnashgan va barcha yoshlarga kelajakda ulkan zafarlar va oliy o'quv yurtlariga kirishda muvaffaqiyatlar tilaymiz.

Barcha ishtirokchilarga rahmat!

## SIZ AUTOCAD DASTURIDA CHIZMA CHIZISHNI BILASIZMI?

I-Boshlovchi: Assalomu alaykum, hurmatli ustozlar va yoshlar. Hammamizga ma'lumki mamlakat rivojlanishini ko'rsatuvchi turli zavod va fabrikalar, turar joy binolar borki, bularning qurilishi zamirida chizma chizish, AutoCAD dasturida bajarilgan chizmaga bo'lgan ehtiyoj yotadi.

2-Boshlovchi: Shunday chizmalarning ixtirochilaridan biri bugungi kunda hayotimizda muhim o'rin egallagan kompyuter imkoniyatlaridir. Albatta, hozirda axborot texnologiyalari kirib kelmagan maktab bo'lmasa kerak.

1-Boshlovchi: Shu sababli "Siz AutoCAD dasturini bilasizmi?" deb nomlangan musobaqa o'tkazmoqchimiz va musobaqa qatnashishlarini taklif qilamiz.

2-Boshlovchi: 5 ta shart ballari bilan tanishtiriladi.

1-Boshlovchi: 1-shartimiz tanishtiruv qismi deb nomlanadi va bu shartda jamoalar guruh nomiga qisman izoh berishadi, jamoa shiorlarini aytishadi. Tanishtiruv qismida she'rlar va qisman qo'shiqlardan foydalanish mumkin. Bu shart 15 balli tizim asosida baholanadi.

2-Boshlovchi: 2-shartimiz AutoCAD imkoniyatlari deb nomlanadi. Bu shartda jamoa a'zolaridan bir kishi chiqadi va biletlardan birini tanlaydi. Bu biletlarda oddiy AutoCAD imkoniyati buyruqlari nomi yozilgan bo'lib, har bir jamoa o'ziga tushgan buyruq nomiga ta'rif beradi va qanday amal bajarishini tushuntirib beradi. Ushbu shart 15 balli sistemada baholanadi.

---- AutoCAD dasturida bosqichli bajarilgan chizma namoyish qilinadmi ----

1-Boshlovchi: 3- shartimiz "tezkor savollar" deb nomlanadi va bu shartda jamoalarga 5 tadan savollar beriladi, o'ylash uchun 10 soniya vaqt. 15 ball asosida baholanadi.

2-Boshlovchi: 4-shart: Sardorlar bellashuvi deb nomlanib, unda sardorlar tezkorlik bobida bellashadilar. Har bir sardor AutoCAD dasturida chizma shriftlarini yozadilar va yozish bir varoq to'lguncha davom etadi. Eng bexato va tez yozilgan matn uchun ballar 20 ballik sistema asosida qo'yiladi.

1-Boshlovchi: So'nggi shart "Erkin mavzu" deb nomlanib, unda jamoa qatnashchilari o'zlarining qo'shiq, raqs va sahna ko'rinishlari bilan qatnashadi va 15 ball asosida baholanadi.

2-Boshlovchi: Natijalar e'lon qilinadi.

1-Boshlovchi: Mana aziz do'stlar "Siz AutoCAD dasturida chizma chizishni bilasizmi?" deb nomlangan bellashuvimiz o'z nihoyasiga yetdi.

2-Boshlovchi: Shu musobaqa orqali sizlarga nimadir bera olgan bo'lsak biz bundan xursandmiz va o'z maqsadimizga yetishdik deb hisoblaymiz. E'tiboringiz uchun rahmat.

Kecha mavzusi: Siz AutoCAD dasturida chizma chizishni bilasizmi?

Boshlovchilar: 2 nafar

Jamoalar: 6 nafardan 5 ta jamoa

Shartlar: 5 ta

1. Tanishtiruv qism
2. Kompyuter texnikasi (AutoCAD dasturi ko'tara oladigan)
3. Tezkor savollar

4. Sardorlar bellashuvi
5. Erkin mavzu

## CHIZMA OLAMIGA SAYOHAT KECHASI

Komandalar (guruhlardan) olingan  
ballar (5 ballikda)

Bosqichlar va topshiriqlar

1. Salomlashish, tanishtiruv
2. Chizma asboblari
3. Sardorlar bellashuvi
4. Sahna ko'rinishi

Jami:

1. Salomlashish erkin holda amalga oshiriladi.

2. Chizma asboblari haqida

1-o'quvchi: Stol ustida turgan chizma asboblardan nutromerni toping, vazifasini tushuntiring.

2-o'quvchi: Nutromerni qo'liga oladi va uning hajmini, o'lchashdagi vazifasini tushuntiradi.

1-o'quvchi: Detal diametri qanday asbob bilan o'lchanadi?

2-o'quvchi: Nutromer kashf etilgunga qadar detal o'lchamini o'lchashda taxminiy o'lchamlardan foydalanishgan, keyinchalik esa nutromer bilan aniq o'lchangan.

1-o'quvchi: Shtangentsirkul qanday asbob, vazifasi-chi?

2-o'quvchi: Shtangentsirkul detal sirtining to'g'ri chiziqli o'lchamini olishda ishlatiladigan asbobdir.

1-o'quvchi: Chuqurlik qanday asbob bilan o'lchanadi, uni toping va qayerlarda ishlatilishini tushuntiring?

2-o'quvchi: Chuqurlikni "glubinomer" (chuqurlikni o'lcho'vchi asbob) bilan o'lchanadi. U detal sirtidagi chuqurlik va o'yiqlarni o'lchashda ishlatiladi.

Shunga o'xshash savollar davom ettiriladi. Savol-javob, munozaralarda kim ko'proq ball yig'sa, shu o'quvchi g'olib hisoblanadi.

3. Sardorlar bellashuvi bellashuvi (Savollar)

1. Chizmachilik fani nimani o'rgatadi?

2. Geometrik chizmachilik mimalarni tushuntiradi?

3. O'lchash asboblari deganda nimani tushunasiz?

4. Diametr nima?

5. Radius nima?

6. Format turlarini ayting.

7. Tutashmalar mavzusini tushuntirib bering.

8. Chizmachilik bo'limlarini ayting.

4. Ish chizmasi nima?



5. Aylanam muntazam bo'laklarga bo'lishni tushuntiring.





Savol-javob, munozaralarda kim ko'proq ball yig'sa, shu sardor g'olib hisoblanadi.

Chizmachilikdan dastlabki tushunchalarni shakllantiramiz.

Boshlovchi: Chizma chizishda foydalaniladigan o'quv qurollarini aytib beradi. Bolalarga qo'shimcha materiallar beradi.

Har bir chizmachilik asbobiga birlashtirilgan o'quvchi chizmachilik asbobining qayerlarda, qanday amallarni bajarishini aytishi kerak bo'ladi.


№	Chizmachilik asboblari	Nomlanishi
1-o'quvchi.		Chizma taxtasi
2-o'quvchi.		Transportir
3-o'quvchi.		Qalam chiqargich
4-o'quvchi.		Lekalo
5-o'quvchi.		Moslama (Trafaret)

6-o'quvchi.		Qalamlar to'plami
7-o'quvchi.		Chizg'ich moslamalari
8-o'quvchi.		
9-o'quvchi.		To'g'ri chizg'ich
10-o'quvchi.		Uchburchakliklar
11-o'quvchi.		Tush
12-o'quvchi.		Gotovalnaya (sirkul to'plami)

Izoh: o'quvchilarning bergan ma'lumoti asosida baholanadi.

VAZIFA: Chizmachilik faniga oid boshqotirmani yeching.

Quyidagi keltirilgan boshqotirma o'quvchilarni proyeksion chizmachilikka oid bilimlarini tekshirish hamda bilimlarini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.



Savollar:

1. Dekart sistemasida vertikal yo'nalishdagi o'q nomi.
  2. Modelning olddan ko'rinish nomi.
  3. Detalning chapdan ko'rinish nomi.
  4. Detal chizmalari o'zaro ..... bog'liqlikda bo'lishi kerak.
  5. Aksonometriyaning o'qlar bo'yicha o'zgarish koeffisientlari har xil ya'mi uchta o'q bo'yicha uch xil qilib olinadigan turi:  $k \neq m \neq n$ .
  6. Ishlab chiqarishda bir marta foydalaniladigan, masshtab qoidalariga rioya qilmasdan, ko'z bilan chamalab chizilgan chizma.
  7. Murakkab qirqim.
  8. Detalning ichki tuzilishini bir yoki bir necha kesuvchi tekisliklar bilan fikran kesib ko'rsatilgan shartli tasvir.
  9. Aksonometriyada o'qning grekcha nomi.
  10. Aksonometriya turi.
- Kalit so'z: Chizmachilik bo'limlaridan biri.....
6. O'yin nomi: Blits o'yin-«Men JIF tashkilotchisi»

1-jadvalda keltirilgan masala «Detalining berilgan ikki ko'rinishi asosida uchinchi ko'rinishini topib, aksonometrik proyeksiyasi qurilsin. Ortogonal va aksonometrik proyeksiyalarda qirqim bajarilsin» mavzusida misolida rejali-algoritmini aniqlansin.

1-jadval

№	Mavzu mazmuni	Yakka baho	Yakka xato	Guruh bahosi	Guruh xatosi	To'g'ri javob
1	Detalning ikki ko'rinishi chizma qog'oziga joylashtirilib uchinchi ko'rinishi topiladi.					
2	Aksonometrik proyeksiyada qirqim bajariladi.					

3	Detal chizmalariga o'lchamlar qo'yiladi.				
4	Aksonometrik proyeksiya turi tanalanadi				
5	Detal aksonometriyasi quriladi.				
6	Chizma qog'ozi ramka chizig'i chizilib, asosiy yozuv o'rni ajratiladi.				
7	Ortogonal proyeksiyada qirqim bajariladi.				

Ushbu 1-jadvalda «Men JIF tashkilotchisi» uslubida esa oquvchilar proyeksion chizmachilikka oid biror topshiriqlarni ishlanish bosqichini aniqlashi so'ralgan.

Birinchi bosqichda har bir o'quvchi alohida ishtirok etadi va baholanadi. Ikkinchi bosqichda esa guruh mayda guruhlarga kamida 4 kishidan bo'limb ishtirok etadi va baholanadi. Mashg'ulot oxirida esa o'qituvchi har bir o'quvchini alohida baholaydi hamda guruhlarning ham yo'l qo'ygan kamchiliklarini ko'rsatib baholaydi. Yuqoridagi uslubni qo'llashdan maqsad o'quvchilarning amaliy malakalarini oishirish ham nazarda tutiladi. Chunki o'yinli texnologiyalar boshqa uslublardan shunisi bilan ajralib turadiki, o'quvchini jamoa bilan ishlashga, erkin fikrashga o'rgatadi. Har bir o'quvchi nazardan chetda qolmaydi. Shuningdek, o'qituvchiga bilim berish ham baholash ham oson kechadi.

Mazkur metodni nafaqat proyeksion chizmachilik bo'limi, balki chizmachilikning barcha bo'limlarida qo'llash mumkin. Ushbu o'yinli metodning o'quvchiga asosiy foydali tomoni shundaki, o'quvchi proyeksion chizmachilikdan berilgan mavzularni oq qog'ozda emas, balki xayolan ya'ni fazoviy tasavvurida, tartibli, bosqichli ishlashni o'rganadi.

7. «Qadimgi me'moriy obidalarning geometrik tahlili» mavzusida o'quv-tarbiyaviy tadbirning ssenariysi

Maqsadi: Ota-bobolarimiz tomonidan qurilgan qadimgi me'moriy obidalarining qurilishi, geometrik tahlili, qurilish tarixini o'rgatish orqali yoshlarni milliy g'ururini Vatanga sadoqatini hamda o'zgalar mehnatini qadrlashga o'rgatish.



Vazifasi:

- 1) Tadbirni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish;
- 2) O'quvchilarning nazariy bilimlarini qiziqarli savolnomalar, testlar, "A'lo va Zukko" bajarish o'yinlari orqali aniqlash.
- 3) O'quvchilarni amaliy bilimlarini obidalarining geometrik tahlilini farqlash, turlarga ajratish va chizish malakalarini shakllantirish.
- 4) Kasb va hunarni madh etuvchi she'r, ashula, rivoyat, hikoyatlar tayyorlash va ijro etish;
- 5) Tadbirda faol qatnashgan va g'olib chiqqan o'quvchilarni rag'batlantirish va taqdirlash.

## QADIMGI ME'MORIY OBIDALARNING GEOMETRIK TAHILILI

Tayyorgarlik bosqichi:

O'tkazish vaqti: \_\_\_\_\_.

O'tkazish joyi: \_\_\_\_\_.

Ishtirokchilar: Tarbiyachilar, metodistlar, ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha mas'ul va o'quvchi-yoshlar.

Jihozlash:

1. Qadimgi me'moriy obidalarimizga oid ko'rgazmali materiallar tashkil etish; (maketlar, foto-albomlar, slaydlar, qisqa metrajli kinofilmlar va boshqalar).
2. Texnik vositalar: mikrofon, kompyuter jihozlari, fotoapparat, videotaqdimot (prezentatsiya), geometrik jismlar, stol, stul va boshqalar.
3. Ko'rgazma qurollari: O'tmishda ota-bobolarimiz tomondan shahar va qishloqlarimizda bunyod etilgan me'moriy obidalarining fotosuratlari, o'quvchi-yoshlar tomonidan yasalgan me'moriy yodgorliklarning maketlari, kitoblar, albom va bukletlar, plakatlar, shiorlar, hikoyalari.
4. Chizish uchun oq qog'oz, qalam, o'chirg'ich, sirkul, akvarel bo'yoqlari, guash, mo'yqalamlar, suv, suv uchun idishlar, palitra va boshqalar.

Asosiy bosqich:

Sahna ekranida mumtoz musiqa ijrosida tadbir mavzusi va taqdimoti namoyish etiladi.

1-boshlovchi Ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha mas'ul sahnaga chiqib tadbirni milliy ma'naviyatimizni madh etuvchi she'r yoki kirish so'zi bilan ochadi.

2-boshlovchi, Tarbiyachi: - Assalomu alaykum, hurmatli o'quvchilar, aziz ustozlar va qadrli ota-onalar. Bugungi o'tkaziladigan o'quv-tabiiyaviy tadbirimizning mavzusi «Qadimgi me'moriy obidalarining geometrik tahlili» deb nomlanadi. O'zbek xalqining milliy boyligi qadimgi me'moriy obidalarining geometrik tahlili, ma'naviy va moddiy merosimiz asrlar davomida shakllanib, jahon madaniyatining rivojida, taraqqiy etishida muhim ahamiyat kasb etib kelayotganligi barchamizga ma'lum. Tadbirni tashkil etishdan maqsad o'quvchi-yoshiarimizning san'atimiz, milliy

an'analarimiz qurilishi va tuzilishi haqidagi bilimlarini sinab ko'rish va ijodkorlarni, g'oliblarni taqdirlash.

Tarbiyachi tadbir qatnashchilarini 6 nafar o'quvchilardan iborat 3 ta guruh bilan tanishtiradi.

2-boshlovchi, Tarbiyachi: - Men ularni sahnaga taklif etaman, marhamat. (gulduros qarsaklar ostida kirib kelishadi).

1-guruh sardori \_\_\_\_\_.

a'zolari \_\_\_\_\_.

2-guruh sardori \_\_\_\_\_.

a'zolari \_\_\_\_\_.

3-guruh sardori \_\_\_\_\_.

a'zolari \_\_\_\_\_.

Tadbir shartlari: 1. Mavzu asosida nazariy bilimlarini testlar bajarish orqali aniqlash.

2. Me'moriy obidalarining fotonusxalari orqali obidalar nomini, qurilishi tarihi, geometrik tahlili qaysi shaharda joylashganini aniqlash va tarixi haqida ma'lumot berish.

3. Mustaqil ijod (me'moriy obidalarining geometrik tahlilini qilish).

4. Badiiy chiqish (she'r, monolog, hikoya, qo'shiq, raqs v.b)

«Qadimgi me'moriy obidalarining geometrik tahlili» mavzusidagi o'quv-tarbiyaviy tadbirimizga tashrif buyurgan aziz mehmonlarimiz bilan tanishtiramiz:

\_\_\_\_\_

Bugungi ko'rik-tadbirni baholab boruvchi hakamlar hay'ati bilan tanishtiraman. Hakamlar hay'atining raisi \_\_\_\_\_

Hakamlar hay'ati a'zolari: ma'naviy va ma'rifiy ishlari bo'yicha muovini: \_\_\_\_\_

2-boshlovchi, Tarbiyachi: Dastlab, guruh a'zolarining taqdimot chiqishlarini e'lon qiladi. Bunda har bir guruhlar bir-birlarini bayram bilan tabriklashadi (tabrik so'zi, maqol, rivoyat, hikmatli so'zlar va boshqalar bo'lishi mumkin). Bu jarayon bir guruh uchun 3 daqiqa. (Natijasi shartlar tugagandan so'ng e'lon qilinadi).

Hakamlar hay'ati taqdimot chiqishlarni baholagunga qadar navbatni musiqali tanaffusga beradi.

2-boshlovchi, Tarbiyachi: 1-shart: Test savollariga javob berish. Ushbu shartda har bir guruhning ishtirokchilari qanashib, 4 tadan test topshirig'i savollariga (yozma yoki og'zaki) javob berishadi, har bir test topshirig'iga 4 tadan javoblar berilgan, shulardan to'g'ri javobni belgilashadi (bu jarayonga 3 daqiqa vaqt beriladi).

Hakamlar hay'ati shartni baholagunga qadar navbatni musiqali tanaffusga beradi. So'ngra baholar e'lon qilinadi.

2-boshlovchi, Tarbiyachi: 2-shart amaliy mashg'ulotda har bir guruhdan 6 nafar ishtirokchi 20 daqiqa davomida o'zlari tanlab olgan fotonusxalar, ya'ni me'moriy obidalarining fotonusxalari orqali obidalarining geometrik tahlili, qaysi shaharda joylashganligini aniqlaydi va tarixi haqida ma'lumot beradi (Natijasi shartlar tugagandan so'ng e'lon qilinadi).

Hakamlar hay'ati shartni baholagunga qadar navbatni musiqali tanaffusga beradi.

2-boshlovchi, Tarbiyachi: 3-shart: Mustaqil mavzu bo'lib, bunda ishtirokchilar me'moriy obidalarining fotonusxalarini ko'rib, tasavvurlari orqali me'moriy obidaning tahlilini bajardilar. (Ushbu jarayon 60 daqiqa davom etishi mumkin).

Hakamlar hay'ati shartni baholagunga qadar har ikkala guruh qo'shimcha ijodiy sahna ko'rinishi taqdim etadi.

2-boshlovchi, Tarbiyachi: 4-shart: badiiy chiqish (she'r, monolog, hikoya, qo'shiq, raqs va b.). Har bir guruh qatnashchilari tayyorlagan badiiy chiqishlarini she'r, monolog, hikoya, qo'shiq va raqs turlari bo'yicha namoyish etadilar. (Natijasi shartlar tugagandan so'ng e'lon qilinadi). Hakamlar hay'ati shartni baholagunga qadar navbatni musiqali tanaffusga beradi.

2-boshlovchi, Tarbiyachi: Hurmatli o'quvchilar, aziz ustozlar va qadrlı mehmonlar. Mana bugungi «Qadimgi me'moriy obidalarining geometrik tahlili» mavzusida o'quv-tarbiyaviy ko'rik-tadbirimizning uchala guruh qatnashchilaridan iborat iqtidorli va ijodkor o'quvchilarimizning bilimlari va qobiliyatlari simab ko'rildi. Imkon qadar barcha guruh a'zolarining o'z jamoalari bilan birdamlikda, ahillikda va qizg'in bahslarda o'zaro hurmatdagi harakatlari guvohi bo'ldik. Belgilangan shartlar bo'yicha umumiy baholarni e'lon qilish uchun so'z Hakamlar hay'atining raisi \_\_\_\_\_ ga beriladi. Marhamat!

Hay'at raisi: Mana, hammamiz o'quvchilarning barcha shartlar bo'yicha chiqishlarini tomosha qildik. Har bir guruh qatnashchilarini sahnada o'zlarini tutishi, mazmunli she'r o'qish, ashula ijro etishi, sahnali ko'rinish, hamda mavzu bo'yicha nazari va amaliy bilimlari, ko'mikmalari inobatga olgan holda baholandi. Hay'at a'zolari qarori bilan bir ovozdan

(Umumiy baholar tantanali musiqa ostida e'lon qilinadi).

1- o'rin \_\_\_\_\_, guruh jamoasi

2- o'rin \_\_\_\_\_, guruh jamoasi

3- o'rin \_\_\_\_\_, guruh jamoasi

G'olib guruh va faol qatnashgan bolalar guiduros qarsaklar ostida taqdirlanadilar.

2-boshlovchi, Tarbiyachi: Yakunlovchi soʻz maʼnaviy va maʼrifiy ishlari boʻyicha rahbar muovini: \_\_\_\_\_ ga .

– Bugungi yoshlarimizning bilimi, salohiyati, kuchi-qudrati, madamiyati va maʼnaviyati kelajagimiz poydevoridir. Mustaqil Vatanimiz poydevorini bundan ham mustahkam va qudratli boʻlshida koʻrik-tadbirda qatnashgan va barcha yoshlarga sogʻlom hayot, sogʻlom gʻoya va ilmiy-ijodiy muvaffaqiyatlar tilaymiz.

Barcha ishtirokchilarga rahmat!

## QIRQIM TURLARI HAQIDA BILASIZMI?

M.Xalimov

Maqsadi: Hayotimizdagi barcha detallar, binolar, mashina va mexanizmlarning baʼzi bir joylarini bizga koʻrinib turgan va uning ichki qismini hamda orqasini tasvirlashda qirqim turlaridan foydalanish orqali yoshlarni fazoviy tasavvuri va ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirish.

Vazifasi:

- 1) Tadbirga tayyorgarlik koʻrish;
- 2) Oʻquvchilarning nazariy bilimlarini qiziqarli savollar, testlar, hamda oʻyinlar bajarish orqali aniqlash.
- 3) Oʻquvchilarning amaliy bilimlarini chizmalar chizish orqali aniqlash.
- 4) Tadbirda faol qatnashgan va gʻolib chiqqan oʻquvchilarni ragʻbatlantirish va taqdirlash.

Mavzu: “Qirqim turlari haqida bilasizmi?”

Tayyorgarlik bosqichi:

Oʻtkazish vaqti: \_\_\_\_\_.

Oʻtkazish joyi: \_\_\_\_\_.

Ishtirokchilar: Tarbiyachi, metodist, maʼnaviy-maʼrifiy ishlar boʻyicha maʼsul va oʻquvchi-yoshiar.

Jibozlash:

1. Chizmachilikga oid koʻrgazmali materiallar tashkil etish; (buyumlar, sirkul va lekalo egri chiziqdari chizmalari, slaydlar va boshqalar).

2. Texnik vositalar: mikrofon, kompyuter jihozlari, fotoapparat, videotaqdimot (prezentatsiya).

3. Koʻrgazmali qurollar: Chizmachilik darslarida foydalaniladigan qirqim turlarini tabiatda qoʻllanishi haqida kitoblar, albom va bukletlar, plakatlar.

4. Chizma chizish uchun oq qogʻoz, qalam, oʻchirgʻich, sirkul, shaffof qogʻoz (kalka) va boshqalar.

Asosiy bosqich:

Sahna ekranida mumtoz musiqa ijrosida tadbir mavzusi va taqdimoti namoyish etiladi.

1-Boshlovchi, Tarbiyachi: Assalomu alaykum, hurmatli ustozlar va yoshlar. Hammamizga ma'lumki, mamlakat rivojlanishini ko'rsatuvchi turli zavod va fabrikalar, turar joy binolar borki bularning qurilishi zamirida chizma chizish, ulardan unumli foydalanish hamda shu soha yetuk mutaxassis kadrlariga bo'lgan ehtiyoj yotadi.

2-Boshlovchi, Tarbiyachi: Shuni aytish joizki, hayotimiz davomida duch keladigan binolar, mashina va mexanizmlarning ba'zi detallarini tasvirlashda qirqim turlarining o'rni kattadir.


8. Boshlovchi, Tarbiyachi: Shu sababli "Qirqim turlari haqida bilasizmi?" deb nomlangan musobaqa o'tkazmoqchimiz va musobaqa qatnashishlarini taklif qilamiz.

2- Boshlovchi, Tarbiyachi: 5 ta shart ballari bilan tanishtiriladi.

9. Boshlovchi, Tarbiyachi: 1- shartimiz tanishtiruv qismi deb nomlanadi va bu shartda jamoalar guruh nomiga qisman izoh berishadi, jamoa shiorlarini aytishadi. Tanishtiruv qismida she'rlar va qisman qo'shiqlardan foydalanish mumkin. Bu shart 15 balli tizim asosida baholanadi.

Yettita chol kelayapti. Har bir cholning qo'lida tayog'i bor, har bir tayoqning yettitadan butog'i bor. Har bir butoqda yettitadan chumchuq bor. Hammasi bo'lib nechta chumchuq bor. (Javobi: yo'q.)

To'rtta toq sonni qo'shib 10 hosil qila olasizmi?

Sakkizta toq sonni qo'shib 20 hosil qila olasizmi?

4373 va 826 sonlarni bir songa bo'lganda mos holda 7 va 8 chiqdi. Qanday songa bo'lingan.

41 va 51 li 2 ta bidon bor. Shu idishlardan foydalanib, suv oqova jo'mragidan chelakka 31 suv quyib olish mumkinmi?

To'rtta ikki raqam va bitta 3 raqamdan nechta besh xonali son tuzish mumkin?

Ikkita ikki va uchta besh raqamlaridan nechta har xil besh xonali sonlar tuzish mumkin.

Uchburchakni shunday uch burchakka bo'ling-ki bu bo'laklardan to'rtburchak tuzish mumkin bo'lsin.

Men besh xonali son o'yladim. Undan 1 ni ayirib, to'rt xonali son hosil qildim. Men qanday son o'ylaganman.

Shilliqurt balandligi 12m bo'lgan telegraf simyog'ochiga chiqmoqda. Kunduz kuni u to'rt metr ko'tariladi, kechasi esa u 3 m pastga tushadi. Shilliqurt o'z sayoxatining nechanchi kuni simyog'ochachiga chiqadi?

Bir shahardan ikkinchi shaharga yo'lovchi poyezdi 3 soatda boradi. Tez yurar poyezdi esa bir soatda yo'lovchi poyezdda 20 km ortiq yo'l yuradi. Bu shaharlar orasi necha km?

5ta baliqchi 1 soatda 5ta baliq tozalaydi. 10 ta baliqchi 10 ta baliqni necha soatda tozalaydi?

Qaysi katta: 1,2,3,4,5,6,7,8,9,0 sonlarning yig'indisi yoki ularning ko'paytmasi?

Uchta ot qo'shilgan arava 30 km yo'l yurdi. Har bir ot necha km yurgan?

Vali Sodiqdan 8 yosh katta. Bundan ikki yil oldin esa Valining yoshi Sodiqning yoshidan uch baravar katta edi. Vali necha yoshda? (Vali 14 yoshda)

Bir bolaning aka va ukalari yo'q. Uning singlisida nechta akasi bo'lsa shuncha opasi bor. Oilada nechta bola bor? (Javob: opasi, bola, singlisi)

Arrakashlar har minutda xodadan 1 metrli g'ola arralaydilar. Ular necha minutda 6m li xodani arralab bo'ladilar? (Javobi:5 minutda)

Uchta ketma-ket natural sonlarning yig'indisi 60 ga teng. Bu sonlarni toping? Javobi: $a+(a+1)+(a+2)=60$ ;  $3a+3=3(a+1)=60$ ;  $a+1=20$ ;  $a=19$

Demak, 19,20,21.

Uchta ketma-ket sonlarning yig'indisi 90ga teng. Bu sonlarni toping.

Agar har bir sekunda bitta son sanash mumkin bo'lsa, minggacha sanash uchun qancha vaqt kerak bo'ladi? (Javobi: ming ichida bir xonali sonlardan 9ta, ikki xonali sonlardan 90ta, uch xonali sonlardan 900ta, to'rt xonali sonlardan 1 ta, demak  $9+2\cdot 90+3\cdot 900+1=2900$  sekund vaqt ketar ekan.)

## ZUKKOLAR BELLASHGANDA

Quvnoqlar va zukkolar klubiga (KVN) qatnashuvchi o'quvchilarni guruhlariga bo'lib o'tkazish kerak. Hakamlar a'zoliciga yuqori sinf o'quvchilari, pedagogika kolleji talabalari, yoki matematika fani o'qituvchilari bo'lishi mumkin.

Ikkita guruhdan 15 tadan o'quvchi ajratiladi. Kerakli ishoralarni va sonlarni qo'ying (4 ball):

Birinchi guruhga

$$134*8*8=134$$

$$81*9*4=36$$

$$7*5*65=100$$

$$63*20*0=39$$

$$99*19*20=100$$

$$\square + \triangle : 0 = 5$$

$$0 - \square + \triangle = 10$$

$$\triangle \cdot 0 + \square = 15$$

Sardorlar bahsi.

Birinchi guruh sardoriga savollar:

1. Qachon bo'linma bo'linuvchiga teng bo'ladi? (1 ball)

2. Uchta 5 raqami va amal ishorasi yordamida 50 sonni yozing (3 ball)

Ikkinchi guruh sardoriga savollar:

Ikkinchi guruhga

$$80*50*40=20$$

$$35*8*8=13$$

$$77*17*40=100$$

$$18*42*30=90$$

$$66*36*5=35$$

$$\triangle + \square : 0 = 3$$

$$\square - \triangle : 0 = 6$$

$$0 : \square + \triangle = 9$$

1. Qachon ikkita sonning yig'indisi qo'shiluvchilardan biriga teng bo'ladi? (1 ball)

2. Uchta raqam va amal ishorasi yordamida 30 sonni yozing. (3 ball)

III. Qaysi guruh a'zolari topshiriqlarni to'g'ri va tez bajaradi?

Katakarga 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10, 11 va 0, 2, 4, 6, 8, 10, 12, 14 sonlarni shunday joylashtiring-ki, istalgan yo'nalishda uchta katakdagi sonlar yig'indisi birinchi guruhda 21, ikkinchi guruhda 24 chiqsin (5 ball):

6		
	7	
		8

yig'indi-21

2		
	8	
		14

yig'indi-24

IV. Guruhlarga savollar:

Birinchi guruhga:

Xo'rozni bir oyog'i bilan o'lchaganda 2 kg chiqdi. Shu xo'rozni ikki oyog'i bilan o'lchasa qancha chiqadi? (2 ball)

Otasi 36 yoshda, o'g'li otasining yarim yoshidan 2 yosh kichik o'g'li necha yoshda? (31 ball)

Ikkinchi guruhga:

Ikkita ot qo'shilganda arava qishioqdan shaharga 4 soat yo'l yuradi. Har bir ot necha soat yurgan? (2 ball)

Bitta kishi 3 quti olma teradi. Ikkinchi kishi 5 ta shunday qutti olma teradi. Agar ikkinchi kishi 20 kg ortiq olma tergan bo'lsa, har bir qutida qancha olma bo'lgan? (3ball)

V. Guruh qatnashuvchilari bir-birlariga 5 tadan matematik savollar beradilar (qaysi guruh qiziqarli savol berishi hisobga olinadi.

SAVOLLAR

Suv to'ldiriladigan idish 6kg keladi. Yarmigacha suv to'ldirilganda esa 5 kg 300g keladi. Idishga qancha suv sig'adi? (Javobi: 5 kg) (3 ball)

Qanday ikkita butun sonning yig'indisi ko'paymasidan katta bo'ladi?(2 ball)

Bir yilda 4 hafta yoki 5 hafta bo'ladigan oylar bormi?(2 ball)

Bitta tuxumni suvda qaynatib pishirish uchun to'rt minut vaqt kerak, Oltita tuxumni pishirish uchun qancha vaqt kerak? (1 ball)

Ayirma qachon kamayuvchiga teng bo'ladi?(1 ball)

Bir likobchadagi yong'oqlar ikkinchidagidan 10ta ortiq. Likobchadagi yong'oqlar soni teng bo'lishi uchun birinchi likobchadan ikkinchisiga nechta yong'oq olib solish kerak? (3ball)

Hakamlar guruhlar to'plagan ballarni yakunlab g'olib chiqqan guruhni e'lon qiladi? (g'olib chiqqan guruh a'zolariga 5ta besh baho, ikkinchi guruh a'zolariga 5ta to'rt baho sovg'a sifatida jurnalga qo'yish sharti bilan e'lon qilinadi.

## SOAT SIFRALARI VA ISBOT TALAB QILUVCHI HAQIQATLAR

1. Bo'lish amalini bajarmasdan 9432 sonining 36 ga bolinishini isbotlang.
2. Shunday sonni topingki, 2 bolganda qoldiqda 1, 3 ga bo'lganda qoldiqda 2, 4 ga bo'lganda qoldiqda 3, 5ga bolganda qoldiqda 4 qolsin.
3. Ketma-ket kelgan ikkita toq sonning yig'indisi 4 karrali ekanligini isbotlang.
4. Ko'paytirish amalini bajarmasdan  $564 \cdot 232 = 131848$  notog'ri ekanligini aniqlang.
5. Uchta shaxmatchi turnirda 6 partiya o'ynashdi. Har bir shaxinatchi nechta partiya o'ynagan?
  6. a) Soat sifrablatini ikkita to'g'ri chiziq yordamida uchbo'lakka ajratingki, natijada har bir bo'lakdagi sonlarning yig'indisi o'zaro teng bo'lsin.
  - b) Shu sifrablatni 6 bo'lakka shunday ajratingki, har bir bo'lakdagi ikkita sonning yig'indisi o'zaro teng bo'lsin.



### Matematik rebus

Izlanayotgan son uchta turli raqam A, B, C dan iborat. Uni shartli ravishda ABC deb yozamiz va C-birliklar, B-o'nliklar, A-yuzliklar raqami ekanligini esimizda tutamiz. Agar:

$$\begin{array}{r} X \quad A \quad B \quad C \\ \quad A \quad B \quad C \\ + \quad * \quad * \quad * \quad * \\ \quad * \quad * \quad A \\ * \quad * \quad * \quad B \\ * \quad * \quad * \quad * \quad * \end{array}$$

ekani ma'lum bolsa, shu sonni topish kerak.

### GRAMM NIMA DEGANI?



Gramm, sekund, minut, millimetr, santimetr, detsimetr, metr, kilometr terminlarining lug'aviy ma'nolari

1. «Gramm» atamasi fransuz tilidagi «gramme» so'zidan olingan va o'zbek tilida «og'irlikning mayda o'lchovi» demakdir.
2. «Sekund» atamasi lotincha «secunda» so'zidan olingan bo'lib, ikkinchi bo'limish, degan ma'noni beradi.
3. Minut — lotincha «minuta» so'zidan olingan bo'lib, o'zbek tilida kichik, juda kichik, birinchi bo'lish, ma'nolarini anglatadi.
4. «Millimetr» atamasi grekcha «millemetro» so'zidan olingan bo'lib, o'zbekcha metrnig mingdan bir ulushi, degan ma'noni bildiradi.
5. «Santimetr» atamasi fransuzcha «cent» va «metro» so'zlaridan olingan bo'lib, o'zbek tilida metrnig yuzdan bir ulushi, ma'nosini anglatadi.

6. «Detsimetr» lotincha «decem» va grekcha «metreo» soʻzlaridan kelib chiqqan boʻlib, metrning oʻndan bir ulushini bildiradi.

7. «Metr» atamasi grekcha «metreo» soʻzidan olingan boʻlib, oʻzbekcha oʻlchayman, degan maʼnoni bildiradi.


8. «Kilometr» atamasi lotincha «chilio» va «metrio» soʻzlaridan olingan boʻlib, ming metr, degan maʼnoni bildiradi.

## BITTA UCHBURCHAK BA UCHTA TOʻRTBURCHAK

Uchburchakni shunday boʻlingki, natijada 3 ta toʻrtburchak hosil boʻlsin.

45 sonini bir necha natural sonlar yigʻindisi koʻrinishda ifodalash mumkinmi? Bunda shu sonlarning koʻpaytmasi ham 45 ga teng boʻlsin.

Beshta 3 raqami bilan 31 ni qanday yozish mumkin?



## NYUTONNING SINOVIDAN OʻTA OLASIZMI?

Tarixiy masala. (Nyuton masalasi).

Oʻzbek tilidagi tarjimasi quyidagicha: «Yordamingiz kerakki, toʻqqizta daraxt koʻchatini oʻnta qatorga shunday ekish zarurki, har bir qatorda uchtadan daraxt koʻchati boʻlsin. Ayting- sizdan boshqa narsa soʻramayman».



I. NYUTON



maʼnosi

“+” – KOʻPROQ, “-” – KAMROQ,

Boʻlish belgisi, plyus va minus, musbat, manfly atamalar va «+», «-», «x», «•», «=», «<», «>» belgilarining lugʻaviy



1. Boʻlish belgisini ikki nuqta bilan belgilash nemis olimi Leybnist tomonidan XVI asrda kiritilgan.

2. «Plyus» (lotincha «plus» — koʻproq) va «minus» (lotincha «minus» - kamroq) atamaları Fibonachaning 1202-yilida yozilgan «Ziber abasi» nomli asarida uchraydi.

3. «Musbat» va «manfiy» atamalarini birinchi bo‘lib Ali Qushchi «Hisob risolasi» (Kitobul Muhamaddiya) nomli asari orqali 1425- yilda kiritgan.

1.«+» va «-» belgilar XV asr oxirlarida ijod qilgan italyan va nemis olimlarini asarlarida uchraydi.

2. «x» (ko‘paytirish) belgisi ingliz olimi U.Outridning 1691-yilda yozgan asarida uchraydi.

3. «•» (ko‘paytirish) belgisi nemis matematigi Leybnitsning 1698-yilda yozgan asarida uchraydi, «:»(bo‘lish) belgisi esa 1684-yilda yozgan asarida uchraydi.

4. «=» belgisi ingliz olimi R.Rekordning 1557-yilda yozgan asarida uchraydi. 5. «<<», «>>» belgilari 1631-yil T.Garriot tomonidan matematikaga kiritilgan.

### SHAXRIZOD SONI



1) Qachon bo‘linuvchi va bo‘linma o‘zaro teng bo‘ladi?

2) Uch xonali son yozing va yoniga shu sonni yozing. Olti xonali son hosil bo‘ladi. Hosil bo‘lgan sonni 7,11,13 ga ketma-ket bo‘ling va natijaga asoslangan qonuniyatni aniqlang. 7,11,13 sonlarni o‘zaro ko‘paytmasini shaxrizod soni



deb ataladi. Nega?


3) Uch xonali sonni ketma-ket ikki marta yozing va hosil bolgan sonni birinchi yozilgan uch xonali songa bo‘ling. Natijaga asosan qonuniyatni toping.

4) Berilgan son 73ta 1 raqamidan iborat. Berilgan son 18ga qoldiqsiz bo‘linadimi?


5) Uchta ixtiyoriy natural sonlarni ularning yig‘indisidan hosil bo‘lgan songa bo‘ling va natijani toping.

### MANTIQIY FIKRLASH PAYTI KELDI!

Aylana va to‘rtburchak ichidagi sonlar orasidagi bog‘lanishni aniqlab, bo‘sh uchburchakdagi sonni toping.




Aylana va to‘rtburchak ichidagi sonlar orasidagi bog‘lanishni aniqlab, bo‘sh ketakdagi sonni toping.



## PROPORSIYA VA PROTSENT

1. Proporsiya – lotincha «pro» va «portia» soʻzlarining birikmasidan tashkil topgan va ikkita, degan maʼnoni anglatadi.

2. «Protsent» atamasi lotincha «procentum» soʻzidan olingan boʻlib, oʻzbek tilida yuzdan, degan maʼnoni bildiradi.



Matematik viktorinalar

1. Narxi 5000 soʻmlik buyumga 9% soliq qoʻshildi, Buyumning toʻla narxi qancha?

2. Miqdorning bir yarim barobari uning necha foizini tashkil etadi?

3. Buyumning narxi qaysi holda koʻproq oshadi: narx 15% oshirilgandami yoki avval 10% oshirilib, soʻngra yangi narx yana 5% oshirilgandami?

4. Toʻrtidan uch miqdori sakkizdan besh miqdoridan necha foiz ortiq?



5. Agar maosh 115820 soʻmdan 121030 soʻmga oʻzgarsa, Maosh necha foizga oʻsgan.

6. Televizor ekranining eni boʻyining toʻrtidan uch qismiga teng. U holda ekranning boʻyi enidan necha foiz uzun?

## PULLI MASALALAR

1. Ikki choʻntakda teng pul bor. Chap choʻntakdan yuz soʻm olib oʻng choʻntakka solindi. Oʻng choʻntakdagi pul chap choʻntakdagi puldan necha soʻm ortiq bolib qoldi? (J;200soʻm)

2. Iqhim yomon kelgani uchun bozordagi kartoshkaming narxi 20%ga koʻtarildi. Bir qancha vaqtdan keyin kartoshkani narxi 20% arzonlashdi. Kar-toshka qachon arzonroq boʻlgan: narxlar oshishdan ilgari yoki narxlar arzonlashgandan keyinmi? Necha foiz?


(Kartoshkani dastlabki narxi birga teng bolsin. Narx 20% oshgandan keyin kartoshkaning narxi 1,2 bo'lib qoldi. 20% arzon bo'lgandan keyin kartoshkaning narxi 0,96, ya'ni dastlabki naixidan 4% arzon bo'ldi.)

3. Tashqi ko'rinishlari bir xil bo'lgan 12 ta tangadan bittasi qalbaki bolib, u qolgan tangalardan og'r yoki engilligi noma'lum. Pallali tarozida 4 marta tortish bilan qalbaki tangani aniqlang.

4. 80 ta tangalardan bittasi qalbaki bolib, boshqalaridan engilroq, lekin tashqi ko'rinishlari bir xil. Pallali tarozida 4 marta tortish bilan shu qalbaki tangani toping.

5. 500 so'mga bir necha pud qand sotib olindi. Agar shu pulga 5 pud ko'p qand olinganda, u holda qand 5 so'mga arzonga tushgan bo'lar edi. Qancha qand sotib olinganini toping?

6. 10 ta tangani 5 ta qatorga shunday joylashtiringki, natijada har bir qatorda 4 tadan tangaga bo'lsin.



### “QIZIQARLI MATEMATIKA” kechasi (1)

1 – o'yin. Boychechak texnologiyasi.

Buning uchun bolalarga ruchka beriladi. 8 ta aylana yasaladi va bittasiga 5 raqami yoziladi, qolgan 7 tasiga quyidagi misollar yoziladi o'quvchilarga tarqatiladi 5 raqami yozilgan aylana bo'shliqda qoladi. Javob haqida bolalarga aytmaydi. Bo'shliq qo'lidagi aylana doskaga teskari ilib qo'yiladi va tarqatilgan misollar javoblari so'raladi. Buning uchun har bir bolaga 2 daqiqadan vaqt beriladi va birin ketin bolalarning misolni yechish usullari so'raladi va doskaga ilingan aylana atrofiga aylanalarni ilib chiqiladi va oxirida o'rtadagi aylana ochiladi va misolni to'g'ri ishlagan bolalar rag'batlantiriladi.

1)  $5:5+4=$

2)  $5 \cdot 5 - 5 : 4 =$

3)  $(5 \cdot 5 + 5) : 6 =$

4)  $\frac{5 \cdot 5 - 5}{4} =$

5)  $(5+5):2=$

6)  $\frac{(8-3) \cdot 2^2}{4} =$

7)  $\frac{(6+4) \cdot 3}{6} =$  Javob:

2-- o'yin.

Bolalarga quyidagi mulohazali savol beriladi. 5 ta bir xil ko'rinishga ega bo'lgan ... bor, ularni biri boshqalardan ozgina miqdorda yengil, ammo buni qo'l bilan

ushlab bilib bo'lmaydi. O'sha yengil uzukni tarozini 2 marta ishlatish yordamida qanday aniqlash mumkin.

Bolalarga o'ylash uchun 5 daqiqa vaqt beriladi va javoblari tinglanadi hamda boshqaruvchi tomonidan javobi aytiladi.

Javob: 5 ta uzuk 2 tadan tarozining 2 pailasiga qo'yiladi. 1 ta uzuk yerda qoladi. Agar tarozining ikkala pallasida bir xil og'irlikka ega bo'lsa u holda yerda qolgan uzuk yengil bo'ladi.

Agar tarozining bir tomoni og'ir bo'lsa o'sha og'ir tomonidagi uzuk olib tashlanadi va tarozining ikkinchi pallasidagi uzukning 1 tasi tarozining boshqa pallasiga o'tkaziladi va tarozi o'lchanadi va yengil uzuk topiladi.

3- o'yin.


Boshlovchi bolalarni o'ziga qaratib diqqat bilan e'tibor berilishi so'raladi va quyidagi jumlar aytiladi: ikki o'n besh bir o'ttiz, bir yigirma bir to'qqiz javobi bo'ladi 79. Qanday amallar bajarish kerak.

Bolalarga 2 daqiqa vaqt beriladi, bolalarning javobi tinglanadi va bolalar

o'zaro bahs yuritadilar va boshlovchi javobni aytadi.

Javob: bu sonlar orasiga faqat qo'shish belgisi qo'yiladi.

$$2+15+1+30+1+20+1+9=79$$



### “QIZIQARLI MATEMATIKA” kechasi (2)

Bu kecha o'yin tarzida olib boriladi.

O'yinning maqsadi: bolaning aqliy salohiyatini kuchaytirish, ular o'rtasida do'stona fikr almashish.

Bolalar 4 guruhga bo'linadilar va har bir guruhga 2 tadan qiziqarli matematik masalalar beriladi. Buning uchun vaqt ajratiladi.

1-guruhga:

1. Bir mamlakatda Rostgo'ylar, Yolg'onchilar. Rostgo'ylar va Yolg'onchilar aralash yashaydigan aralash qishloqlari bor ekan. Mos ravishda birinchi qishloqda faqat rostgo'ylar, ikkinchisida faqat yolg'onchilar, uchunchi qishloqda esa har bir toifa aralashib istiqomat qilishar ekan. To'satdan o't o'chirish idorasiga qo'ng'iroq bo'libdi:

-Bizning qishloqqa o't ketdi.

-siz qayerda yashaysiz?

-“Aralash” qishlog’ida.

Savol: O’t o’chiruvchilar qaysi qishloqda yashaydi?

b) Bir kuni 2 matematik uchrashib qolibdi. Hol ahvol so’rashgach birinchi matematik do’stidan so’rabdi:

-Hozir necha yoshdasiz?

Ikkinchi matematik javob beradi:

-Men tug’ilganimda otam 25 yoshda edilar, hozir otam va mening yoshimizni qo’shsak 89.

Savol: matematik necha yoshda?

2-guruhga

a) Soat 5 sekundda 6 marta bong uradi. 12marta bong urishi uchun qancha vaqt ketadi?

b) Qassob 1000000 so’m bilan bozorga tushdi, u roppa-rosa 100ta hayvon sotib olishi kerak. Sotuvda sigir, g’oz va tovuq bor.

Sigir 150000 so’m, g’oz 10000 so’m va tovuq 2500 so’m turadi.

U kamida har bir hayvondan bittadan olishi va barcha pulni ishlatishi shart. Qassob nimalarni sotib oldi ?

3-guruhga

a) Onaning yoshi o’z qizining yoshidan 4 barobar katta. 20 yildan so’ng ona qizidan 4 barobar katta bo’lib qoladi. Ona va qizning yoshini aniqlang ?

b) Qahvaxonada narhi idishi bilan birga 30 tiyin turadigan mineral suv sotilmoqda. Idishni topshirib 20 tiyim qaytarib olish mumkin. Aytingchi 1 so’m pulga ko’pi bilan nechta mineral suv ichish mumkin?

4-guruhga

a) Qanday qilib, 5 ta olmaning birortasini ham 6 bo’lakka bo’lmasdan turib, 6 kishiga teng qilib berish mumkin?

b) To’rtburchak shaklidagi honaning har bir burchagida bittadan mushuk o’tiribdi.

Har bir mushukning qarshisida 3 tadan mushuk o’tiribdi. Honada hammasi bo’lib nechta mushuk o’tiribdi?

Savollarga to’g’ri javob bergan guruhlarni birin-ketin rag’batlantirildi.

“Matematik masalalar gugurt cho’plarida” kechasi

Bu kecha bolalar o’rtasida musobaqa tarzida uyushtiriladi.

Kerakli jihoz: gugurt cho’plari.

O’vindan maqsad: Bolalarning aqliy qobiliyatini o’stirish, o’zaro fikr almashishga o’rgatishdan iborat.

Bolalar 4 ta guruhga bo’linadi, stol va stullar tartib bilan joylashtiriladi. Har bir vazifa bajarilishiga vaqt beriladi. Har bir guruhga quyidagicha topshiriqlar beriladi (topshiriqlar chizmasi qog’ozda ko’rsatiladi).


1. “Arifmetika” masalasi. 1 ta gugurt cho’pining o’rmini almashtirib to’g’ri tenglik hosil qiling.

$$VI-IV=IX$$

$$\text{Javob: } V+IV=IX$$

2. “Kvadratlar” masalasi (16 ta cho’p).


5 ta kvadratdan 2 ta gugurt cho’pini o’rmini almashtirib 4 ta kvadrat hosil qiling.



3. “Tozalik” masalasi (5 ta cho’p).

10. ta gugurt cho’pini o’rmini almashtirib idishdagi gugurt cho’pini tashqariga chiqaring.

Javob:



4. “Qal’a” masalasi (18 ta cho’p: 16 tasi qal’a devorlari uchun).

Qanday qilib 2 ta gugurt cho’p orqali ichki qal’aga kiriladi. (ikki devor orasi bo’shliq).

Javob.



Guruhlarning bergan javobiari asosida g’olib guruh aniqlanadi va barcha bolalar rag’batlantiriladi.

## MATEMATIK SUHBAT

1-Savol: 10 ta bola bir-biri bilan salomlashsa, nechta salomlashish hosil bo’ladi? (bu o’yinni amaliyotda sinab ko’rish mumkin)

Javoblar: -Har bitta salomlashgan bola o’zidan oldingi boladan bitta kam salomlashadi

-Birinci bola esa 9ta bola bilan salomlashadi, chunki o’zi o’ninchi boladir. Shunda  $9+8+7+6+5+4+3+2+1=45$ ta salomlashish bo’ladi. (amaliyotda sinab ko’ring)

2-Savol: -Bizda o’nta ko’chat bor qanday shaklda eksak, 5 Ota qatorga 4 tadan qilib o’tkazish mumkin?

Javob: -5ta qatorga 4tadan eksak aslida 20ta ko’chat ketadi. Demak bu, qatorlar kesishishi kerak. U holda besh yulduz shaklida ekamiz.

3-Savol: -Shilliqurt daraxtga chiqishi uchun kunduzi 3m chiqib, kechqurun 2m qaytib tushadi, bu shilliq qurt 10mli daraxtga necha kunda chiqadi?

Javob: -8 kunda chiqadi. Chunki 7kunda 7mga chiqsa 8-kun 3m chiqadi va qaytib tushinaydi.

4-Savol: -Arrada yog'ochni kesish uchun 3 daqiqa vaqt ketadi. Yog'ochni 5 qismga ajratish uchun qancha vaqt ketadi?

Javob: -10 daqiqa ketadi, chunki yog'ochni 5 qismga bo'lish uchun 4ta joyidan kesish kerak bo'ladi.

5-Savol: -Bizda 1ta 5litrlı va 1ta 3litrlı idishlar bor. Biz aniq 4litır suvni olish uchun nima qilishimiz kerak?

Javob: -3litrlı bankani 5litrlıkka 2marta to'ldirib solamiz.(bunda)2marta solganimizda 3litrlı idishda 1litır suv ortib qoladi. 5litrlı idishni to'kib 1litrsuveni solamiz va yana bitta 3litrlıkda suv salsak 5 litrlı idishda 4litır suv hosil bo'ladi.

6-Savol:

2 ta odamning qo'yi bor. Birinchisi ikkinchisiga 1ta qo'y bersa ikkalasining qo'ylarining soni teng bo'ladi. Ikkinchisi birinchisiga 1ta qo'y bersa, birinchi odamning qo'yi ikkinchisidan 2marta ko'p bo'ladi. Har ikkalasining qo'ylar sonini toping?

Javob: -Birinchisida 7ta , Ikkinchisida 5ta

7-Savol: +; -; \*; / va ( ) amallari yordamida 4ta 9dan 100 hosil qiling.

Javob:  $-9/9+99=1+99=100$

Bu matematik suhbatdan maqsad, avvalo, bolalarni mantiqiy fikirlashga o'rgatish, bo'sh vaqtlarini samarali o'tazish va bolalarni do'stona munosabatda bo'lishiga erishishdan iborat.

## MATEMATIK TEZKOR HISOBLASHLAR (o'yini)

Ushbu o'yin bolalarni tez va to'g'ri javob topishga, mantiqiy fikrlash va do'stona munosabatda bo'lishga o'rgatadi.

1. Topshiriq. Boshqaruvchining savoli:

Atrofdagi eng katta yuzaga ega bo'lgan jismini toping.(30 soniyada) Har bir bola javob variantini izohlab beradi. Ball boshqaruvchi tomonidan belgilanadi.Topshiriq yakunida ajratilgan ball beriladi.

2. Topshiriq. Tezkor ko'paytirish. Bu topshiriqda 1 dan 9 gacha bo'lgan ko'paytmalar qatnashadi. 1-bola o'zidan keyingi bolaga ko'paytma aytadi.U bola bu savolga 3 soniya ichida javob aytishi kerak va keyingi bolaga boshqa ko'paytma aytadi. Javobni o'z vaqtida tez va aniq bera olmagan bola o'yindan chiqib ketadi. Shu tariqa o'yin davom etadi.Oxirida qolgan bola g'olib hisoblanadi.(ball boshqaruvchi tomonidan belgilanadi. )

3. Topshiriq. Bu topshiriqda bolalarning zukkoligi tekshiriladi. Topshiriq boshqaruvchi tomonidan tushuntiriladi. Savol: eni 6 sm, bo'yi 14 sm bo'lgan to'g'ri to'rtburchakka tomoni 2 sm bo'lgan nechta kvadrat joylashtirish mumkin? Har bir bolaning javob variant tinglanadi.Har bir javob varianti uchun ball beriladi.1-javob bergan bola eng kata ballga ega bo'ladi. (Topshiriq uchun 3-4 minut ajratiladi. Ball boshqaruvchi tomonidan belgilanadi .Javob $\otimes$ 6:2)\*(14:2)=21 ta .Yoki chizma yordamida ham aniqlashlari mumkin.)

4. Topshiriq. Mantiqiy fikrlash. 5 ta 2 va matematik simvollar yordamida 24 ni hosil qiling. Topshiriq uchun 5 minut ajratiladi. Bu vaqt ichida bolalar to'g'ri va aniq javob topishlari kerak. Bolalarga 3 o'rin bo'yicha ball beriladi.

(Ball boshqaruvchi tomonidan belgilanadi. Javob variant:  $22*2:2+2=24$ )


5. Topshiriq. Tez aytish. Tez aytish uchun misol ixtiyoriy tanlanadi.

Masalan: 5 ni 3 ga ko'paytirib 1 ni qo'shsak 16 bo'ladi. Topshiriqqa 1 daqiqa vaqt ajratiladi. Tez aytishni 1 minut ichida eng ko'p ayta olgan 3 ta bola ballga ega bo'ladi.

O'yin yakunida topshiriqlar bo'yicha bolalarning ballari hisoblanadi. Bolalar o'rin bo'yicha taqdirlanadi. Qolgan bolalarni ham rag'batlantirish maqsadga muvofiq.

#### “Mulohazali matematika”

1-o'yin Bolalarga qalam, qog'oz beriladi va quyidagi shakl ko'rsatilib, bu shakldan kvadrat yasash so'raladi.(Bu shakldagi tomonlarning uzunligi bir hil).




Bolalarning chizgan shakllari ko'rib chiqiladi va to'g'ri javob ko'rsatiladi.(Buni amalda ham sinab ko'rish mumkin).

Javob:

Bolalarning chizgan shakllari ko'rib chiqiladi va to'g'ri javob ko'rsatiladi.

(Buni amalda ham sinab ko'rish mumkin).

Javob:



2-o'yin. Bolalar aylana tarzda joylashtiriladi va ularga 1 ta koptok beriladi . 1-bola 2-bolaga koptok otish jarayonida savol beradi.(2\*2) 2-bola koptok ilish jarayonida bu savolga tezkorlik bilan javob beradi. O'zi ham koptokni 3-bolaga otish jarayonida savol beradi. Bu o'yin shu tariqa davom etadi. Savolga javob berolmagan bola o'yinni tark etadi. Oyin oxirida qolgan bola rag'batlaniladi.

3-o'yin . Bolalar bir qator bo'lib poyezd shaklida turishadi.Har bir bolaning qo'liga 1 tadan qog'oz beriladi. O'qituvchi qator ohirida turgan bolaga birorta shakl chizishni aytadi.Bola bu shaklni o'z oldiga turgan bolaning yelkasiga qog'oz qo'ygan holda chizadi. Doska vazifasini o'tab turgan ishtirokchi chizilgan narsani his qilib shu his qilgan narsani oldidagi bola orqasiga chizadi. O'yin shu tarzda davom etadi. Bunda o'qituvchi chizilgan shakllarni ko'rib har bir bolaning his qilish darajasiga baho beradi.

### QIZIQARLI MATEMATIKA

Bu kecha o'yin tarzida olib boriladi.

O'yinning maqsadi: bolaning aqliy salohiyatini kuchaytirish,ular o'rtasida do'stona fikr almashish.

Bolalar 4 guruhga bo'linadilar va har bir guruhga 2 tadan qiziqarli matematik masalalar beriladi. Buning uchun vaqt ajratiladi.

1-guruhga: a) Bir mamlakatda Rostgo'ylar, Yolg'onchilar, Rostgo'ylar va Yolg'onchilarning aralash yashaydigan aralash qishloqlari bor ekan. Mos ravishda birinchi qishloqda faqat rostgo'ylar, ikkinchisida faqat yolg'onchilar, uchunchi qishloqda esa har bir toifa aralashib istiqomat qilishar ekan. To'satdan o't o'chirish idorasiga qo'ng'iroq bo'libdi:

-Bizning qishloqqa o't ketdi.

-siz qayerda yashaysiz?

-“Aralash” qishlog'ida.

Savol: O't o'chiruvchilar qaysi qishloqda yashaydi?

c) Bir kuni 2 matematik uchrashib qolibdi. Hol ahvol so'rashgach birinchi matematik do'stidan so'rabdi:

-Hozir necha yoshdasiz?

Ikkinchi matematik javob beribdi:

-Men tug'ilganimda otam 25 yoshda edilar, hozir otam va mening yoshimizni qo'shsak 89.

Savol: matematik necha yoshda?

2-guruhga

a) Soat 5 sekunda 6 marta bong uradi. 12marta bong urishi uchun qancha vaqt ketadi?

b) Qassob 1000000 so'm bilan bozorga tushdi, u roppa-rosa 100ta hayvon sotib olish kerak. Sotuvda sigir, g'oz va tovuq bor.

Sigir 150000 so'm, g'oz 10000 so'm va tovuq 2500 so'm turadi.

U kamida har bir hayvondan bittadan olishi va barcha pulni ishlatishi shart. Qassob nimalarni sotib oldi ?

3-guruhga

a) Onaning yoshi o'z qizining yoshidan 4 barobar katta. 20 yildan so'ng ona qizidan 4 barobar katta bo'lib qoladi. Ona va qizning yoshini aniqlang ?

b) Qahvahonada narhi idishi bilan birga 30 tiyin turadigan mineral suv sotilmoqda. Idishni topshirib 20 tiyin qaytarib olish mumkin. Aytingchi 1so'm pulga ko'pi bilan nechta mineral suv ichish mumkin?

4-guruhga

a) Qanday qilib, 5 ta olmaning birortasini ham 6 bo'lakka bo'lmasdan turib, 6 kishiga teng qilib berish mumkin?

b) To'rtburchak shaklidagi xonaning har bir burchagida bittadan mushuk o'tiribdi.

Har bir mushukning qarshisida 3 tadan mushuk o'tiribdi. Xonada hammasi bo'lib nechta mushuk o'tiribdi?

Savollarga to'g'ri javob bergan guruhlarni birin-ketin rag'batlantirildi.

Tezkor mulohaza

Bolalarni uch guruhga ajratamiz

3 guruhga ham tezkor mulohaza yuritish uchun savollar beramiz. Berilgan savollarni o'ylashlari uchun 1 minut vaqt beramiz. To'g'ri javoblarni aniqlash uchun shakllardan foydalanamiz.

1. To'liq va to'g'ri javob bergan guruhni 5 yulduz bilan taqdirlaymiz.

2. Chala javob bergan guruhni esa uchburchak bilan taqdirlaymiz.

3. Javob berolmagan guruhga esa aylana shaklini beramiz.

Ko'p yig'ilgan 5 yulduzli guruh g'olib hisoblanadi

1-Savol: Qachon va qayerda 3 ni ko'rib 15 deymiz. Javob: soatda.

2-Savol: To'rtburchak shaklidagi xonaning har bir burchagida bittadan mushuk o'tiribdi.

Har bir mushukning qarshisida 3 tadan mushuk o'tiribdi. Xonada hammasi bo'lib nechta mushuk o'tiribdi?

Javob : Uyda 4 ta mushuk bor.


3-savol. Daraxtda 9 ta qush bor edi. Daraxtga yana 4 ta qush qo'ndi. Mushuk ulardan birini olib qo'ydi. Daraxtda nechta mushuk bor.

Javob : daraxtda qush qolmadi. Qolganlari qo'rqib uchib ketdi.


4-savol. So'zma – so'z o'qiymiz.  $4+4 \times 4 = ?$  nimaga teng.

Javob : 20 ga teng.

5-savol. Toyni orqasiga qaratish uchun ko'pi bilan 2 ta tayoqning o'rnini almashtiring.




Javob:



6-savol. 8 ta 8 dan 1000 ni hosil qiling. Amallardan foydalangan holda.

Javob :  $(8\ 8\ 8\ 8 - 8\ 8\ 8) : 8 = 1000$

7 – savol.



Bu idishlardan foydalanib 10 L suv hosil qiling.

Javob : 11 L li idishga 9 L suv solamiz. 2 L joy qolganidan yana 9 L likdan 2 L qo'yamiz 9 L likda 7 L suv qoladi 11 L likni bo'shatib 7 L ni 11 L ga solamiz 9 L dar. foydalanib 4 L suv yana solamiz 9 L likda 5 L suv qoladi uni 11 L likka solamiz shu ho'ni 2 marta takror

“Qiziqarli o'yinlar”

1 – topshiriq:

Boshqaruvchi eng kichik bolani tug‘ilgan sanasini so‘raydi. Bu bola ning tug‘ilgan kuni sanasiga 2 –bola (ya‘ni 1 – boladan kattaroq bola) tug‘ilgan kunini qo‘shib natijani aytadi. 2 – bolaning tug‘ilgan kunini topib va 2 – boladan chiqqan natijaga o‘zining tug‘ilgan kunini qo‘shib natija aytiladi.

Bu o‘yin shu zaylda davom etadi. Bunda har bir holaga 1 daqiqadan vaqt beriladi. Bu vaqt ichida javob berilmagan bola o‘yindan chiqadi.

1– topshiriq:

Boshqaruvchining savoli 4 ta 9 raqamidan va ammallardan foydalangan holda 100 sonini chiqaring.

Javob.

$$99 + 9 : 9 = 100$$

Bu o‘yin bolalarni o‘ylashga majbur qiladi va xotirani yaxshilaydi.

2– topshiriq:

1. Boshqaruvchining savoli: bu shaklda nechta uchburchak, nechta kvadrat nechta to‘g‘ri to‘rtburchak bor?

2. Qaysi shakl eng ko‘pi, qaysi biri esa eng kami?



Javobni kim eng tez aytadi. Bu bolalarning tezkorligini oshiradi.

4 – topshiriq:

Xonadagi bir buyumni (masalan gugurtni) boshqaruvchi aytadi. Bu buyumning qanaqa shaklda ekanligini bolalar aytadi, ya‘ni birinchi bo‘lib javob aytgan holaga yana matematikaga oid savol beriladi. Bu savolga javob bergan bu bola ham xonadagi buyumni aytadi. O‘yin shu zaylda davom etadi. Agar belgilangan daqiqada (2 daqiqa) matematik tezkor savolga javob berolmagan bola o‘yindan chiqadi.

O‘yin oxirida esa qolgan 3 ta bola rag‘batlantiriladi.

## MATEMATIK RAQAMLAR VA SHAKLLAR

Bu kecha bolalar o‘rtasida musobaqa tarzida uyushtiriladi.

Kerakli jihozlar:

Doska, bo‘r, ruchka, qog‘oz, matematik shakllar.

O‘yindan maqsad.

Bolalarning aqliy qobiliyatini o‘stirish, fikr almashishga o‘rgatishdan iborat.

Bolalar 3 ta guruhga bo‘linadi, stol va stullar tartib bilan joylashtiriladi.

Har bir stolga ruchka va qog‘ozlar qo‘yiladi. Guruhlarga har bir topshiriq uchun 5 daqiqa vaqt beriladi.

1 – topshiriq.

Tenglikning chap tomonidagi raqam yoki ishorani shunday o‘zgartirib tenglikning o‘ng tomonini hosil qiling.

$$5+5+5=550$$

Javob.

$$5+545=550$$

3– topshiriq.

To‘rtburchak to‘rt bor shu to‘rti 8 ta kishiga teng taqsimlab bering. Keyin teng o‘rtasidan ham bo‘lamiz.

4– topshiriq.

Tenglikning chap tarafidan bitta ishorani yoki raqamni.

$$4+4=444$$

Javob.

$$444=444$$

Shunday almashtirib tenglikning o‘ng tarafi hosil bo‘ladi.

4 – topshiriq.

Soatni shunday to‘g‘ri chiziq bilan bo‘lingki to‘g‘ri chiziqdan yuqoridagi raqamlar yig‘indisi pastdagi raqamlar yig‘indisiga teng bo‘lsin.

$$10+11+12+1+2+3=39$$

$$9+8+7+6+5+4=39$$

5 – topshiriq.

Qog‘ozlardan bilet tayyorlab har bir biletlarga matematik shakllarni nomlarini yozib chiqamiz. Bitta qutiga biletga yozgan matematik shakllarning rasmini chizamizda, o‘sha rasmini chizilgan shakllar orqasiga savollarni yopishtirib chiqamiz.

Bola stol ustiga qo‘yilgan biletlardan birini oladi va shaklni qutidan topib savolga javob beradi.

1) Uchburchak

5 ga 5 ni qo‘shib, 5 ga ko‘paytirsak nechchi bo‘ladi.

Javob: 50.

2) Besh burchak

Yeng kichik tub son.

Javob : 2.

3) To‘rtburchak bo‘yi 5 sm, eni 3 sm. Uni yuzi va perimetrini toping.

$$S=15; S=ab; P=2(a+b)=16.$$

4) 6 burchak  $(25+10):7-2\cdot 8=?$

Xuddi shunday qilib joylashtirish mumkin.

“Xotira mashqi” kechasi

Bu kechada har bir bola qatnashishi mumkin.

1 – topshiriq. 1 dan 9 gacha bo‘lgan raqamlarni shunday joylashtiringki gorizontal va vertikal joylashgan raqamlarni qo‘shganida raqamlar yig‘indisi 15 ga teng bo‘lishi kerak.

Javob.

$$\begin{array}{ccc} 4 & 3 & 8 \\ 9 & 5 & 1 \\ 2 & 7 & 6 \end{array}$$

5– topshiriq.

1 dan 5 gacha bo‘lgan raqamlarni shunday joylashtiringki bir qatorda va ustunda hech qaysi raqam takrorlanmasin.

Javob.

Turli holatda joylashtirish mumkin.

Masalan.

1	4	3	2	5
5	3	4	1	2
4	2	1	5	3
2	1	5	3	4
3	5	2	4	1

6– topshiriq.

Bu topshiriqda bolalarni 2 ta guruhga ajratib 1 – guruhdagi har bir bola 2 – guruhdagi har bir bolaga 7 tadan son aytadi. 2 – guruhdagi bola bu sonlarni takroran aytishi shart. Keyingi guruhda ham raqib guruhga sonlarni aytadi. Shu tarzda bolalar xotirasini mustahkamlovchi musobaqalar o‘tkaziladi.

“Xo‘p – xo‘p” o‘yini

Bu o‘yinda ishtirokchilar 4 tadan ortiq bo‘lishi kerak bo‘ladi. Qatnashchilar aylana bo‘lib o‘tirishadi va natural sonlarni ketma – ket sanashadi. 3 ga bo‘linadigan na‘tural songa kelgan ishtirokchi “Xo‘p” deyishi va keyingi ishtirokchi 3 ga bo‘linadigan sondan keyingi sonni sanashi kerak bo‘ladi. O‘yinda umuman 3 ga bo‘linadigan son aytilmasligi va uzoq vaqt o‘ylab turilmasligi kerak, aks holda o‘sha ishtirokchi o‘yinni tark etadi. Bu o‘yinni murakkablashtirmoqchi bo‘lsak 5 soniga bo‘linadigan sonlarni ishlatmaslik ham mumkin.

## 2014 yil “SOG‘LOM BOLA YILI”

A. Nisanbayeva

“Farzandlarimiz bizdan ko‘ra kuchli, bilimli, dono va albatta, baxtli bo‘lishlari shart”.

Islom Karimov

“Vatanimiz kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro‘ – e‘tibori avvalombor farzandlarimizning unib – o‘sib ulg‘ayib qanday inson bo‘lib hayotga kirib borishiga bog‘liqdir. Biz bunday o‘tkir haqiqatni unutmashimiz kerak”.

Islom Karimov

“Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch” asaridan

Bu yorug‘ dunyoda hayot bor ekan, oila bor. Oila bor ekan, farzand deb atalmish eng bebaho ne‘mat bor. Farzand bor ekan, odamzot hamisha ezgu orzu va istaklar sari intilib yashaydi.

Islom Karimov

Beshikdan to qabrgacha ilm izla. (Hadisidan)

Har yilga yurtboshimiz  
Berarlar munosib nom.  
Maqsadlari – obodlik,  
Ezgulik etsin davom.  
Mazkur yil ham “SOG’LOM BOLA”  
deb nomlandi.  
Bu soʻzlar zamiriga  
Katta ma’no jamlandi.  
Oiladan boshlanar asli Vatan,  
Yurt ertasi, kelajakning beshigidir.  
Ezguliklar ildiz otar aziz maskan  
Ozod, obod jamiyatning eshigidir.  
Oilasi mustahkam yurt ravnaq topar,  
Yuksaladi, sharafiga qoʻshilar shon.  
Tinch, hotirjam va mustahkam boʻlar yana  
Bobolari, momolari bor xonadon.  
Gar mustahkam boʻlsa qoʻrgʻon, Vatan obod,  
Ezgu niyat ibodatdir, koʻngillar shod.  
Yurt koriga yaraydigan farzand boʻlar  
Bu qoʻrgʻonda kamol topgan yangi avlod.

Biz kecha bola edik, bugun onamiz, otamiz. Biz kecha ota-onalarimizdan yashash tilsimini oʻrgandik, demak, bu bizning zimmamizdagi qarz, uni uzishimiz shart. Bu qarzni uzishning faqat bitta yoʻli bor – farzandlarimizga milliy va umumbashariy qadriyatlarni sofligicha yetkazib berish, ularning yot koʻchalarga chalqʻib ketishiga yoʻl qoʻymaslik.

Sogʻlom bola-vatan iqboli .  
Sogʻlom bola -yurtim jamoli.  
Sogʻlom bola -vatan qoʻrgʻoni.  
Sogʻlom bola -millat posboni.

Oila jamiyatning asosiy boʻgʻinidir, hamda jamiyat va davlat muhofazasida boʻlish huquqiga ega.

(Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 63-modda)

## MATEMATIK ERTAKLAR

Matematika fanning asoschilaridan biri al-Xorazmiy 783-yilda Xorazmning qadimiy poytaxti Kot yaqinida tugʻilgan.

Xorazmiy yoshligidanoq oʻtkir zehni va mehnat sevar boʻlgan. U oʻqish va yozishni tez oʻrgandi, oʻz ustida mustaqil ishlab, fan asoslarini egallashga qattiq intildi. U ayniqsa matematikani zoʻr qiziqish bilan oʻrgandi. Xorazmiy oʻz ona tilidan tashqari fors, arab, qadimiy hind tili, yunon tillarini oʻrgandi. U koʻp mamlakatlarda

bo'ldi. Yetuk olim bo'lib tanilgan Xorazmiy o'z bilimini oshirish va fan bilan shug'ullamish maqsadida Bog'dodga keladi. Bu erda boshqa olimlar bilan birgalikda ilmiy ishlar olib boradi.

Xorazmiyning matematika faniga doir ikki asari yetib kelgan. U o'zining arifmetikaga doir asarida hindlarning to'qqizta raqami 1,2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, va 0 yordamida har qanday sonni oson va qisqacha ifodalagan. Hind raqamlari tarqalgunga qadar Yevropada Rim raqamlari ishlatiladi, lekin bu raqamlar o'zining murakkabligi bilan noqulay edi. Shaklda esa raqamlarni so'zlar yoki harflar bilan ifodalana edi.

Xorazmiy arifmetikamning qo'shish, ayirish, ko'paytirish va bo'lish qoidalarini yaratgan. Xorazmiy bulardan tashqari turli fanlarga oid bir qancha asarlar ham yaratgan.

O'quvchilardan ikki-uchtasi qo'shiq aytadi, qolganlari naqoratiga qo'shiladi.

O'N BESHMIZ "5" OLDIK. (P.Mo'min.)

O'qish fikru zikrimiz,

Ishga sodiq zehnimiz..

Qiyin demay masala,

Qldik rosa hafsula.

Naqorat

Masalami yecholmadik,

O'n beshimiz "5" oldik,


Naqorat:

Mana bizning kundalik,

Ozodadir shunchalik.

Qator-qator baholar,

Ko'rgan ko'z bahra olar.



1.Rebuslar.



$$\begin{array}{r} 48* \\ x*5 \\ **35 \\ ***4* \\ \hline 2191* \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 98* \quad | \quad 38 \\ - \\ \hline 76 \\ -22* \\ \hline *** \\ \hline 0 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} -4042 \quad | \quad 8* \\ \hline 344 \\ -602 \\ \hline 602 \\ \hline 0 \end{array}$$

2.Sonl

arni kvadratchalarga shunday joylashtiringki, bir to'g'ri chiziqqa joylashgan istalgan uchtasining yig'indisi 42 ga teng bo'lsin.



10 dan 12 gacha sonlarni shunday joylashtiringki (har bir figuraga bittadan son) ularning yig'indisi bir xil songa quyidagicha yo'nalishda bo'lsin: markazdagi figuralarning satr bo'yicha har ikkitasining yig'indisi; o'rtadagi ikki qatordagi sonlar yig'indisi; to'rtta aylanadagi sonlar yig'indisi; o'rta kvadratdagi sonlar yig'indisi bir xil songa bo'linishi kerak.

3. 5 so'mlik chaqa olib, uni qo'lingizning bosh barmoq va ko'rsatkich barmoqlari uchiga mun yoki plastilin bilan yopishtiring.

O'rtog'ingizni ko'zlarini bog'lab stulga o'tqazib qo'ying va barmoqlaringizdagi chaqalarni o'rtog'ingizning goh o'ng tomonida, goh chap tomonida chiqillating. Bu holda o'rtog'ingiz tanga qay tomonda chiqillatayotganni to'g'ri aytib bera oladi.

Lekin siz qo'lingizni uni burni yoki og'zi to'g'risida yo bo'lmasa iyagi to'g'risida tutib, tangalarni chiqillatsangiz, tovush unga yo o'ngdan, yo chapdan eshitalayotganday bo'ladi.

Eng qizig'i shuki, ko'zi bog'lanmagan tamoshabinlardan har bir o'zini boshqalardan qulayroq hisoblaydi va tovushning qayoqdan eshitalayotganligini yanglashilmay aytib bera olaman deb o'ylaydi, lekin ko'zlarini bog'lash bilan ular ham shunday yanglishadilar.

Boshingiz qay tomonga og'ishgan bo'lsa, tovush hamma vaqt o'sha tomondan eshitalayotgandek bo'ladi.

4. Barcha sezish organlarimiz orasida eng ko'p yanglishadigani ko'zlarimiz bo'lsa kerak: bir misol keltiraylik. Stolga, o'zingizdan 50sm nariga bir shisha qo'ying, so'ngra shishaning probirasini ochib, shu probirani shisha og'ziga ag'darib qo'ying.


Bundan keyin bir ko'zingizni qo'lingizni bilan hech bir hiylasiz bekiting va ikkinchi qo'lingiz bilan tezgina haligi probirani chertib tushurmoqchi bo'ling. Ikkala ko'zingiz ochiq bo'lsa probirani chertib tushirish juda oson, lekin bir ko'z bilangina qaraganda buni qilib bo'lmaydi. Siz bo'sh joyni chertasiz-u probira joyida qolaveradi.

## MATEMATIKADAN 10 TA QIZIQARLI MA'LUMOT

U. Sultonova

1. Angliyalik matematik Abraham de Muavr, keksalik davrida, uyqusining vaqti kuniga 15 minutdan ko'payib borayotganini aniqladi. Arifmetik progressiyani tuzib, uyqining unumiy vaqti 24 soatga teng bo'lgan kunini hisobladi – bu kun 1754 yil 27 noyabrga to'g'ri keldi. Aynan shu kuni, u olamdan ko'z yumdi.

2. Dindor yahudiylar, xristianliklarning simvollariga, va unuman, salb belgisiga o'xshash belgilarga duch kelmaslikka harakat qiladilar. Masalan, ba'zi Isroil maktab o'quvchilari, "plyus"



belgisining o‘rniga teskari “t” belgisini qo‘yadilar.

3. Yevro kupyurasining haqiqiylikini, undagi harfning seriya raqami va 11 sonidan tekshirish mumkin. Harfni, ingliz alifbosidagi tartib raqami bilan almashtirib, bu sonni boshqa sonlar bilan qo‘shib, undan so‘ng, birgina son hosil bo‘lgunga qadar, natijada chiqqan sonlarni qo‘shish kerak. Agar bu son – 8 bo‘lsa, kupyura haqiqiy hisoblanadi. Tekshirishning yana bir usuli, huddi shunday uslubda, faqat harfning ishtirokisiz bo‘lgan qo‘shishdan iborat. Bitta harf va bitta sondan tashkil topgan natija, ma‘lum bir mamlakatga mos kelishi kerak, chunki yevro turli xil davlatlarda chop etiladi. Masalan, Germaniya uchun bu X2.

4. Alfred Nobel, o‘z mukofoti ro‘yhatiga matematika fanini qo‘shmaganining sababi, uning rafiqasi, matematik bilan xiyonat qilgan, degan fikr bor. Aslida esa, Nobel, hech qachon uylanmagan. Nobel tomonidan matematika fanining nazarga ilmaganining haqiqiy sababi noma‘lum, ammo bu to‘g‘risida bir nechta fikrlar bor. Masalan, shu paytga kelib, matematika fanidan Shvesiya qirolining mukofoti bor edi. Ikkinchisi – matematika inson uchun hech qanday muhim kashfiyotlar qilmaydi, chunki fan faqatgina teoritik xarakterga ega, xolos.

5. Relo uchburchagi – a radiusidagi uchta bir xil aylanalarning a tomonli teng tomonli uchburchakning baliklarining markazi bilan kesishuvidan hosil bo‘lgan shakl. Relo uchburchagi asosida qilingan sverlo, (noaniqligi 2% bo‘lgan) kvadrat shaklidagi teshiklarni o‘yishga yordam beradi.

6. Rus matematik adabiyotida, nol natural son hisoblanmaydi, g‘arbiy adabiyotlrida esa, aksincha, ko‘pgina natural raqamlar qatoriga kiradi.

7. Universitet aspiranti bo‘lmish, amerikalik matematik Jorj Dansig, kunlardan bir kuni Tadbirga kechga qolib, doskada yozilgan barcha tenglamalarni uy vazifasi sifatida oldi. Ular oddiy tenglamalarga nisbatan murakkabroq tuyuldi, lekin bir necha kundan so‘ng, u axiri, ularni yechishga muvaffaq bo‘ldi. Aniqlanishicha, u ko‘pgina olimlar yechishga uringan, statistikadagi ikki “yechilmas” muammolarni yecha oldi.

8. Kazino ruletkasidagi barcha sonlar yig‘indisi, shayton raqami – 666 ga teng.

9. Sofya Kovalyovskaya, bolaligida, xonasiga oboy yetmaganida va oboy o‘rniga Ostrogradning differensial va integral hisoblashlari to‘g‘risidagi leksiyalari qog‘ozlari yopishtirilganda, matematika bilan tanishdi.

10. 1897 yilda, Indiana shtatida, 3,2 ga teng bo‘lgan Pi sonining qonuniy qiymatini belgilovchi bill chiqarildi. Ushbu bill universitet professorining aralashuvi tufayli qonunga aylanmadi.

## Mundarija

Soʻz boshi.....	3
<b>I. Ijtimoiy yoʻnalishdagi tadbirlar ssenariysi</b>	
Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir.....	5
Vatanni sevmogʻ iymondandir.....	7
Buyuk va muqaddasan, mustaqil vatan.....	10
Sogʻlom avlod orzulari.....	15
Maʼnaviyat-Qalbim quyoshi.....	18
Oʻzbekiston mening vatanim.....	22
Hadislar- axloqiy tarbiya manbai.....	25
<b>II. Buyuk mutafakkirlar</b>	
Sohibqiron bobomiz Amir Temur.....	27
El desa Navoiyni.....	31
Abu Rayhon Beruniy-buyuk matematik.....	40
<b>III. Fanlarga oid ssenariylar</b>	
<b>a) Biologiya fani boʻyicha</b>	
Biologik xilma-xillikni saqlab qolish.....	59
Yaylovda kim asosiy.....	64
Atrof – muhit, hayot vaznlari mavzusidagi ekologik tadbir.....	66
<b>b) Matematika fani boʻyicha</b>	
Tinglang sonlar tasnifi.....	68
Bilimlilar bellashganda.....	74
Zukkolari bahsi.....	82
Quvnoqlar va zukkolari klubi.....	87
Raqamlar mamlakatida.....	89
Matematik bilimlar kechasi.....	92
Matematik kecha.....	95
Yosh matematiklar koʻrik tanlovi.....	100
Siz kompyuterni bilasizmi?.....	103
<b>c) Fizika fani boʻyicha</b>	
Assalom, fizika.....	106
Kechki ovqatda fizika.....	106
Fizika kechasi.....	107
Tebranishlar va toʻlqinlar.....	110
Turli muhitlarda diffuziya hodisasi.....	112
<b>c) Chizmachilik fani boʻyicha</b>	
Tabiatda chizma tasvir.....	113
Siz AVTOCAD dasturida chizma chiza olasizmi?.....	115
Chizma olamiga sayohat kechasi.....	117
Qadimgi meʼmoriy obidalarning geometrik tahlili.....	122
Qirqim turlari haqida bilasizmi.....	125
<b>IV. Kasb-hunarga yoʻnaltiruvchi tadbirlar ssenariysi</b>	
Kasbim-faxrim.....	128
Naqsh-tabiat gullari.....	131
Mohir usta.....	134
Bizning meʼmoriy obidalarimiz.....	137
Tabiat va kichik rassom.....	140
Ustoz buyuk zot.....	144
<b>Ulovalar.....</b>	<b>146</b>
<b>Mundarija.....</b>	<b>171</b>

**O.Jamoldinova , B.Abdullayeva, M.Toshpo'latova**

**YOZGI BOLALAR SOG'LOMLASHTIRISH  
OROMGOHLARI UCNUN TADBIRLAR  
SSENARIYLARI**

**Mas'ul muharrir:**

T.Narbaeva - pedagogika fanlari nomzodi

**Bosh muharrir:**

M.Maxkamov

**Sahifalovchi:**

O'.Egamov

Nashr.lits.: № 10-3443, 16.04.2015

Terishga 21.04.2015 yilda berildi.

Bosishga 30.04.2015 yilda ruxsat etildi.

Bichimi 60x84 1/16. Ofset bosma. Tayms garniturası. Shartli b.t. 16.172.

Nashr b.t. 4.174. Adadi: 1000 nusxa.

Bahosi shartnoma asosida.

«MUROD-MAX-GOFRA» bosmaxonasi, Toshkent shahri.  
Yakkasaroy tumani, 94A.